

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi,
Qarshi Davlat Universiteti.**

**Tarix fakul`tetining IV -kurs
tarix yo`nalishi uchun.**

“Jahon san‘ati” tarixi fanidan

O’quv metodik majmua

Qarshi- 2009

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi,
Qarshi Davlat Universiteti.**

“Tasdiqlayman”

Tarix fakul'teti dekani

_____ dots.Б.Саидов

_____ 2009 yil.

Tarix fakul'tetining IV -kurs

Tarix yo`nalishi uchun.

“Jahon san‘ati” tarixi fanidan

Ishchi dasturi

Qarshi- 2009

Tuzuvchi:

Katta o'qituvchi A.Do'stov.

Ishchi dastur "Jahon tarixi va arxeologiya" kafedrası

(bayon № 1. 27 .08. 2009 yil) yig'ilishida ko'rib chiqilgan, hamda o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

dost O.Bo'riyev.

**Ўz R O'YMTVning 2006 yil 18 iyuldagi
167-sonli b'yrufi bilan tasdiqlangan
fan dasturiga asosan ishlab chiqilgan**

«Jahon san‘ati tarixi» fanining asosiy maqsadi va vazifalari.

Jahon tarixi fanini o'rganishda Jahon mamlakatlari xalqlarining san‘ati tarixiga bevosita murojat etamiz.

Insoniyat tarixi madaniyati va san‘atining rang-barangli, bir nesha ming yillik o'tmishi bilan kishini o'ziga jalb etadi. Uzoq o'tmishdanoq turli diniy qarashlarga turlicha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yashagan turli xalqlar o'ziga xos mada-niyat va san‘at durdonalarini yaratib bizgacha etkazib qoldirishgan. Jahon san‘ati tarixini o'rganar ekanmiz buning yaqqol dalillariga guvoh bolamiz.

Jahon madaniyati va san‘ati taraqqiyotiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgan. Mamlakatimizda mavjud san‘at durdonalari jahon olimlari tomonidan nihoyatda yuqori baholangan.

1.2 Fanning mavzularga bo'linishi va ularga o'rganiladigan muammolar

«Jahon san‘ati tarixi» fani tematik rejaga muvofiq : Jahon san‘ati tarixi fanining maqsadi, vazifalari va uning fan sifatida shakllanishi, Ibtidoiy jamoa tuzumi san‘ati, Qadimgi dunyo san‘ati, antik dunyo san‘ati, Qadimgi Hindiston va Xitoy san‘ati, Uyg'onish davri san‘ati, O'rta asrlar davri san‘ati, Gotika san‘ati ,XVII-XVIII asrlar san‘ati mavzuiga bo'linib, jahon tarixi fanida o'ziga xos o'rin egallagan, ega bo'lgan xalqlarning san‘ati tarixiga alohida to'xtalib o'tiladi.

Ayniqsa mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng “sir saqlangan” uzoq o'tmish tariximizga qiziqish ortdi. Qo'hna va navqiron sharlarimizning 3000 yillik tarixi, madaniyati va san‘ati qayta tiklanib, jahon olimlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

1.3 Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi va tarix fani o'qituvchilari uchun uslubiy yordami.

«Jahon san‘ati tarixi» arxeologiya, astranomiya, etnografiya , adabiyot, matematika, tarix fanlari bilan birgalikda tatbiq etiladi, o'rganiladi.

Tanlangan mavzular mamlakatimiz mustaqilligi tufayli o'rganishga imkon tugilib, xalqimizning uzoq o'tmish tarixi urf-odatlarini, ijtimoiy- iqtisodiy hayoti bilan bevosita bog'liq mavzulardir. Talabalar mavzular bo'yisha referat va mustaqil ishlar yozib, kelajakda bitiruv malakaviy ishlar , ilmiy tadqiqot Ishlari ham olib borishlari mumkin.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (“Bumerang”, “Klaster”, “Munozara”) foydalaniladi.

1.4 Fanning mavzulari va rejasi

Mavzu: Jahon san‘ati tarixi fanining maqsadi, vazifalari va uning fan sifatida shakllanishi. Ibtidoiy jamoa tuzumi san‘at tarixi.

Kirish. Fanning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari. San‘atning mazmun mohiyati. Uning jamiyatdagi o'rni. Bugungi kunda turli xil ma'nolarda qo'llanilishi.

Jahon san‘ati tarixini o'rganish uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklari bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuygu, hayotiy tajribalarini o'rganish goyaviy estetik qarashlarining shakllanishi. Fan sifatida shakllanishi. San‘atning har-xil turlarining paydo bo'lishi.

Paleolit davri san‘ati. Shimoliy Afrika, Janubiy Osiyo va Yevropadan topilgan san‘at asarlari. Mezolit davri san‘atining o'ziga xos xususiyatlari. Diniy e'tiqod va san‘at Osiyo, Afrika, Yevropa xududlaridan topilgan san‘at asarlari namunalari.

O'zbekistondan topilgan qoyatosh suratlarini. Qadimgi davrda O'rta Osiyo san‘ati.

San‘at asarlari-jamiyat farqqiyotini belgilovchi omildir. San‘at kishilik jamiyati ongi mezonidir. Jamiyat taraqqiyotining san‘atga ta'siri .

Neolit davri san‘ati. San‘at asarlari namunalarining avvalgi davr asarlaridan farqi. Bronza (Jez) davri san‘ati. Bronza davri arxitekturasi. Neolit, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyo san‘ati.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (“Munozara”) foydalaniladi.

Mavzu: Qadimgi dunyo san'at tarixi.

Qadimgi dunyo san'ati tavsifi. Ishlab chiqarish va san'at ravnaqining mutanosibligi. Qadimgi Misr san'ati sulolalar davrigacha Misr san'ati. Misrda qadimgi, o'rta, yangi va so'nggi podshohliklar davri me'morchiligi, xaykaltaroshligi, yozuvlari va badiiy hunarmandchiligi.

Qadimgi Xindistonda me'morlik, haykaltaroshlik va rassomlikning bir-biri bilan uygunlashuvi. Hindiston san'atining o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi Moxenjo-doro qoldiqlari. San'at asarlarida Qadimgi hind dostonlari «Maxabxarata» va «Ramayana» ning aks etishi. Maurya sulolasi davrida san'atning gullab-yashnashi. Guptalar sulolasi davrida san'atning so'nggi taraqqiyoti.

Qadimgi Xitoy san'ati. Qadimgi Xitoy san'atida kulolchilik («Yansho madaniyati yodgorligi»), «Lunshan madaniyati yodgorliklari») «Buyuk Xitoy» devorining qurilishi.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan («Bumerang») foydalaniladi.

Mavzu: Antik dunyo va O'rta asrlar davri san'ati.

Egey san'atining o'ziga xos jihatlari. Troya Krit Trinf Mikena me'morchiligi, rassochiligi, haykaltaroshligi va amaliy san'ati.

Qadimgi Yunoniston (Gretsiya) san'ati, uning bosqichlari, Gomer, Arxaika Klassika davri. Me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik va amaliy san'at. Perikl davri san'ati. Qadimgi yunon san'ati namoyondolari. Fidiy, Poliklit, Skopas, Proksitl, Lisipp va boshqalar. Ellinizm. Ellinistik Gretsiya. Aleksandriya, Pergam. Rodos san'ati. Qadimgi dunyo san'atiga dinnig ta'siri.

O'rta asrlar davri san'atining avvalgi davr san'atidan farqi. Vizantiya san'ati. Roman san'ati, me'morchiligi, haykaltaroshligi. Gotika uslubi san'ati.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan («Klaster») foydalaniladi.

Mavzu: Uyg'onish davri san'at tarixi.

«Uyg'onish» so'zi va unig mohiyati. Ijtimoiy-siyosiy- iqtisodiy hayot va uning san'atga ta'siri. Ilk rivojlangan va yuqori Uyg'onish davri san'ati o'rtasidagi va hududiy chegarasidagi farqlar. Italiya Uyg'onishi. Protorenessans. Florentsiya. Jotto. Uyg'onish davri me'morchiligi. XV asr Filippo Brunelleski, Leon Batista Alberti, Benedetto da Mayono.

Florentsiya haykaltaroshlari. Lorentso Giberti, Donatello (Donato di Nikolo, Di Berto Bardi). Florentsiya rassomlari-Mazachcho, Uchello, Kastano, Anjeliko, Dominiko Venetsiano, Filippo Lippi. XV asrning so'nggi 30 yilligida Florentsiyada yashab o'tgan mashhur haykaltarosh Andrea Verokkio.

Amir Temurning san'at ravnaqiga qo'shgan hissasi. Samarqand me'morchiligi, fan va san'atning yug'unlashuvi. Minayura san'ati.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan («Bumerang») foydalaniladi.

Mavzu: XVII asrda san'at tarixi.

Yevropada «Barokko asri». Yevropa me'morchiligi. Vinola, Palladio me'morlik asarlari. Mikelanjelo haykallari. Korrejo dekorativ rang-tasvir asarlari.

Flandriya «flamand barokkosi». Barokko uslubining Angliya, Skandinaviya mamlakatlariga kirib borishi. Klassitsizm. Realistik san'at asarlari.

XVII asrda Gollandiya san'ati. Rassomchilik Frans Xals, Rembrandt.

O'rta Osiyoda me'morchilik, xattotlik va kitob bezash.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan («Munozara») foydalaniladi.

Mavzu: XVIII asrda san'at tarixi.

Yevropada ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va uning san'atga ta'siri. Yevropa me'morchiligi. XVIII asrlarda Italiya, Ispaniya va Frantsiya san'ati.

Italiyada me'morchilik, rassomchilik (Jovanni Battist T'epolo, Franchesko Gvardi).

Barokko uslubining Angliya, Skandinaviya mamlakatlariga kirib borishi. Klassitsizm. Realistik san'at asarlari.

O'rta Osiyoda me'morchilik, xattotlik va naqqoshlik.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Munozara") foydalaniladi.

Mavzu: XIX asr san'ati.

XIX asr san'atining o'ziga xos jihatlari va yo'nalishlari. Yevropada ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va uning san'atga ta'siri. XIX asrda Angliyada san'at: rassomchilik (Jon Konstabl, Jozef Yulyam Terner.)

Ispaniya (Fransisko Goyya) va Frantsiyada san'atning rivojlanishi.

Frantsiyada romantizmning vujudga kelishi. Haykaltaroshlik, me'morchilik va rassomchilik.

O'rta Osiyo san'ati va uning yo'nalishlari. O'rta Osiyo san'at maktablarining rivojlanishi.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Munozara") foydalaniladi.

Mavzu: XIX asr oxiri XX asr san'ati.

XIX asr oxirida G'arbiy Evropa san'ati: me'morchiligidagi zamonaviy rusum. Rassomchilikdagi yangicha oqimlar. Kubizm, futurizm, ekspressionizm. (Pablo Pikasso.) Haykaltaroshlik (Antual Burdel', Aristod Mayol, Sharl' Desenyu).

Grafika (Tuluz-Lotrek, Teofel'-Aleksandr, Steynlen, Kete Kol'vitc, Fransa Mazarel', Frenk Brengvin). Tasviriy san'at.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi va milliy san'atning tiklanishi.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Munozara") foydalaniladi.

A d a b i y o t l a r

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intirmoqda. T., 1999.
3. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch. T., 2008
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. 2-nashri. T., 2000.
5. Abdullaev N. San'at tarixi. T. O'qituvchi, 1987.
6. San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. T., 1998.
7. O'zbekiston san'atshunoslik muammolari. T., 1997.
8. XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asrda O'rta Osiyo san'ati. (tasviriy va amaliy san'at) . T., 1995.
9. O'zbekiston tasviriy san'ati. T., 1976.
10. Mo'minov I.M. Temuriylar davri O'rta Osiyo san'atining paydo bo'lishi va taraqqiy etish ildizlari haqida. T., 1969.
11. Sulaymonov X. Temuriylar davri badiiy qo'lyozma va xattotlik san'atini o'rganish masalalari, Samarqand-Toshkent 1969.
12. Akimushkin O.V. ,Ivanov A.A. Persidskie miniatyur XIV-XVII vv.-L., 1968.
13. Albaum L.I Jivopis Afrasiaba.-T., 1975.
14. Alpatov M.V. Vseobshaya istoriya iskusstv. T.1-2.-M., 1948-1949.
15. Alpatov M.V. Etyud po istorii zapadnoevropeyskogo iskusstva.-M., 1963.
16. Arxitekturne pamyatniki Sredney Azii. Buxara, Samarkand.-L., 1969.
17. Benesh O. Iskustvo Severnogo Vozrojdeniya.-M., 1966.
18. Burkhardt Ya. Kultura Vozrojdeniya v Italii.-M., 1966
19. Veymarn B.V. Arxitekturno-dekorativnoe iskusstvo Uzbekistona.-M., 1948.
20. Dmitrieva N.A. Kratkaya istoriya iskusstv. M., 1985.
21. Iz istorii jivopisi Sredney Azii. Traditsii i novatorstvo. T., 1984.
22. Iskustvo. Kniga dlya chteniya. Sost. M.V. Alpatov i dr. M., 1969.
23. Iskustvo zodchix Uzbekitana. T. 1-4.-T., 1962-1969
24. Istoriya iskusstvo zarubejnx stran. T. 1-2. M., 1961-1963.
25. Istoriya zarubejnogo iskusstva. Uchebnik. Pod red. N.L. Maltsevov, M.L. Kuzminoy.-M., 1980.
26. Kaziev A. Yu. Xudojestvennoe oformlenie rukopisnoe knigi. M., 1977.
27. Kratkiy slovar terminov izobrazitelnogo iskusstva. M., 1959.
28. Ocherki po istorii russkogo iskusstva. M., 1954.
29. Polevoy V.M. Iskustva XX veka . 1901-1945. M., 1991.
30. Pugachenkova. G.A. Skulptura Xalchayana.-M., 1971.
31. Pugachenkova G.A. Iskustva Baktrii epoxi Kushan.-M., 1978.

33. Ziyonet axborot tarmog`i –www.ziyonet.uz

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri: _____ Dost O.Bo`riyev.

_____ 2009 yil

“JAHON SAN‘ATI TARIXI” FANIDAN ISHCHI DASTUR BAJARILISHINING KALENDAR TEMATIK REJASI.

№	Modul va mavzu nomlari	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan vaqt	Talaba mustaqil ishi mavzusi	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma‘lumot		Q‘ituvchi imzosi
						Soati	Oy va kun	
I Modul								
1	“Jahon san‘ati” tarixi fanining maqsadi, vazifalari va uning fan sifatida shakllanishi. Ibtidoiy jamoa tuzumi san‘ati	Ma’ruza	4	“Jahon san‘ati” tarixi fanining maqsadi, vazifalari va uning fan sifatida shakllanishi.	yozma	2		
2	Qadimgi dunyo san‘ati	Ma’ruza	4	Ibtidoiy jamoa tuzumi san‘ati.	yozma	4		
3	Antik dunyo va O‘rta asrlar davri san‘ati.	Ma’ruza	2	Qadimgi Misr san‘ati	yozma	4		
4	Uyg‘onish davri san‘ati	Ma’ruza	2	Antik dunyo san‘ati	yozma	4		
5	“Jahon san‘ati” tarixi fanining maqsadi, vazifalari .	Amaliy	2	Qadimgi va o‘rta asrlarda Rus’ san‘ati	yozma	4		
6	Ibtidoiy jamoa tuzumi san‘ati.	Amaliy	4	Qadimgi O‘rta Osiyo san‘ati	yozma	4		
7	Qadimgi dunyo san‘ati	Amaliy	2	O‘rta asrlarda Evropa san‘ati	yozma	4		
8	Antik dunyo san‘ati	Amaliy	2	O‘rta asrlarda O‘rta	yozma	4		

				Osiyo san'ati				
	2 Modul							
9	XVII asr san'ati	Ma'ruza	2	Qadimgi Hindiston san'ati	yozma	4		
10	XVIII asr san'ati.	Ma'ruza	2	Qadimgi Xitoy san'ati	yozma	4		
11	XIX asr san'ati	Ma'ruza	2	Qadimgi Rim-Italiya san'ati.	yozma	4		
12	XIX asr oxiri va XX asr san'ati	Ma'ruza	2	Roman va Gotika san'ati uslubi	yozma	4		
13	Qadimgi Hindiston va Xitoy san'ati	Amaliy	4	Uyg'onish davri san'ati	yozma	4		
14	Uyg'onish davri san'ati	Amaliy	2	Uyg'onish davrida Niderlandiya san'ati	yozma	2		
15	Qadimgi Rim-Italiya san'ati.	Amaliy	4	Yangi davrda Yevropa san'at tarixi. (XVI-XVIII asrlar)	yozma	2		
	Jami: Ma'ruza: 20 Amaliy mashg'ulot: 20 Mustaqil ish: 54							

“JAHON SAN‘ATI TARIXI” FANIDAN REYTIHG ISHLANMASI VA BAHOLASH MEZONLARI.

REYTIHG ISHLANMASI

№	Nazorat turlari	Soni	ball	Jami ball
1	JB 1.1.Amaliy mashg’ulotni bajarish 1.2.TMI (Tarix o`qitish usullari) –yozma uy ishi tayyorlash	10 1	5 (3+2) 5	50 5
2	OB 2.1.Yozma ish (3 ta savol) 2.3. Tect (20 ta)	2 1 1	15 (3 x 5=15) (20x 0,7=15)	30
3	YA B 3.1.Yakuniy baholash Test (30 ta savol) Yozma ish (3 ta savol)	1	15 (30x0,5=15) (3 x 5 =15)	15
	Jami:			100

“Jahon san’ati tarixi” fanidan baholash mezonlari.

1.1. Amaliy mashg’ulotda qatnashib, uning topshiriqlarini to’la sifatli bajargan talabaga **2,6 - 3** ball beriladi, agar to’la bo’lmasa bajarish darajasiga qarab **1,6 -2,5** ballgacha beriladi.

1.2. Amaliy ishlari bo’yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarning bajarilishi hajmi va sifatiga qarab **1,1** dan **2** ballgacha berilishi mumkin (topshiriqlar to’liq va sifatli, ijodiy tarzda bajarilsa **1,8 -2** ball, sifatli va me’yor talablari darajasida **1,5-1,7** ball, o’rta darajada **1,1-1,4** ball).

2.1. Oraliq baholash yozma tarzda o’tkazilib, unda **3** ta savolga javob berishi so’raladi.

Har bir savolga **5** ballgacha baholanadi.

. agar savol mohiyati to’la ochilgan bo’lsa, javoblari to’liq va aniq hamda ijodiy fikrlar bo’lsa **4,6 - 5** ball

. savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to’g’ri bayon etilgan bo’lsa **4,1- 4,5** ball

. savolga umumiy tarzda javob berilgan ammo ayrim kamchiliklari bo’lsa **3,6- 4** ball

. savolga umumiy javob berilgan ammo ayrim faktlar to’liq yoritilmagan bo’lsa **3,1 - 3,5** ball

. savolga javob berishga harakat qilingan ammo chalkashliklar bo’lsa **2,6 - 3** ball

2.2. Oraliq baholash test tarzda o’tkazilib **20** ta savolning har biri **0,7** ballik tizimida baholanadi.

2.3. Talabaning mustaqil ishi berilgan mavzu bo’yicha yozma uy ishi tayyorlanib, **5** ball baholanadi.

. ishda mavzu to’liq ochilgan to’g’ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo’lsa **4,6 - 5** ball

. mavzu mohiyati ochilgan faqat hulosasi bor bo’lsa **4,1 - 4,5** ball

. mavzu mohiyati yoritilgan ammo arziyas kamchiligi bo’lsa **3,1 - 4** ball beriladi

. mavzu mohiyati yoritilgan ammo ayrim kamchiligi bor bo’lsa **2,6 - 3,0** ball beriladi

3.1 . Yakuniy baholashda **30** ta test savoliga berishi lozim, test savolining har biri **0,5** ballik tizimida baholanadi.

Yakuniy baholash yozma tarzda o’tkazilib, unda **3** ta savolga javob berishi so’raladi.

Har bir savol **5** ballgacha baholanadi.

. agar savol mohiyati to’la ochilgan bo’lsa, javoblari to’liq va aniq hamda ijodiy fikrlar bo’lsa **4,5 - 5** ball

. savolning mohiyati to’la ochilgan, asosiy faktlar to’g’ri bayon etilgan bo’lsa **4,1 - 4,4** ball

. savolga to’g’ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo’lsa **3,1 - 4** ball

. berilgan savolga javoblar umumiy va kamchiliklar ko’proq bo’lsa **2,6 - 3** ball

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi,
Qarshi Davlat Universiteti.**

**Tarix fakul`tetining IV -kurs
Tarix yo`nalishi uchun.**

“Jahon san‘ati tarixi” fanidan

MA`RUZALAR MATINI

Tuzuvchi : k.o`qituvchi A.Do`stov

Qarshi-2009

“...Bizga sobiq tuzumdan meros bo’lib qolgan maorif tizimining eng nomaqul tomoni shundan iborat ediki,unda o’quv jarayonida o’quvchi va talabalarning mustaqil va erkin fikrlashga yo’l qo’yilmas edi.”

I.Karimov.

1-Mavzu. Jahon san’ati tarixi fanining maqsadi, vazifalari va uning fan sifatida shakllanishi. (2-soat)

Reja:

- 1.Kirish.Fanning dolzarbligi, maksad va vazifalari.
- 2.San’atning jamiyatdagi o’rni.
- 3.Jahon san’ati tarixi fanining Fan sifatida shakllanishi.

Adabiyotlar.

- 1.Abdullaev Ne’mat. San’at tarixi. Ikki tomlik.T. «O’qituvchi». 1987.
- 2.Abdullaev N.D.“San’at tarixi”.Toshkent «O’zbekiston» 2006.
- 3.Abdullaeva D. San’at tarixi.T. «O’zbekiston». 2006.
- 4.San’atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to’plami. T .1998
- 5.Umarov Erkin. Estetika.Toshkent «O’zbekiston» 1995 y.

Dars o’tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (“Bumerang”, Munozara”) foydalaniladi.

Tayanch so’zlar:

San’at, Ibtidoiy san’at, professional san’atkorlar, insonparvarlik qadimgi yunonlar, grafika, dekorativ-amaliy san’at. buddizm, iudaizm, xristianlik, islom dini.

1-savolga javob

San’at qachon paydo bo’lgan? Tarix faniga uning qanday bog’liqlik tomoni bor. Bu savolga birma-bir javob bera boshlaymiz.

San’at-ijtimoiy ong va inson faoliyatining shakli. San’at qadimiy tarixga ega bo’lib u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog’lik holda vujudga kela boshlagan.

Ibtidoiy san’atning dastlabki izlari so’nggi paleolit davriga taxminan mil.av. 40-20 ming yillikka borib taqaladi.U davrda hali san’at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma’naviyat moddiy ishlab chiqarish bilan qorishiq xolatda edi. Keyinchalik madaniyatning o’sishi natijasida san’at alohida soxa sifatida asta-sekin ajrala bordi.

San’at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o’z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a’zolarini ma’lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va xissiy jixatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, xis-tuygu , manfaat, idellarini ifoda etgan.

San’at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o’zining predmeti, mazmuni , voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy xayotda tutgan o’rni xamda vazifalari jixatidan farq qiladi.

San’at insonning moddiy va ma’naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi maxorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot maxsulidir. Estetik tafakkur tarixida san’at narsa va xodisalarni qanday

bo'lsa shunday aks ettirish va xayotini go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash goyalari sari yuksalib bordi.

Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti xisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtai nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik baxosini beradi.

San'at turli ko'rinishlari bilan o'ziga xos badiiy estetik qadriyatlarini to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi.

Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqib boshlaydi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining spetsifik xususiyatini, sinfiyligining namoyon etib, hukmron sinfnin ideologiyasini targib etuvchi kuchli goyaviy qurolga aylandi.

Lekin shunga qaramay omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu- istaklarini ularning go'zallik va xudbinlik, olijanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va maglubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi.

Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularning tenglik, ozodlik, birodarlik, kelajakka intilish yo'lidagi quroliga da'vat etdi.

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boylar faqat o'tmish kishilardan olgan yoki yaratilayotgan boylar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql zakovati, hayot to'grisidagi fikr o'yinlarini aks ettiruvchi ko'zgo' hamdir.

2-savolga javob.

San'at keng ma'noli tushunchadir. Masalan qadimgi yunonlar, musiqa, raqs, nazmni san'at deb bilgan edilar. O'rta asrlarda esa san'at tarkibiga taaluqli kasalliklarni davolash va dorixonalar ishlari ham kiritilgan.

Bugungi kunda «san'at» so'zi «voqelikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirishi», «ishning ko'zini bilishi va mahorat ko'rsatish jarayoni», «har qanday ishning o'zi va u talab qiladigan mahorat darajasi» ma'nolarida qo'llaniladi.

San'at keng ma'noda san'at asarlari (badiiy qadriyatlar) bilan birga ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarni ham qamrab oladi. San'at haqidagi davrlarga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bogliq holda rivojlanib kelgan.

O'zbekiston hududida Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa manzillarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan yovvoyi hayvonlarning tasvirlari haqidagi davrlar nazariyadan yuksak estetik qiymatga ega.

Bu tasvirlarda har bir narsa turining mezoniga mos ijod qilish, ya'ni nafas qonunlariga rioya qilish, vazn tuygusi, tenglik aksi, ularni yaratish jarayonidan olinadigan quvonch kabi estetik faoliyatning muhim belgilari mavjud. Bu yodgorliklar in'ikos etiladigan badiiy faoliyat kurtaklari endigina ko'rinib kelayotgan inson estetik faoliyatining natijalari edi.

Badiiy faoliyatning eng qadimgi shakllari hali bir-biridan ajralmagan yaxlit ibtidoiy jamoa madaniyatning bir qismini tashkil etgan bo'lib, afsonaviy (mifologik) bo'laklarda ifodalangan.

Afsonalarda diniy mazmun keng o'rin olgan. Misr afsonalari asosiy diniy ibodat mazmuniga ega edi. Yunon afsonalaridagi diniy mazmun-yunon san'atining xazinasigina bo'lib qolmay, balki uning zamini ham tashkil etgan.

Qadimgi odamlar badiiy faoliyati jarayonida tabiatning ramziy-timsoliy aksi kurtaklari shakllandi. Mana shu ramziy timsolni aks ettirishda insonning mualliflik qo'li uslubi bor. Badiiy ramz timsol muallif ijodkorning betakror iste'dodini namoyon ildi.

San'at asosan yaxshi va yomon hodisalarni ibrat qilib ko'rsatish orqali axloqiy poklikka, rahmshafqatga, dardkashlikka, axloqiy kamolotga da'vat etadi. San'at qadim davrlardan beri din bilan uzviy bogliq holda rivojlanib kelgan. Kadimdan san'at va din aqidaviy bir butunlikni tashkil etgan edi.

San'at va din ijtimoiy ongning ma'naviy va amaliy shakllari qatoriga mansub bo'lib, ularning ikkalasi ham iqtisodiy zaminni ustidagi goyaviy ustqurmaning «yuqori qavati» dan o'rin egallaydi.

Jahon dinlari buddizm, iudaizm, xristianlik va islom san'at bilan bevosita bogliq. Diniy ibodatlar, marosimlar, san'at bilan tamsil etilib, inson ongiga, his-tuygusiga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Ovro'pa jamiyati ma'naviy hayotida xristianlik dini ehtiyojlarini qondirishning birdan-bir shakli diniy mazmundagi san'at asarlari bo'lgan.

Evropada san'atning juda ko'p buyuk asarlari diniy ibodat bilan boglangan bo'lib, siginish ob'ekti yoki diniy marosimlarni o'tkazish shakli, vositasi sifatida xizmat qilgan.

3-savolga javob.

Jahon san'at tarixi-bu har bir davlatning rivojlanish tarixidir.

Tarixiy taraqqiyot davomida san'atning har-xil turlari paydo bo'lgan:

Arxitektura, Haykaltaroshlik, Rangtasvir, Dekorativ-amaliy san'at, Grafika va boshq.

Bu san'at turlarining gullab yashnashi yoki rivojlanishidan to'xtab qolish sabablari har xildir.

Jahon san'at tarixini o'rganish uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklari bilan tanishish, o'tmish odamlarining his-tuygu, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir.

Jahon san'at tarixi san'atshunoslik fanining bir bo'limi hisoblanib, Fan sifatida XVI-XIX asrlar mobaynida shakllangan. Bunga qadar, falsafiy, diniy va boshqa fanlar tarkibida yoki ayrim ma'lumotlar, qo'llanmalar ko'rinishida bo'lgan.

Ilk namunalari Yunoniston (Aristotel, Platon mil av IV asrlar) qadimgi Rim (Tsitseron, Vitruviy mil av I mil. I –a) Osiyo mamlakatlarida san'at nazariyasi va tarixining ko'plab holati bayon qilingan yaxlit va universal ko'rinishdagi risolalar bitilgan. Ularda me'mor va rassomlarga ayrim qo'llanmalar, diniy mifologik afsonalar falsafiy, axloqiy va boshqa tasavvurlar, san'at tarixi elementlari qo'shilgan holda bayon qilingan.

Jahon san'at tarixi fanining fan sifatida shakllanishida Uygonish davri muhim bosqich bo'ldi. (L.Giberti, L.Alberti, Leonardo da Vinchi, A.Dyurer va boshqalar)

Ma'rifatchilik davrida mustaqil fan sifatida ajralib chiqq boshladi. (Frantsuz D.Didro, nemis G.Lessing va boshqalar).

2-Mavzu: Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati.

(2-soat).

Reja:

- 1.Paleolit asrida tasviriy san'atning vujudga kelishi.
- 2.Mezolit asri san'at namunalari.
- 3.Neolit asrida ayrim san'at turlarining shakllanishi.
- 4.Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim g'alabasi.
- 5.Temir asri san'ati .

A d a b i y o t l a r

Abdullaev N. San'at tarixi T. O'qituvchi. 1986 y.

Abdullaeva N.D. San'at tarixi. T. O'zbekiston 2006 y

Abdullaev N. San'at tarixi ikki jildlik. Birinchi kitob. T. San'at 2001y

Bozunova I.V. Isskustvo doklassovoga obshestva. L.1975.

San'atshunoslik masalalari Ilmiy maqolalar to'plami. T.1998

T a y a n c h s o ' z l a r

Primitiv, Frantsiya, Fon de Gom, Lyasko, Nio va Shimoliy Ispaniya, Altamir, «Narigi dunyo», Madlen asri, La-Madlen keramika, mengir, dolmen, Dekorativ, Galshtat madaniyati.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (Munozara) foydalaniladi.

1-savolga javob.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq

davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini hayotning ilk bosqichidayoq sezidilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil etadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar – mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'op va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi.

Arxeologlar ma'lumotiga ko'ra, paleolit asrida, ayniqsa, uning so'nggi bosqichlarida tasviriy san'atning hamma turlari paydo bo'ldi, diniy tushunchalar shakllana bordi.

Paleolit asriga oid faktik materiallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridai topilgan. Bu davrda odamlar katta-katta toshlarning panasida, g'op va yerto'lalarda to'da-to'da bo'lib yashaganlar. Bu g'or va yerto'lalar ibtidoiy jamoa kishisining «uyi» hisoblangan. Shu uylarning devor va shiplariga suratlar chizganlar, bo'rtma tasvirlar ishlashga harakat qilganlar. Ana shu odamlar yashagan manzillardan topilgan mehnat, ov qurollari, turli haykal va ramziy mazmunga ega bo'lgan shakllar ibtidoiy jamoa kishilarining estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi.

Dastlabki rasmlar primitiv (sodda, qo'pol, ibtidoiy, oddiy) va asosan, xayvonlar ko'rinishini tasvirlaydi. Mamont, yirik qutos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar kontur chiziqlarda, tabiiy bo'yoqlarda ishlangan.

Paleolit san'atining eng gullagan davri madlen_ asriga (er. av. 20-10 ming yillar) (Yodgorlik topilgan manzil nomi La-Madlen deb ataladi.) to'g'ri keladi. Bu davrda ishlangan hayvonlar tasviri aniq, shakli real, proporsiyalari to'g'ri olingan. Ularning o'ziga xos xarakterli tomonlari (kuchli va og'ir, yengil va ziyrak) ko'rsatiladi. Ular turli holatda va ko'rinishda tasvirlanadi. Rassom ranglar yordamidan, nur-soya imkoniyatlaridan ham foydalana boshlagani sezilib turadi.

Frantsiyaning Fon de Gom, Lyasko, Nio va Shimoliy Ispaniyaning Altamir g'orlari devorlariga ishlangan suratlar hayvonlar natural kattalikda, nihoyatda jonli va ta'sirchan ishlangan.

Madlen davrining so'nggi bosqichlarida murakkab kompozitsiyalar yaratishga intilish ortdi, tabiat manzaralari, hayvonlar to'dasi rasmini ishlash, ular harakatini biror syujetga bo'ysundirishga intilish seziladi. Shu xususda Frantsiyaning Limeyl g'oridan topilgan, tosh yuzasiga ishlangan «Kiyiklar podasi» surati, Teyja (Frantsiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan hayvonlar podasini aks ettiruvchi suratlar xarakterlidir.

Yuqori paleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox, loydan yasalgan har xil haykalchalar ham uchraydi. Relif (ko'proq uning barelefi) tabiiy tosh yuzasi yoki devor sathidagi notekisliklarga ishlov berish hisobiga yaratilgan. Haykaltaroshlikda ham hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi.

G'arbiy Yevropadan (Avstriya) topilgan «Villendorf Venerasi» deb nomlangan haykali mashhurdir. Jumladan, Sharqiy Yevropa, Sibir, O'rta Osiyoda bunday ayollar haykali ko'plab topilgan.

Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar topgan va topayotgan asheviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda.

2-savolga javob

Mezolit yoki o'rta tosh asrida (grekcha mesos – o'rta) odamlar katta bo'lmagan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi. O'q, kamon-yoy, qayiq'larning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yarata boshladilar.

Diniy tushunchalar keng yoyildi. «Narigi dunyo» tushunchasi paydo bo'ldi, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bular kishilarda murakkab tasavvur va fikrlashning paydo bo'layotganligidan dalolat beradi.

San'at mavzusi kengaydi, janrlari ortdi. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. «Kiyiklarni ovlash» (Ispaniya) suratida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan.

O'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjon (Qobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymali-tosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettiriladi. Zaravutsoydagi niqob kiyib o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettiruvchi surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi.

3-savolga javob

Neolit yoki yangi tosh asrida (grekcha «neos»-yangi) odamlar faqat tabiat in'om etgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan chegaralanmay, balki o'zlari ham uni yaratishga, ko'paytirishga harakat qila boshlaydilar. Endilikda ovchilikdan tashqari, chorvachilik va dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshladilar. Ishlab chiqarish jarayoni kuchaya bordi, shu bilan birga, kishilarning ma'naviy olami, dunyoqarashi ham murakkablasha bordi. Bu asrda ham toshlardan qurol yasash muhim rol o'ynadi. Lekin endilikda toshni qayta ishlash, uni pardoqlash, shu asosda juda nozik buyumlar yaratishga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Kulolchilik (keramika)ning paydo bo'lishi ham yangi tosh asrining muhim belgilaridan hisoblanib, ba'zan yangi tosh asrining keramika asri deb atalishi ham shundandir.

Yangi tosh asri oxirlarida esa ayrim yerlarda (Old Osiyo, Misr, Hindiston) dastlabki sinfiy formatsiya kurtak ota boshladi. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'stirdi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqsh san'atini maydonga keltirdi. Naqsh yangi tosh asrida keng yoyildi, amaliy-dekorativ san'atning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatdi.

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi.

Naqsh san'ati endilikda dekorativ funktsiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarini ham ifodalay boshladi. Yangi tosh asrida mayda plastika ham keng yoyildi. Loy, yog'och, shox va suyaklardan hamda qisman toshdan haykallar ishlandi. Mavzusi, asosan, hayvonlarni aks ettirish bo'ldi. Ko'p hollarda haykaltarosh hayvonning bosh qismini aniq tasvirlash va tana qismining umumlashma ko'rinishini ishlash orqali shunga erishadi.

Bu davr san'atida ayollar tasviri, ayniqsa, keng uchraydi. Lekin bu haykallar birmuncha sxematik va shartli yechimga ega. Ba'zan ayollar obrazi shartli belgilar darajasiga tushiriladi, ayollik belgilari bo'rttirib ko'rsatiladi. Bu xususda Janubiy Turkmanistondan, Ukraina (Tripole)dan topilgan ayol haykallarini ko'rish mumkin. Yangi tosh asri haqida gapirilganda shuni ta'kidlash lozimki, bu davrdan boshlab, san'atning lokal belgilari sezila boshladi.

Misr va Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya), Yevropa va Sibir neolit davri san'atining o'ziga xos xususiyatlari borligi shundan dalolat beradi. Ishlab chiqarish xususiyati, odamlar yashagan manzillar iqlimi, xarakteri san'atning o'ziga xos lokal tomonlarini belgilashda muhim rol o'ynadi.

Yangi tosh asrida paleolit san'ati an'analari rivoj topgan bo'lsa ham, lekin unda inson obraziga qiziqish orta bordi.

4-savolga javob

Bronza asri. Eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga kelib, odamlar misni qalay, qo'rg'oshin, rux yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o'rganib oldilar.

Bronza qurollar, yarog'-aslaha, zebu ziynat yasash uchun asosiy material bo'lib qoldi. Yer yuzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma xalq va elatlar boshidan kechirdi. Lekin bu asr ba'zi halqlarda (masalan, Eron, Mesopotamiya, Kavkaz, O'rta Osiyo) birmuncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillar o'rtalarida boshlangan bo'lsa, boshqa yerlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Kritda) eramizdan avvalgi 3 va 2 minginchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Hindiston, Yevropada eramizdan avvalgi II minginchi yillarda sodir bo'ldi.

Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim g'alabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi. Albatta, metall tabiatda bir xil tarqalmagan. Shu boisdan metallning ijtimoiy hayot taraqqiyotidagi rolining ortishi qabilalar orasida, bir tomondan, mol ayriboshlashning intensivlashishiga (jadal, tez, shiddatli) olib kelsa, ikkinchi tomondan, ular orasidagi nizoning kuchayishiga ham sabab bo'ldi. Urug'lar yagona qabila atrofida birlasha boshladi.

Qabilaning yagona boshliqqa bo'ysunishi esa mehnatni tashkil etishni yaxshiladi.

Qabila boshlig'i, oqsoqollarga e'tiqod bilan qarash, ularning vafotidan keyin jasadini yaxshi saqlashga harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan odatlar – qabrlarini boshqalar qabridan ajratib ishlashga intilish, muhtasham yer usti tuproq qo'rg'onlarining, maqbaralarni yuzaga kelishiga olib keldi. Qabrlarning ichki qismini ham alohida e'tiqod bilan bezadilar. U yerga qabila boshlig'i tirik paytida sevib ishlatgan buyumlarini qo'ydilar, surat va haykallarini ishlab, birga ko'mdilar. Bu qablardan topilgan sopol, metall, yog'och, suyak tosh kabi materiallardan ishlangan turli qurol-aslaha, uy-ro'zgor va bezak buyumlari, qabr devori, buyumlarning yuzasiga ishlangan bo'rtma va rangli tasvirlar ibtidoiy jamoa davri madaniyati va san'atini bilishda kishilarning falsafiy-estetik qarashlarini tushunishda bebaho manbadir.

Me'morlik. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar neolitning so'nggi va bronza asrida yuzaga kelgan megalitik (grekcha «meg» kata, lit «tosh»so'zidan olingan) qurilmalarida yaqqol seziladi. Odamlarning diniy tushunchalari – ota-bobolar ruhi (arvohi) bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu qurilmalar katta toshlardan ko'pchilik kuchi bilan barpo etilgan. Bu qurilmalar uch tipda – mengir, dolmen, kromlex tiplarida barpo bo'lgan.

1. Mengirlar o'z xarakteri jihatidan tik o'rnatilgan katta toshlar bo'lib, ularning balandligi 20 metrgacha yetgan. Ba'zan mengirlar baliq, odam, hayvon shakllariga o'xshatib ishlangan, ko'p hollarda mengirlar yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan qoplangan. (masalan, Armaniston, Qozog'iston, Sibir)da ham ko'plab uchraydi.

2. Dolmenlar tik o'rnatilgan ikki yoki to'rt tosh ustundan tashkil topgan bo'lib, ularning ustki qismlari ham shunday yaxlit yassi toshlar bilan berkitilgan. Tosh ustunlar yuzasi pardozlangan, ba'zan ramziy belgilar chizilgan. Bu yodgorliklar qabrtosh vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Qisman turar joy vazifasini ham o'tagan. Dolmenlar o'z ko'rinishi va qurilishi, printsipi jihatidan dastlabki monumental me'morlik namunasi hisoblanadi.

3. Kromlex aylana bo'ylab tik o'rnatilgan toshlardan qurilgan bo'lib, ular tosh to'siqlar bilan birlashtirilgan.

Angliyada Stounxendj yaqinidagi kromlex shu tipdagi qurilmaning klassik namunasi. Dolmen va kromlex yodgorliklari G'arbiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Kavkaz, Sibir va Qozog'iston yerlarida uchraydi.

5-savolga javob

Temir asri. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi bo'lgan temir asri, «harbiy demokratiya» insoniyat ma'naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon-torojlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan temir tosh va qisman, bronza buyumlarni hayotdan siqib chiqardi. O'z xususiyati jihatidan mustahkam bo'lgan bu metall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdorligining kuchayishiga samarali ta'sir qildi, ayniqsa, dehqonchilik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi so'nggi bosqichining xarakteri shu davrda yaratilgan mudofaa xarakteriga ega bo'lgan mustahkam qal'a va qo'rg'onlarda, bezakka boy uy-anjomlari, jang qurollarida, ko'mush marosimi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat buyumlarida ko'rinadi.

Temir asrida ham amaliy-dekorativ san'at yetakchi o'rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarning keng ko'lamda ishlatilishi uning sifatini o'zgartirdi, yangi tur va formalarini yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli (adabiy asarning asosiy mazmuni) kompozitsiyalardan foydalanish tendentsiyalari rivojlandi. Mayda plastikada metallardan ishlangan haykalchalar, janrli kompozitsiyalar paydo bo'ldi.

3-mavzu. Qadimgi dunyo san'ati.

2-soat.

Reja:

1. Qadimgi Dunyo san'atining vujudga kelishi.
2. Qadimgi Misr san'atida me'morchilik.

A d a b i y o t l a r

1. Abdiev B.I. Qadimgi Sharq tarixi. T 1965y
2. Afanaseva V. Lukonin V, Pomerantseva N, Isskustvo drevnogo Vostoka. M. 1976g
3. Abdullaeva N.D. San'at tarixi. T. «O'zbekiston» 2006 y
4. Abdullaev N. San'at tarixi T. «O'qituvchi.» 1986 y.
5. Boynazarov F.A. Qadimgi Dunyo tarixi. T. 2004y

T a y a n c h s o' z l a r

Qadimgi dunyo san'ati, Qadimgi Misr, me'morlik, mastaba, Joser piramidasi, Karnak vakt Luksor ibodatxonasi, klassik ehrom, pylonlar.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (“Bumerang”, Munozara”) foydalaniladi.

1-savolga javob.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik formatsiyasiniig paydo bulishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki inqirozi eramizdan avvalgi 5000 – 4000 yillarda boshlanib (qadimgi Misr, Old Osiyo, Xitoy, Hindistonda), yer yuzida yangi formatsiya: – quldorlik formatsiyasiga yo'l ochdi. Bu formatsiya eramizniig 3 – 5 asrlarigacha davom etdi.

Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zamirida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi.

Ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshladi. Devoriy suratlar, monumental relief va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Qadimgi dunyo san'atkori o'ziga xos formalarda kundalik turmush voqealarini aks ettira boshladi. Bu davrga kelib, odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgarib bordi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga – xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida odamlar aqliy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z xarakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yarata boshladilar. Shu bilan birga, inson obrazi-san'atning bosh qahramoniga aylana boshladi. Uning jasorati va olijanoblighi, iroda va aql-zakovatining qudrati san'atkorlar tomonidan kuylana boshlandi.

San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qulga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

2-savolga javob. Qadimgi misr san'ati

Afrikaning shimoli-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr Arab respublikasi yerlarida juda qadim paytlarda (er. av. VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda shu yerda yer yuzida birinchi sinfiy jamiyat ko'rtaklari nish urdi, quldorlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri – 3000 yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi

va inqirozidan tortib, to makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy)ning yurishi bilan uning ellinistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi.

Qadimgi Misr san'atining o'ziga xos xususiyati shundaki, u din bilan aloqada va unga tobe bo'lgan. Fir'avn va zodagonlar bilan bir qatorda, kohin va din vakillari ham juda ko'plab ibodatxonalar qurilishi va xudolar obrazining ishlanishiga sabab bo'ldilar. Gap shundaki, qadimgi misrliklarning diniy tushunchasi o'zining spetsifik xususiyatiga egadir.

San'at uchun Qadimgi Misr dinidagi o'lganlarga sig'inish alohida ahamiyatga ega edi. Qadimgi misrliklar agar odamning jasadi yaxshi saqlansa, narigi dunyoda uning ruhi abadiy yashaydi, deb tushunganlar. Shu boisdan o'lganlarni mumiyolash, agar jasad bo'zilsa yoki chirib ketsa, yo'qolsa, shu odamning narigi dunyoda tinch yashashi uchun uning jasadi o'rniga haykal qo'yishni odat qilganlar. Qabrga, jasad yoniga esa uning tirikligida foydalangan uy-anjomlari, qurol-aslahalar, suv, oziq-ovqat qo'yish yoki shularning tasvirini ishlash kabi odatlar mavjud bo'lgan. Bu, albatta, ko'mish bilan bog'liq bo'lgan me'morlik san'ati, qabrlarga qo'yish uchun ishlangan haykal, rangtasvir san'atining rivojlanganligiga sabab bo'lgan. Albatta, bunday boy, tantanali ko'mish marosimi, monumental maqbaraning ichini san'atning hamma turlari bilan bezatishni faqat fir'avn va Misr boylari amalga oshirishi mumkin edi.

Sharq despotizmi ta'sirida Qadimgi Misr jamiyati sekinlik bilan rivojlandi va ayniqsa, kohinlar tomonidan qattiq muhofaza qilingan diniy kanonlar Misr san'atiga, uning sekin rivojiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham juda qadim paytlarda Misr san'atida paydo bo'lgan badiiy uslublar (ayrim davrlarda bu kanonlardan chiqishga intilish bo'lgan, masalan, Exnaton asri realistik san'ati) uzoq vaqt Misr san'atida yetakchi o'rinni egallab, uning xarakterli tomonini belgilab kelgan.

Me'morlik. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk podsholiklarning shakllanish davrida san'atning hamma turlari va janrlari yuzaga keldi, insoniyat yozuvning dastlabki formalaridan hisoblangan rasmi yozuv-piktografik yozuvlar paydo bo'ldi. qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan o'zviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morlik esa san'atlar ichida yetakchi o'rinni egallab, ularning xarakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Qadimgi misrliklarning «narigi dunyo» xaqidagi tushunchalari maqbaralar-marhumlarning yer osti uylari va ularning ustiga tortilgan tuproq uyumi va qurilmalarida namoyon bo'ldi. Qazilgan qabrlar to'rtburchak shaklida bo'lib, chuqur devorlari shu paytda ixtiro qilingan xom g'ishtlar bilan mustahkamlanib terib chiqilgan, tepa qismi esa xom g'isht yordamida egri ravoq tarzida yopilgan. Ayniqsa, oqsoqollar qabriga alohida e'tibor berilgan, qo'l mehnat sarf qilib, uning hashamatli bo'lishiga erishilgan, devorlariga pardoz berilgan, syujetli suratlar ishlangan. Qabr tepasiga ham alohida e'tibor berila boshlangan. Bu qurilmalar tepaga tomon kichrayib boruvchi to'rtburchaklar shaklida bo'lib, uning ichida marhum va xudolar haykalini qo'yish uchun xona, devorida esa marhumning «narigi dunyo»dagi «uyi»ga o'tgan yolg'ondakam eshigi bo'lgan.

Mastaba (arabchada «kursi,supa») deb nom olgan bu qurilmalar Sakkara, Abidos, Nigada qabristonlarida ko'plab saqlanib qolgan. Bu mastabalar hajmi va bezagi, qabr ichiga qo'yilgan buyumlar xarakteri marhumning jamoada tutgan o'rniga qarab belgilangan. Ko'milgan odamning jamoadagi o'zni qanchalik yuqori bo'lsa, maqbara ham shunchalik mahobatli va serxasham bo'lgan. Asta-sekin shu maqbaralar yonida marhumga bag'ishlab o'tkaziladigai marosimlar uchun ibodatxonalar qurila boshlandi.

Mastabalar keyingi Misr klassik ehromlari (piramidalari)ning yaratilishiga asos bo'lgan. Qadimgi podsholik davrida qurilgan III dinastiya fir'avni Joser maqbarasi (taxminan, eramizdan avvalgi 2800 yillar, me'mor Imxotep) birinchi klassik piramidalardandir. Tepaga ko'tarilib va kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan bu piramidaning balandligi 60 metrdan ortiq..

Joser piramidasi ansamblida birinchi bor san'atning sinfiy xarakteri yaqqol namoyon bo'la boshladi. Davr ideologiyasiii targ'ib etish, fir'avnlarni ulug'lash va ilohiylashtirishga, fuqarolarda podsho hokimiyatining mustahkam ekanligiga ishonch tug'dirish, shu bilan birga, ularni doim qo'rquvda saqlash va itoatkor bo'lishini ifodalashga qaratilgan. Bu piramida davrning siyosiy xarakterini tushunishga yordam beradi, despotik tuzum-xudolar darajasiga ko'tarilgan podsholarning hukmdorligi naqadar kuchli ekanligini namoyon etadi.

Bu g'oya ansambl markazi – Joser piramidasi katta hajmi va kompozitsion yechimi orqali ochiladi.«Joser piramidasi bu g'oya keyingi fir'avnlarning davrida yanada rivojlantirildi. Eramizdan avvalgi XXVII asrlarda Misr tarixida eng gigant piramidalar qurildi.

IV dinastiya fir'avnlari Xufu, Xafra va Minkaura (greklar ularni Xeops, Xefren, Mikerin deb atashgan, tarixda ham shu nomlar ko'proq ishlatiladi) piramidalari bizgacha yaxshi saqlangan. Giza yaqinida joylashgan bu piramidalar ansamblining ajralmas qismi bo'lgan sfinks haykali (odam boshli, sher tanali haykal), Xefren piramidasi boradigan yo'l boshiga qo'yilgan 60 metr uzunlikka ega bo'lgan katta sfinks haykali boshi Xefrenning fir'avnlilik libosidagi ko'rinishini aks ettiradi. Shu sfinks kichraytirilgan nusxalari esa Xefren ibodatxonasiga kiraverishda ikki tomonga o'rnatilgan.

Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasi. Balandligi 146,6 metr, asosi esa 233 m. Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidasi 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lgan yo'lni qurish uchun esa 10 yil kerak bo'lgan. Odamlar (qullar, erkin dehqon va hunarmandlar) shu piramidani qurish uchun haydab kelingan. Bu esa davlat ekonomikasiga ta'sir etmay qolmadi. Xalq g'alayonlariga sabab bo'ldi. Shuning uchun V dinastiya fir'avnlari hajmi katta bo'lmagan piramidalar qurdira boshladilar. Lekin piramida ansambli ibodatxonaga alohida e'tibor berdilar, uning hajmi kengaydi, badiiy bezagida monumental relief va rassomlik keng qo'llanila boshlandi. Bu tasvirlar marhumni ulug'lash va ilohiylashtirishga qaratilgandir. Qurilishda ustunlarning konstruktiv funksiyalari ortdi. Ko'rinishi palma daraxti, bog'langan nilufarlarni eslatuvchi ustunlar qo'llanila boshlandi. Bu xususiyat keyingi Misr me'morligining xarakterli tomonini belgiladi. Shu jihatdan Abusirdagi fir'avn Saxura maqbarasi ansambli diqqatga sazovordir.

Liviya yassi tog'lari etaklaridagi fir'avn Mentuxotep I maqbarasi ansambli Misr me'morligining yangi qirralarini namoyon etadi.

Fivadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morlik komplekslaridandir. Karnak (er. av. XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalari (er. av. XV asr, me'mor kichik Amenxotep)da me'morlar birinchi bor ochiq xovli atrofni kolonadali yechib, yangi podsholik me'morligining o'ziga xos tomonlarining shakllanishiga asos soldilar. Bu komplekslarda qadimgi Misr me'morlik an'analari muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador bo'lgan me'morlikning yangi ko'rinishlari namoyon bo'ldi. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun yuzalari, devorlar rangli releflar bilan bezab chiqilgan. Ibodatxonalar uchun ishlatilgan ustun kapitellari ham xarakterli. Ular papirus va nilufar gul g'unchalarini eslatib, binoga afsonaviy ko'rinish baxsh etadi. Me'morlikning qirralari podsho ayol Xatshepsutning maqbara va ibodatxonasida ham seziladi.

4-Mavzu: Antik dunyo san'ati.

4-soat.

Reja:

1. Egey yoki Krit-Miken san'ati.
2. Qadimgi grek san'atini davrlashtirish
 - a) Qadimgi Gretsiyada «Gomer davri»
 - b) Arxik davri san'ati.
 - s) Klassika davrida Gretsiya san'ati.
 - d) Ellinizm davri san'ati.

A d a b i y o t l a r

1. Abdullaev N. San'at tarixi T. O'qituvchi. 1986 y.
2. Boynazarov F.A. Qadimgi Dunyo tarixi.T.2004y
3. Voshinika A.I. Aktichnoe Isskustvo .M. 1962 g
4. Vipper.B.G. Isskustvo Drevney Gretsii.M.1972 g

T a y a n c h s o ' z l a r

Antik, Ellada, Egey madaniyati, Krit-miken san'ati, Greklar akropol, «sherlar darvozasi», Gomer davri, arxaika davri, klassika davri, ellinizm davri, peripter, yer-tsella, Grek klassikasi, ilk klassika, yuqori klassika, so'nggi klassika

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Bumerang", Munozara") foydalaniladi.

1-savolga javob

Antik iborasi latinchada «antikvus» so'zidan olingan bo'lib, «qadimiy» degan ma'noni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan bo'lib, asosan, qadimgi Grek–Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlatilgan. Tarix fanida antik dunyo tarixi (demak, uning san'ati va madaniyati) deb eramizdan avvalgi 3000 yillardan to yangi eraning V asrigacha O'rta Yer havzasi hamda Qora dengiz sohillarida mavjud bo'lgan quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi.

Greklar o'zlarini ellinlar deb, o'z mamlakatlarini esa Ellada deb atagandar. Ellada san'ati keyinchalik Iskandar Zulqarnayn bosib olgan juda katta imperiya san'atining rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi. Elladaliklar san'ati Qadimgi Rim san'atiga ta'sir etdi.

Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib kelmoqda. Yevropa xalqlari shu san'at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boyliklarga murojaat kilib keldilar. Bugungi Yevropa san'ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi.

Uyg'onish davri, XVII asrda paydo bo'lgan klassitsizm badiiy oqimi namoyandalari ijodi ham antik dunyo san'atiga taqlid qilish asosida rivojlandi.

Antik madaniyat uzoq vaqt davomida rivojlanib bordi. Uning rivojlanishida Peloponnes yarimoroli va Egey dengizidagi ko'pgina orollarda, Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida eramizdan avvalgi III – II minginchi yillarda yashagan qabilalar madaniyati muxim rol o'ynadi. Antik dunyoning eng qadimgi tarixi «egey» yoki «krit-miken» madaniyati bilan boshlanadi.

Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Mikena va Kritda topilganligi va mo'lligi tufayli bu san'at adabiyotlarda ba'zan krit-miken san'ati deb ham yuritiladi. Egey madaniyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi 2000 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda hashamatli me'morchilik kompozitsiyalari, podsho saroylari, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at namunalari yaratilgan. Shunday nodir yodgorliklardan biri ingliz arxeologi A. Evans tomonidan Kritdan topilgan Knoss saroyining qoldiqlaridir.

Eramizdan avvalgi XIV asrga kelib, Krit madaniyati inqirozga yuz tutdi. Endilikda Egey madaniyatining markazi grek materigiga – Peloponnes yarimoroli va undagi Mikena, Tirinf manzillariga ko'chdi. Bolqon yarim orollarining janubida, Egey dengizi orollarida va Kichik Osiyoning Farbiy sohillarida yashagan axeyaliklar bu yangi madaniyat taraqqiyotini belgiladilar. —

Eramizdan avvalgi XVII – XIV asrlardan boshlab, axeyaliklar madaniyati va san'ati o'z xarakteri jihatidan krit madaniyati bilan aloqada bo'lgan, lekin bu yaqinlik axeyaliklar san'atining o'ziga xos original tomonlari ham mavjud ekanligini inkor etmaydi. Bu, ayniqsa, monumental me'morlik san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kritdagi shaharlar qalin devorlar bilan o'rashga muhtoj emas edi. Chunki shaharni dengiz qo'riqlar edi. Aksincha, axeyaliklar o'z turar joyi va qo'rg'onlarini baland tepaliklar ustiga qurib, uning atrofini qalin devorlar bilan o'rab chiqqanlar.

Keyinchalik greklar bunday manzillarni «akropol» – «yuqori shahar» deb nomladilar. Bizgacha Mikena va Tirinfdagi baland tepaliklar ustiga qurilgan qal'alar, qo'rg'onlar yetib kelgan. Ular eramizdan avvalgi XIV–XIII asrlarda qurilgan.

Mikena me'morligida darvoza qurilishiga katta e'tibor berilgan. Mikena qo'rg'onining markaziy darvozasi «sherlar darvozasi» deb nomlangan. Mikena-Tirinfdagi maqbaralarda arxeologlar badiiy hunarmandchilikka oid qimmatbaqo buyum va oltin niqoblar topishgan, Bu maqbaralar ichida mashhuri Shoh Atrey maqbarasi va u yerdan topilgan nodir san'at yodgorliklaridir.

2-savolga javob

Odatda, qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan to eramizdan avvalgi I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy-badiiy davr to'rt bosqichdan iborat:

- 1) Gomer davri (er. av. XI–VIII asrlar),
- 2) arxaika davri (er. av. VII/VI asrlar),
- 3) klassika davri (er. av. V va IV asrlarning birinchi uch choragi),
- 4) ellinizm davri (er. av. IV–I asrlar).

3.a)-savolga javob. Gomyer davri san'ati.

Qadimgi Gretsiya tarixining eramizdan avvalgi XI—VIII asrlari Gomer davri deb ataladi. Bu davr san'ati va madaniyatini o'rganishda Gomerining «Iliada» va «Odissey» dostonlari qimmatli manba hisoblanadi. Mikena yozuvlarining o'qilishi shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Gomer davrida hunarmandchilik ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan vazaga gul solish san'ati ravnaq topgan.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilon vazalari (Afina yaqinidagi Dipilon darvozasi yonidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday xarakterda ishlangan. Gomer asri kulolchilik buyumlari ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari, o'snmliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi.

3.b)-savolga javob. Arxaik gryetsiya san'ati

Eramizdan avvalgi VIII asr oxirlaridan boshlab, ilk sinfiy jamiyat qaror topa boshladi. Eramizdan avvalgi VII—VI asrlarni arxaik yalpi qadimgi (grekcha «arxeyos»-qadimgi demakdir) davr deb iomlanadi. Chunki XIX asrda boshlangan arxeologik kashfiyotlarga qadar qadimgi Gretsiya tarixini eramizdan avvalgi VIII asrdan boshlar edilar. Bu ibora hozir xam saqlanib kolgan.

Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlandi, meditsina, astronomiya, tarix geografiya, matematika taraqqiy qildi, poeziya, adabiyot, teatr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi. Greklar o'zlaridan avvalgi xalqlar, eng avvalo. Sharq mamlakatlari-Bobil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining qaytarilmas san'at va madaniyatlarini yaratishga muayassar bo'ldilar. Shu bilan birga, keyingi Yevropa ilmiy-ijodiy taraqqiyotida muhim poydevor yaratdilar.

Grek ibodatxonalari bir necha tipda bo'lib, bularning ichida eng keng tarkalgan tipi peripter hisoblangan. Bu tipda ko'rilgan binoning markaziy qismi muqaddas yer-tsella bo'lib, atrofi esa ustunlar bilan o'ralgan. Grek me'morchiligining bu tipi faqat grek me'morchiligidagina emas, balki jahon me'morchilik san'ati rivojida ham katta rol o'ynadi.

Me'morlik rivojlanib borgan sari, ellada ustalari ustun va tusinlarga, ular orasidagi boglanish, dekorativ bezaklarning eng minimal tomonini topish, badiiy va funktsional tomonining uyg'un bo'lishiga harakat qildilar. Bu butun badiiy sistema order nomini oldi (latincha «ordo» — tuzilish, tartib ma'nosini bildiradi). Order keyinchalik Gretsiya me'morligining asosiy xususiyatini belgilovchi muhim tomonga aylandi.

Grek me'morligining asosiy orderlari doriy va ion orderi hisoblanadi. Doriy orderi, asosan, Peloponnes va Buyuk Gretsiya (Sitsiliya shunday deb atalgan), ion orderi Ioniya deb nomlangan Kichik Osiyo sohillarida ko'proq ishlatilgan.

Arxaika davri haykaltaroshligida odam gavdasini alohida tasvirlash bilan birga, voqealarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar, masalan, olishuvlar ko'rsatiladi. Persey va Gerakl qahramonligiga, xudolar va gigantlar jangiga bag'ishlangan kompozitsiyalar shu davr haykaltaroshligi mahsulidir.

Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qora lak bilan turli tasvirlar ishlaganlar. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash san'ati VI asrning II-III choragida rivojlanib, bu sohada attikali kulollar va rassomlar nom chiqarishgan. bunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan «Fransua vazas»ni bezagan. Vaza yuzasiga 200 dan ortiq odam tasviri tushirilgan. Qopa figurali uslubda ishlangan mashhur rassomlardan yana biri eramizdan avvalgi VI asrning II choragida yashab ijod etgan Eksekiy bo'lgan.

3.s)-savolga javob . Klassika davrida Gryetsiya san'ati

Eramizdan avvalgi V asrga kelib, Gretsiya o'zining siyosiy, iktisodiy va madaniy taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Bu taraqqiyot Eron-Grek urushlaridan keyingi Afina davlatining kuchayishi va quldorlik demokratiyasining rivojlanishi bilan bog'liq. Urush grek polislarini Afina davlati atrofida birlashtirdi.

Afina eramizdan avvalgi V asr o'rtalariga kelib, butun grek olamining eng yirik madaniy va iqtisodiy markaziga aylandi. Haqiqatan ham, o'z zamonasining nihoyatda ishbilarmon davlat arbobi, otashin notiq, odamlarda tashabbuskorlik ishtiyoqinn uyg'otishga mohir bo'lgan, ilmu-fan, san'at va

adabiyotga qiziqqan Perikl bu taraqqiyotda muhim rol o'ynadi. U o'z atrofiga grek elida mashqur bo'lgan ijod ahillarini to'pladi.

Exsil, Sofokl, Yevripid kabi buyuk san'atkorlarning nomi, Sokrat, Gerodot, Demokrit kabi buyuk tarixchi va faylasuflarning nomi shu Perikl davri bilan bog'likdir.

Bu davrda san'at beqiyos rivojlandi. Me'mor, haykaltarosh, rassomlarning asarlari keyingi asrlarda ham o'z qiymatini yo'qotmay, taqlid qilish uchun klassik namuna bo'lib qoldi. Eramizdan avvalgi V-IV asr san'ati esa san'at tarixida Grek klassikasi degan nomni oldi.

Grekklassikasi davrini shartli ravishda ilk klassika, yuqori klassika va so'nggi klassika davriga bo'lishadi

Ilk klassika eramizdan avvalgi 490-450 yillardagi eron-grek urushi davriga to'g'ri keladi. Bu davr san'atda realistik tendentsiyalarning ortib borishi bilan xarakterlanadi

Ilk klassika davrida ko'p me'morlik kompozitsiyalari yaratildi, ayrim shaharlar qayta tiklandi. Me'morlikda, asosan, peripter tipidagi ibodatxonalar qurilishi yetakchi o'rinini egalladi. Ular ko'pincha doriy uslubida qurildi. Lekin ularning har biri me'morning ijodiy yondashishi natijasida o'ziga xos individual fazilatlar kashf etdi.

Pestumdagi Gera ibodatxonasi (er. av. V asrning birinchi choragi) bizgacha yaxshi saqlangan. Unda ilk klassika me'morligiga xos fazilatlar ko'zga ko'rinadi.

Egina orolidagi Afina Afayi ibodatxonasi (er. av. 490 i.) va ayniqsa, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi o'zining nisbatlar garmoniyasi, badiiy bezagining nafisligi bilan xarakterlanadi va grek me'morligining shoh namunalaridan hisoblanadi.

Yuqori klassika. Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Gretsiya siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqining oltin davrini boshidan kechirdi. San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal haqidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatdi. Bu taraqqiyotda, so'zsiz, shu davrning yirik davlat arbobi Perikl muhim rol uynadi.

Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan Afining ichki qal'asi-Akropol qayta tiklandi. Bu qal'a Eron-Grek urushida vayron bo'lgan edi. Eramizdan avvalgi V asrning uchinchi choragida bu yerda oq marmardan yasalgan grek me'morligining nodir durdonalari bo'lgan Parfenon, katta darvozaxona Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikega atab qurilgan ibodatxona (Niki Apteros) qad ko'tardi. Bu binolar badiiy bezaklarga boy bo'lgan.

Grekklassikasi me'morligining beqiyos namunasi, aql-zakovat va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Parfenon ibodatxonasi hisoblanadi.

Eramizdan avvalgi 447-438 yillarda me'morlar Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan bu ibodatxona afinaliklarning xazinasini saqlash uchun xizmat qilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi Fidiy rahbarligida bajarilgan. Parfenon akropoldagi eng baland binodir.

Shu davrning yirik haykaltaroshlardan biri Miron hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri «Diskobol» (Disk otuvchi) haykalida jismoniy go'zal, ma'naviy kuchli ideal inson obrazi yaratiladi. San'atkorning «Afina va Marsiy» deb nomlangan kompozitsiyalari ham xarakterlidir.

Genial yunon haykaltaroshi Fidiy o'z asarlarida greklarning jasurligi, eronliklar ustidan erishgan g'alabasini aks ettiruvchi haykallar ishlagan.

Qadimgi yozuvchilarning fikriga ko'ra, uning ilk asarlari-oltin va fil suyagidan ishlangan. V asrning 70-yillarida afinaliklar buyurtmasiga ko'ra Fidiy Marafon jangini ulug'lovchi ko'p figurali kompozitsiyani ishlagan. Eramizdan avvalgi 460 yillarda Apollonning katta bronza haykalini, eramizdap avvalgi 460-450 yillarda esa mashhur jangchi ayol Afina haykalini yaratdi. Lemnos oroli uchun ham Apollon haykalini ishladi. Perikl topshirig'iga binoan, eramizdan avvalgi 447-439 yillar mobaynida Afina akropolini qayta tiklash va bezashda rahbarlik qildi.

Parfenon ibodatxonasining haykaltaroshlik asarlari ansambli jahon san'atining nodir durdonasi hisoblanadi.

Fidiy bir qancha monumental dumaloq haykallar muallifi hamdir. Uning akropoldagi oltin va fil suyagidan ishlagan. Afina haykallari, Olimpiyadagi Zevs haykali, ayniqsa mashhurdir.

3) d –savoliga javob. Ellinizm davri san'ati

Eramizdan avvalgi 336 yili Makedoniya podshohi Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy) ellin davlatlarini bosib oladi. Bu davlatlar keyinchalik ellinistik davlatlar deb atala boshladi (XIX asrda nemis

tarixchisi I. Droyzen bu iborani birinchi bor ishlatgan). Aleksandr Makedonskiy istilosidan tortib, eramizdan avvalgi 30-yillargacha, ya'ni so'nggi ellinistik davlat- Misrning Rim tomonidan bosib olinishiga qadar bo'lgan davri esa ellinizm davri deb yuritildi.

Bu davr me'morligi o'zining hashamatliligi, dabdabaliligi va katta hajmga intilishi bilan xarakterlanadi. Me'morlik nazariyasi rivojlandi. Bu davrda miletlik Gippodamaning shahar qurilishi borasidagi sistemasi muhim rol o'yiadi. Shu plan asosida ko'rilgan Milet, Priema kabi shaharlarning ko'chalari aniq va keng prospektlardan tashkil topgan. Uning bosh maydoni atrofi esa turli ijtimoiy binolar bilan o'ralgan.

Eramizdan avvalgi IV asr oxiri va Sh asrgacha yashab ijod etgan haykaltaroshlar o'z ijodlarida Praksitel, Lisipp va qisman Skolas an'alariga tayandilar, uni rivojlantirdilar. Ellinistik Gretsiyaning monumental haykaltaroshligi ichida davrning nodir yodgorligi «Samofrakiya Nikesi» haykali alohida o'rinni egallaydi. U davrning nodir yodgorligidir. Samofrakiya oroli uchun ishlangan bu Baykal g'alaba xudosi Nikega barishlangan

Ellinistik Gretsiyaning yana bir nodir yodgorligi Milos oroli uchun ishlangan Afrodita haykalidir. «Milos Afroditasi» deb nom olgan bu asar haykaltarosh Aleksandr tomonidan eramizdan avvalgi 120 yillarda ishlangan.

Mavzu: Qadimgi Hindiston va Xitoy san'ati.

4-soat.

Reja;

- 1.Hindiston- yuksak madaniyat o'chog'i
- 2.Hindistonda «Veda» davri.
- 3.Hindiston san'atining gullab yashnashida Maurya sulolasi davrining ta'siri.
- 4.Qadimgi Xitoyda san'at namunalarning vujudga kelishi.
- 5.Qadimgi Xitoy madaniyatida maqbaralarning ahamiyati.

A d a b i y o t l a r

- 1.Abdullaev N. San'at tarixi T. O'qituvchi. 1986 y.
- 2.Beruniy Abu Rayxon «Hindiston»
- 3.Galerkina O.I, Bogdanov A.L. Isskustvo Indii. M.1968g.
- 4.Krechetova M.N. Kultura i isskustvo Kitaya. M. 1952 g
- 5.Redder D.G, Cherkaeva Ye.A Qadimgi dunyo tarixi T.1974 y.
- 6.Fozila Sulaymonova Sharq va G'arb tarixi T.

Tayanch so'zlar

Vedalar, Mauryasulolasi, Indra, Agni, Magadxa davri, chaytya, Karkas, Yanshao madaniyati, Lunshan madaniyati, terrakota, pilon, inkrustatsiya,

Dars o'tish jarayonida yangi pedtsehnologiyalardan (" Munozara") foydalaniladi.

1-savolga javob.

Hindistonning shimoli-g'arbidagi Hind daryosi havzasidan topilgan Moxenjo-Doro (Sind viloyati) va Xarappa (Panjob) dan topilgan qadimgi shahar qoldiqlari, madaniyat yodgorliklari eramizdan avvalgi 3 – 2 minginchi yillardayoq Hind san'ati o'ziga xos, yorqin va jozibador, fantaziyaga boy san'at bo'lganligini tasdiqlaydi va mifologiya asosida qimmatli san'at namunalari yaratilganligini anglash imkoniyatini beradi.

Eramizgacha bo'lgan davrdan bir necha asr oldinoq, bu yerda matematika, tilshunoslik falsafa, tibbiyot ravnaq topgan, hunarmandchilik rivojlangan, yozuv paydo bo'lgan. Me'morlik, haykaltaroshlik na rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan.

Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarning ikkinchi yarmida bu yerda dastlabki sinfiy davlat paydo bo'lgan. Adabiy manbalarga ko'ra, shu davrlarda ajoyib, hashamatli yog'och me'morchiligi ravnaq topgan. Bular bizgacha saqlanmagan. Eramizdan avvalgi III asrdan yangi eraning VII asrigacha bo'lgan davrda esa, Hindiston Osiyodagi eng yuksak madaniyat o'chog'iga aylangan. Bu yerda paydo bo'lgan buddizm (buddizm er.av. U11-U1 asrlarda v.k. Uni shu asrda yashagan shahzoda Siddxartxi Gautama (er.av.566-486 yy) yaratgan. Bu diniy-falsafiy ta'limot Siddxartxiga berilgan Buddha (ma'rifatparvar) laqabi bilan atalgan) ning Osiyodagi ko'pgina yerlarga tarqalganligi ham shundan dalolat beradi.

Hindiston san'ati ham qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Bu taraqqiyot jarayonida Xind san'atiga goh shumer, goh grek san'atining ta'siri bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u, asosan, xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'lgan.

Qadimgi Moxenjo-Doro shahrining qoldiqlari bizgacha yaxshi saqlangan. U yirik shaharlardan biri bo'lib, ko'chalar va binolar pishiq g'ishtdan ishlangan. Hindistonda juda qadim paytlardan oq shahar qurish san'ati paydo bo'lganligidan, shaharlarni plan asosida qurishga e'tibor berilganligidan dalolat beradi. Shaharda katta jamoat binolari bo'lgan hammom va kanalizatsiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Topilgan sopol buyumlarning yuzasi geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Turli xildagi loy va toshdan ishlangan haykal va haykalchalar, o'ymakorlik bilan bezatilgan turli uy-anjom, bezak va zargarlik buyumlari ham shu davr san'ati rivojidan dalolat beradi. _

2-savolga javob.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarning o'rtalarida Hindistonning qadimiy shaharlari g'arbdan kelgan ko'chmanchi oriy qabilalari tomonidan bosib olingan, keyinchalik bu qabilalar bu hind kabilalari bilan assimilyatsiyalashib ketgan. Bu davr san'ati va madaniyatini, asosan, adabiy va diniy yodgorlik «Veda» («Bilim») deb nomlangan to'plam asosida o'rganiladi. Shuning uchun ham bu davr shartli ravishda Veda davri deb yuritiladi.

«Veda» adabiy-diniy to'plamida poetik formada din, hayot va qabilalarning turmush tarzi haqida hikoya qilinadi. Tabiat kuchlari Indra (momoqaldiroq xudosi), Agni (olov xudosi), muzika, me'morlik to'g'risida fikr yuritiladi.

Veda davrida avvalgidek yirik shaharlar qurilmagan. Odamlar katta bo'lmagan manzillarda yashaganlar. Me'morlikda, asosan, yogoch yetakchi o'rinni egallagan. Binolar yarim sferik tarzda qurilgan. Lekin qadimgi paytlardagidek, shaharda binolar planlashtirish printsiplari joylashgan. Veda davri tasviriy va amaliy san'at namunalari bizgacha kam yetib kelgan. Bular, asosan, loydan, oltindan ishlangan kichik hajmdagi haykallardir.

Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarda Gang daryosi vohasida ishlab chiqarish kuchlari ortdi, ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozga yuz tutib, yangi quldorlik sinfiy jamiyati yuzaga kela boshladi. Bu protsessda, ayniqsa, Gang vohasida rivojlangan podshohlik – Magadxa davri alohida o'rin tutadi. Bu davrda san'at va madaniyat taraqqiyoti yangi pog'onaga ko'tarildi. Murakkab yog'och me'morchiligi paydo bo'ldi, saroylar, ijtimoiy binolar, ibodatxonalar paydo bo'ldi.

Qadimgi Hindistonning muhim adabiy yodgorliklari «Mahabxarata» va «Ramayana» eramizdan avvalgi I minginchi yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan epik dostonlardir. Ularda qadimgi davrdagi xalqlar hayoti, urf-odat, odamlarning xudo va afsonaviy qahramonlar xaqidagi tushunchalari aks ettirilgan.

3-savolga javob.

Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Maurya sulolasi (er. av. 322–185 yillar), ayniqsa, Ashoka imperatorligi davri (er. av. 272–232 yillar)da sodir bo'ldi. Ashoka hukmronlik qilgan davrda buddizm keng yoyildi. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning qator davlatlari (Xitoy, Birma, Yaponiya, qisman O'rta Osiyo)ga tarqaldi.

Buddizmiing tarqalishi u bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalari paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida qadimgi Hind me'morchiligidagi mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Buddha hayoti va faoliyati bilan qo'shib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi. Qurilish materiali sifatida tosh keng ishlatila boshladi.

Buddizmning asosiy me'morchilik kompozitsiyalaridan biri stupa (afsonalarga ko'ra, stupada Buddaning muqaddas xoki qoldiqlari va uning faoliyati bilan bog'liq buyumlar saqlangan.) bo'lib, bunday qurilmalar Ashoka davrida ko'p qurilgan. Sanchidagi katta stupa (er. av. 250 y.) shu me'morlik kompozitsiyasining o'ziga xos tomonini yoritadi va mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Buddizmning muxim yodgorligidan yana biri ustunlar – stambxlardir. Ular yaxshi pardozlangan yaxlit toshdan ishlangan bo'lib, Budda ta'limotini targ'rib etishda foydalanilgan hamda imperiyaning tanholigi va jipsligini ko'rsatadigan o'ziga xos xaykali hisoblangan. Bu ustunlar hayvonlar tasviri ishlangan kapitell bilan tugallangan. Sarnatxdagi stambx va uning sherlar tasviri ishlangan kapitell mashxurdir.. (Bu kapitell bugungi kunda Hindiston respublikasi gerbida ishlatiladi). Muqaddas xayvonlar bo'rtma tasviri ishlangan dumaloq baraban ustida to'rt sher tasvirlangan bo'lib, ular bir-biriga o'pqa qilgan xolda to'rt tomonga qarab turibdi. Sherlar birmuncha sodda va sxematik tasvirlanishiga qaramasdan, ta'sirchan, ulug'vor va qudratlidir. Bu kuch-qudrat, ulug'vorlik esa buddizm, davlatning ramzi sifatida g'aydalanadi.

Buddaning darvishona hayot kechirganining ramziy ifodasi g'orlarga ishlangan ibodatxona (chaytya)lardir. Bunday ibodatxonalar qoyalar ichiga ishlangan, ichkarida monaxlar xonasi va ibodatxona (chaytya) joylashgan. Qadimgi Hind g'ori ichiga ishlangan ibodatxonalardan (chaytyalardan) biri Karlidagi ibodatxonadir. Uning xonalari qoya ichiga o'yib kirgan, devorlari esa haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan.

Hind plastikasida Budda haykali paydo bo'la boshladi. Bu haykallarda ellinistik plastika ta'siri sezilarli. Bunga sabab Budda haykalini Gandxara oblastida Makedonskiy davrida kelib qolgan greklar yoki kichik osiyoliklar ishlashgan.

Gandxarada paydo bo'lgan Budda haykali keyinroq buddizm tarqalgan yerlarga etalon sifatida tarqaldi .

Qadimgi hind san'atining so'nggi taraqqiyoti Guptalar sulolasi (320 – 450 yillar) davriga to'g'ri keladi. Bu Hindistonning quldorlikdan feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lib, san'at va madaniyatning yanada ravnaq topish davri hisoblanadi. Adjanta g'oridagi ibodatxona va uning badiiy bezaklari, devoriy suratlari qadimgi hind san'atining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Adjantadagi g'or ichiga ishlangan ibodatxona kompleksi eramizdan avvalgi II, yangi eraning VII asrlari mobaynida bunyod etilgan. Kirish tomonida «quyosh darchasi» deb nomlangan teshik – darcha mavjud. Ibodatxona devor va ustunlari esa haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan, devoriy suratlar ishlangan. Gupta sulolasi davrida qurilgan. Adjanta ibodatxonasining old tomoni ham haykaltaroshlik san'ati namunalari bilan nafis va serjilo qilib bezatilgan. Budda va shogirdlarining haykallari kiraverishdagi devor tokchalarini to'ldirgan .

Adjanta g'ori ibodatxonasi xonalarining devor va shiplari esa devoriy suratlar bilan to'ldirilgan. Bu suratlarda Budda haqidagi afsonalar bilan birga, turli xudo, hayvon, qushlar tasviri ham nozik va zo'r muhabbat bilan chizilgan, budda afsonalari hayotiy va real qilib, mahorat bilan ishlangan.

Chaytya devoriy suratlari mavzu jihatdan qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularda yagona fikr – insonning hayotga bo'lgan mehri, falsafiy dunyosi va o'yi, his-tuyg'ulari, orzu-istaklari va yuksak estetik ideali o'z ifodasini topgan. Adjanta san'ati qadimgi hind san'atining nodir yodgorligidir. Undagi yuksak badiiy mahorat, gumanizm va xalqchilik san'ati taraqqiyoti uchun muhim zamin bo'lib qoldi.

4-savolga javob.

Qadimgi Xitoy san'ati tarixi eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillardan eramizning Sh asrigacha bo'lgan davrni o'rganadi, tahlil etadi. Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida odamlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshladilar, ayrim qabilalar esa o'troq hayot kechira boshladilar. Bu davrda odamlar yashaydigan uylar dumaloq shaklda va ko'proq yerto'la tipida bo'lgan, ular yerni 3–4metr qazib ishlangan. Asta-sekin yarim yerto'la tipida va nihoyat, yer ustida karkas uslubidagi uylar yuzaga kelgan. Ular to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurila boshlangan. Tepa tomi shox-shabbalar yoki loydan pishirilgan plitalar bilan yopilgan. Ustun-to'sin sistemasi ham shu davrlarda me'morlikda keng qo'llanila boshlangan.

Xitoyning eng qadimgi san'at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali yetib kelgan. Qo'lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko'za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to'lqinsimon, tursimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalashtirilgan odam, xayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. (Bunday kulolchilik yodgorliklari Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi»deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o'rinni egalladi. Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlariping

qat'iyiligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi.

Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib, olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan (yoki In, taxminan, er. av. XVI asr – er. av. 1027 yillar) dinastiyasi boshqardi. Shan davridan bizgacha saqlanib kelgan yodgorlik An'yan rayonidan topilgan katta shahar qoldiqlari hisoblanadi. Shahar aniq planirovkaga ega bo'lib, u kvartallarga ajratilgan. Binolar sun'iy tepalik ustiga qurilgan. Binoda ustunlar imkoniyatidan foydalanilgan. Tom esa ikki nishabli bo'lib, poxol bilan yopilgan.

Shan davrida Xitoyda miflar paydo bo'lgan, turli ramziy belgilar yuzaga kelgan. Bu belgi va miflar idishlarning yuzalariga ishlangan haykallarda, rangtasvirda tasvirlangan va shularda kishilarning falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgap. Shu vaqtda bronzadan ishlangan, diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan buyumlar yuksak mahorat bilan ishlangan, ularning yuzasi ramziy belgi, naqsh, fantastik va yarimfantastik obrazlarning bo'rtma tasviri bilan bezalgan. Bu belgi, naqsh va obrazlar yagona ritmga bo'ysundirilgan.

Buyumlarning bandi va qopqog'iga ham turli shakllar berilgan. Shan davrida toshtaroshlik va suyak o'ymakorligi ham rivojlangan. Ustalar qattiq nefrit toshlaridan taqinchoq, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan buyumlarni, turli xil hayvon va jonivorlar haykalchalarini yuksak mahorat bilan bajarganlar. Shan davrida oq loydan yasilib, yuzasi bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan turli xum va boshqa idishlar ham yuksak mahorat bilan ishlangan.

Xitoyda ham ko'mish marosimi tantanali bo'lgan. Qabr, sag'analar hajm jihatidan katta to'rtburchak shaklida bo'lib, u yerga bezak va ishlatiladigan idish-tovoqlar qo'yilgan. Sag'anaga kiraverishning ikki tomonida afsonaviy odamga o'xshash sher haykali bo'lib, u og'zini katta ochgancha, orqa oyoqlarida o'tirgan holda, old oyoqda tayanib turgan payti tasvirlangan. Haykalning hamma tomoni naqsh bilan bezab chiqilgan. Bu haykallar «yomon ko'zlarni» qo'rqitish uchun kerak bo'lgan. Eramizdan avvalgi I minginchi yilning o'rtalarida shoyiga suratlar ishlash san'ati paydo bo'ldi, tushda rasm ishlash san'ati rivojlana boshladi. Bu keyingi davr san'atida yanada rivojlantirildi.---

Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Eramizdan avvalgi IV–III asrlarda qurila boshlagan bu devor dastlabki paytda Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan saqlash uchun xizmat qilgan va 750 km ni tashkil etgan. Keyinroq uning uzunligi 3000 km ga yetgan. Devorning balandligi 5–10 metr, eni esa 5–8 metr bo'lgan. Devor tepasida yo'l mavjud bo'lib, har 100 metrda katta minoralar ishlangan.

Buyuk Xitoy devori kishilarning kuch-shijoati va katta irodasini aks ettiruvchi, o'z xarakteri jihatidan Misr ehromlari bilan tenglashuvchi va odamlar birlashsa, buyuk mo'jizalar yarata olishini ko'rsatuvchi yodgorlik tarzida hamon kishini xayratlantiradi.

Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi eramizdan avvalgi III asrdan eraning III asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakat yagona markazlashgan yirik davlatga aylandi. Tsin (er. av. 221–206 yy). va Xan (er. av. 206–yangi eraning 220 yili) sulolasi hukmronlik qilgan paytida avvallari mustaqil bo'lgan qator davlat va qabilalar Xitoy imperiyasiga qo'shildi.

Xitoy O'rta Osiyo, Eron, Suriya, Rim imperiyalari bilan savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. Xitoyning tasviriy, amaliy va me'morlik san'ati ham nihoyatda rivojlandi.

5-savolga javob.

Qadimgi Xitoy madaniyatini o'rganishda maqbaralar ham muhim o'rinni egallaydi. Boy-zodagonlar, qahramonlarga atab qurilgan maqbaralar serhasham bo'lgan. Maqbaralar minoralar (pilon) bilan boshlanib, ularga bezak berilgan, old tomoniga haykallar o'rnatilgan. Maqbaraning yer osti qismi ham pishiq g'isht yoki tosh bilan pardozlangan.

Sag'anaga ko'milgan marhumning buyumlari ham qo'yilgan. Ayrim sag'analarda juda ko'plab haykaltaroshlik va rassomlik namunalari mavjud bo'lgan. Maqbaralardan loydan ishlab pishirilgan va bo'yalgan ko'p qavatli uy va minoralarning modellari ham topilgan. Dastlabki san'at asarlari birmuncha sodda, qo'pol ishlangan bo'lsa ham, haqiqiy hayot to'g'risida tasavvur bera oladi.

Loyan yaqinidagi Shandun va Sichuan maqbaralari, ayniqsa, tasviriy san'atga boy. Shandundagi zodagon U Lyan-tsi maqbarasining releflarida afsonaviy qahramonlar, podsholar orasidagi janglar, ov va bazm paytlari, farzandlarning o'z ota-onalariga muxabbati va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Bo'rtma tasvirlar friz..... tarzida bo'lib, ular ustma-ust joylashtirilgan. Har bir voqeaga tushuntirish yozuvi berilgan. Kompozitsiyada xudo va podsholar tasviri oddiy ommadan kattaroq qilib ishlangan.

Sichuandagi maqbara releflari birmuncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u yerda ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoriy surat namunalari uchraydi. Xan davrida portret rassomligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishlash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portretlardan biri Loyan yaqinidagi Xan davri maqbarasida saqlanib qolgan. Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod etgan Mao-Yan-shou bo'lgan. U odamlarni o'ziga juda o'xshatishga, hatto ideallashtirishga usta bo'lgan. Uning portretlaridan tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto, xulqini bilish mumkin bo'lgan.

Maqbaralardan topilgan terrakotalar ham diqqatga sazovor. Ular o'zining ifodali va hayotiy ishlanganligi bilan qatni tortadi. Xan davrida amaliy-dekorativ san'atda ham jiddiy o'zgarish yuz berdi, buyumlarning foydali tomoniga e'tibor ortdi, bezak va relefli tasvirlar kamaydi.

_Bronzadan ishlangan jimjimador ko'zgular ham keng tarqalib, bu ko'zgular inkrustatsiya qilingan, oltin, kumush va qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan. Bu davrda bronzadan ishlangan buyumlar, idishlar avvalgi davrga nisbatan yanada nafis va jimjimador bo'lgan, ayniksa inkrustatsiya uslubi keng qo'llanilgan. Turli xildagi amaliy buyumlar–idishlar, muzika asboblari, lak bilan bezatilgan buyumlar ham boylar xonadonini bezagan.

Kulolchilikda rang keng qo'llanila bordi. Badiiy kashtachilik va tuqimachilik Fapbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida yuqori baholandi. Nefritdan ishlangan turli buyum va haykalchalar ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Qadimgi Xitoy san'ati Xan davlatining inqirozga yuz tutishi bilan o'z umrini tugatadi. Lekin qadimgi davrlarda, ayniqsa, Xan davri san'atida paydo bo'lgan traditsiyalar Xitoy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning xarakterli tomonini belgilashda muhim o'rin egalladi.

Ota –bobomiz qadimda bebaho boylik bo'lmish ilim-marifat ,ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosi sharti va garovi deb bilgan.

I.Karimov.Yuksak ma'naviyat -engilmas kuch.T.,2008. 111 –bet.

Mavzu: Uyg'onish davri san'ati.

REJA:

- 1.«Uyg'onish davri» atamasining ilmiy izohi.
- 2.Uyg'onish davrining rivojlanish bosqichlari.
- 3.Uyg'onish davrida fan va madaniyat.

A d a b i y o t l a r:

- 1.Sulaymonova.F. Sharq va G'arb.
- 2.Konrad N.I. Zapad i Vostok, M., 1966.
- 3.Komilov N. Tafakkur karvonlari.T.1999.
- 4.Losev A.F. Filosofiya,mifologiya,kultura.M.1991.

Таянч сўзлар

Uyg'onish davri, Renessans, shoirlar, filologlar, filosoflar, rassomlar, Ilk uyg'onish, Yuksak uyg'onish, So'nggi uyg'onish, Buyuk geografik kashfiyotlar.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Munozara") foydalaniladi.

1-savolga javob.

Uyg'onish davri, Renessans - G'arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlarning madaniyat tarixida o'rta asr madaniyatidan yangi davr madaniyatiga o'tish davri. Taxm. 14-16- asrlarni o'z ichiga oladi.

«Uyg'onish» termini 16-asr italyan gumanistlari, xususan rassom va tarixchi Jovanni Vazari (1511-74) asarlarida mohiyatini ochib berolmaydi va yangi madaniyat mazmunini faqat antik merosni «tiriltirish» b-n cheklab qo'yadi. Shunga qaramay bu termin fanda ham shartli ravishda qabul qilingan.

Uyg'onish davri Yevropada o'z iqtisodiy asoslari jihatidan feodal ishlab chiqarish usuli asta-sekin inqirozga uchrab, burjua ishlab chiqarish usuli kurtaklari vujudga kela borishi b-n xarakterlanadi..

Jamiyat hayotida shahar rolining kuchayishi, ya'ni shaharning ijtimoiy ishlab chikarishda borgan sari ahamiyati oshib borishi, shahar ichida va shaharlararo tovar almashinishining kuchayishi, savdo aloqalarining avj olishi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi va shu asosda yangi burjua ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi Uyg'onish davri iqtisodiy hayotiga xos xususiyatlardir.

Bu davr siyosiy jihatdan cherkov, papa ta'sirida bo'lgan mayda knyazliklar o'rniga Ispaniya, Frantsiya, Angliya va b. joylarda yirik, mustaqil knyazliklarning vujudga kelishi, ularning papa, cherkov diniy-ma'naviy hokimiyati ta'siridan qutulish, dunyoviy hokimiyatni kuchaytirish uchun kurashishi avj olishi b-n xarakterlanadi.

Bu davrda «Qirollik hokimiyati, shaharliklarga suyangan holda feodal dvoryanlarning kuchini sindirdi va aslida millatlarga asoslangan yirik monarxiyalarni vujudga keltirdi, bu monarxiyalarda hozirgi zamon Yevropa millatlari va hozirgi burjua jamiyati rivojlandi... Vizantiya yiqilgan paytda saqlanib qolgan qo'lyozmalar, Rim xarobalaridan qazib olingan antik haykallar hayratda qolgan G'arbning ko'zi oldida yangi dunyoni - qadimgi yunon dunyosini gavdalandirdi; uning porloq obrazlari oldida o'rta asrning sharpalari ko'rinmay ketdi.

Italiyada san'at mislsiz darajada yuksaldi, bu yuksalish go'yo klassik qadim zamonning shu'lasini bo'ldi va keyinchalik bunday yuksalishga erishish aslo mumkin bo'lmadi. Italiya, Frantsiya va Germaniyada yangi, ilk hozirgi zamon adabiyoti vujudga keldi. Shundan so'ng ko'p vaqt o'tmay Angliya va Ispaniya o'z klassik adabiyoti davrini kechirdi.

Davrning iqtisodiy-siyosiy hayoti inson' shaxsiyatini birinchi o'ringa qo'ydi. Insonga; feodal-tabaqachilikni munosabatlari, cherkov asketyak axloqi, o'rta asr traditsiyalari doirasi torlik qila boshladi. U endi o'ziga, atrof-tabiatta boshqacha ko'z b-n qaraydigan bo'ldi, uning voqelikka, o'tmishga bahosi, estetik qarashi o'zgara bordi.

Yangi davr dunyoqarashining namoyandalari—turli kasbdagi va turli ijtimoiy mavqedagi kishilar—shoirlar, filologlar, filosoflar, rassomlar o'zlarining tadqiqot ob'ektlari deb insonni hisobladilar. Insonni tabiatning ajralmas bir qismi va uning mukammal mahsuli sifatida tushundilar. Inson, uning kechinmasi, ichki dunyosi, hayoti adabiyot va san'atning asosiy temasi bo'lib koldi. Shaxs ijodining garmonik, erkin, har tomonlama taraqqiyoti ideali shakllana boshladi. Shuning uchun ham bu davr mutafakkirlari insonshunoslar - gumanistlar deb atalgan (k., Gumanizm).

Gumanistlar yangi dunyoni qaror toptirishda antik merosga murojaat qildilar. Ular qadimgi qo'lyozmalar va antik san'at yodgorliklarini to'plab va o'rganib, antik merosning tiklanishi va tarqalishi xususida ko'p ish qildilar. Bunda gumanistlar, shubhasiz, Sharqning, jumladan O'rta Osiyoning qadimgi davrdagi madaniyatidan keng foydalandilar.

Uyg'onish davrini g'oyaviy jihatdan tayyorlashda arab tilida vujudga kelgan O'rta va Yaqin Sharq ilg'or falsafiy ta'limotlari, Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu mutafakkirlar asarlari 12-asrdan boshlab latin tiliga tarjima qilinib, keng foydalanildi. Ular orqali yunon faylasuflari asarlari Yevropaga kirib keldi. Averroizm Yevropada ham hurfikrlilik, ikki haqiqat ta'limotining tarqalishida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

Biroq Uyg'onish davri madaniyati shunchaki antik madaniyatga qaytish emas edi. Antik madaniyatni tiklash yangi madaniyat taraqqiyotida asosiy vosita, manba bo'lib xizmat kildi. Antik madaniyat yangi tarixiy sharoitdan kelib chiqib, yangicha rivojlantirildi. Uyg'onish davrida ilmiy tadqiqotda erkinlik

huquqi e'lon qilindi. Dunyoviy fan, dunyoviy adabiyot va san'at vujudga keldi. Yevropa mamlakatlarida kitob bosish yuzaga kelishi (15-asr) hamda tarqalishi antik merosning, yangi, gumanistik qarashlarning yoyilishida katta rol o'ynadi.

2-savolga javob.

Uyg'onish davri madaniyatining xronologik chegarasi, uning yoyilish doirasi, milliy xususiyati xaqidagi masala ancha murakkab masalalardandir. Renessans madaniyatining tarqalish darajasi turli mamlakatlarda turlichadir. Uning paydo bo'lishi va yorqin ifodasi Italiya b-n bog'liq.

Italiya 13-14-asrlardayoq Yevropada iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan mamlakat edi. Italiya madaniyati rivojlanishiga uning antik madaniyatining yirik markazi bo'lganligi, bu yerda qadimgi yodgorliklar boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'p saqlanganligi ham ta'sir ko'rsatgan.

San'atshunoslar Italiya Uyg'onish davri arafasi 13-14-asrlarni (k. Protorenessans) hisobga olmay, Italiya Uyg'onish davrini quyidagicha davrlashtiradilar:

Ilk uyg'onish (tasviriy san'at va arxitekturada 15- asr, adabiyotda hatto - 14-asr), Yuksak uyg'onish (15-asr oxiri 16- asrning 1-choragi),

So'nggi uyg'onish (16- asr).

Hozirgi tadqiqotchilar bunday davrlashtirishni ba'zi hollarda boshqa mamlakatlarga nisbatan ham qo'llaydilar, lekin bunda uyg'onish madaniyati ayrim bosqichlarining xronologik chegarasi Italiyanikidan farq qiladi. Uyg'onish madaniyatining Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya, Angliya, Ispaniya va b. Yevropa mamlakatlarida tarqalishi, avvalambor, shu mamlakatlardagi milliy taraqqiyot b-n bog'lik bo'lsa, ayni vaqtda Italiya gumanistik madaniyati yutuqlari ham ta'sir ko'rsatdi.

Italiya Yevropa gumanizmining chinakam «maktabi» bo'lib qoldi. Yevropadagi boshqa mamlakatlarning ilg'or intelligentsiyasi unga intilishar va undan o'rnak olishga harakat qilishardi. Yevropaning ko'p mamlakatlarida uyg'onish madaniyati ziddiyatli bo'lib, antik ta'sir Italiyaga nisbatan sust, milliy traditsiya va feodal madaniyati esa aksincha kuchli edi.

So'nggi Uyg'onish davrida ko'pgina renessans ideallari va normalari Italiyaning o'zida ham, undan tashqarida ham o'zgarishga uchradi. Keskin sinfiy kurash, ayrim mamlakatlardagi feodal-katolik reaksiyasining, boshqasida protestantizmning g'alabasi sharoitida renessans gumanizmida krizis boshlandi. Gumanistlarning inson erkin rivojlanishi uchun imkon beradigan yangi jamiyat haqidagi optimistik va hayoliy ishonchlari puchga chiqdi.

Uyg'onish davri madaniyatida aristokratok tendentsiya kuchaydi. Bu manerizm va shunga o'xshash boshqa oqimlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. So'nggi uyg'onish gumanizmi yirik vakillari V. Shekspir, M. Servantes, Mikelanjelo ijodida hayot o'z ziddiyatlari («tragik gumanizm») b-n aks ettirildi; yomonlikka qarshi kurashda fojiviy motivlar paydo bo'la boshladi. Yangi sharoitda uyg'onish madaniyati o'rniga yangi oqimlar vujudga keldi (sh. Barokko, Klassitsizm).

3-savolga javob.

Fani va madaniyati.. Bu davr tabiiy fanlarining eng muhim xususiyati san'at b-n uzviy 6ofliqligidadir. O'rta asr diniy-mistik aqidalarini bartaraf etish jarayoni ayni vaqtda ham fanda, ham san'atda namoyon bo'lar, ko'pincha bir shaxs ijodida uyg'unlashib ketardi. Mas, Leonardo da Vinchi buyuk rassomgina bo'lmay, mashhur matematik, mexanik va injener ham edi, A. Dyurer rassom, haykaltarosh, arxitektor, matematik edi.

Tabiatshunoslikda, ayniqsa astronomiya, geografiya, anatomiya sohalarida yirik muvaffaqiyatlarga erishildi. Buyuk geografik kashfiyotlar (X. Kolumb, Vasko de Gama, F. Magellan va b. sayohati) amalda Yerning sharsimonligini isbotladi, quruqlikning katta qismini tasvirlashga imkon berdi. 16-asr o'rtalarida polyak astronomi N. Kopernik geliotsentrik sistemani kashf etilishi fanda revolyutsion to'ntarish bo'ldi; A. Vezaliy ilmiy anatomiya asos soldi; ispan olimi M. Servet organizmda konning doiraviy aylanishini ochishga yaqinlashdi. Mexanika, matematika, xususan algebrada bir qancha kashfiyotlar qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar faqat geografiya sohasida emas, geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya bo'yicha ham yangi ma'lumotlar berdi.

Uyg'onish davrida fan va madaniyatning ayrim sohaları hali to'la bir-biridan ajralmagan va differentsiyalanmagan edi. Ko'p filosofik g'oyalar professional filosoflar tomonidan emas, balki rassomlar, shoirlar, olimlar tomonidan olg'a surilgan edi. Sxolastikada kuchayib borayotgan oppozitsiya filosofiyani «ilohiyotga xizmat qilishdan» ozod etdi

O'rta asr dunyoqarashidan ajralib chiqish eng avval etika sohasida namoyon buldi. Etikadagi uyg'onish ayrim hollarda so'nggi stoitsizm g'oyalariga qaytish shaklida, ko'pincha epikurizmni tiklashda ko'rindi. Gumanistlarning yunon tili va yunon filosoflari (Platon, Aristotel va b.) asarlari b-n tanishishlari Uyg'onish davri antisxolastik filosofiyasi taraqqiyotida yangi bosqich ochdi. Ayniqsa bu davrda platonizm va neoplatonizm g'oyalarining ta'siri katta bo'lgan.

Platon filosofiyasi Uyg'onish davrida panteizmning g'oyaviy manbai bo'lib qoldi, Uyg'onish davri filosofiyasi sxolastika va sxolastikalashtirilgan aristotelizm b-n kurashda undan yuz o'gira boshladi.

15-16- asrlarda Italiyadagi Paduya un-ti antisxolastik aristotelizmning bosh markazi edi. Bu oqim namoyandalari, ayniqsa italyan filosofi P. Pomponatstsi jonning o'lmasligi xaqidagi (cherkov ta'limotini bartaraf etishga katta hissa qo'shdi; ular tomonidan «ikki xaqiqat» nazariyasining himoya qilinishi fan va filosofiyaning din ta'siridan ozod bo'lishiga imkon berdi.

Uyg'onish davri falsafiy tafakkurining asosiy yutuqlaridan biri ilohiyotga buysunishdan ozod bo'lgan naturfilosofiyaning paydo bo'lishidir. Uyg'onish davri naturfilosofiyasi 16-asrda Italiya va Germaniyada yuksaldi. Lekin uning g'oyalari 15-asrda Nikolay Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan edi. Uning eng xarakterli xususiyati naturalistik panteizmdir. Unga olamni katta, tirik va o'zgaruvchan organizm deb karash, insonni tabiatning bir qismi deb tushunish, dialektika elementlari xosdir. Bu davr naturfilosofiyasi J- Brunonyant falsafiy qarashlarida eng tipik tarzda ifodalagan edi. Olamning bir butun va universal manzarasini chnzishga intilishda Uyg'onish davri mutafakkirlari real bilimlarining yetarli emasligi ularning antropomorfik va mistik xayollarga berilishiga olib keldi, ular sexrgarlik va b. «sirli fanlarga, astrologiya, alkimyoga xam murojaat qildilar.

Uyg'onish davri ki shilik jamiyati v a uning tarixiga, davlat va xuquqqa yangicha qarash b-n xam ajralib turadi. 16-asrning yirik siyosiy mutafakkirlari (N. Makiavelli, J. Voden) bu masalalarning ilohiyot ruhidagi talqiniga barham berib, ularga kishilarning uz faoliyati natijasi sifatida qaradilar va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi masalani ilgari surdilar, J. Boden jamiyatning shakllanishida tabiiy muhit ta'sirini ta'kidlaydi; N. Makiavelli siyosiy kurash va moddiy manfaatdorlik ijtimoiy hayotning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi deb hisobladi.

U. d. mutafakkirlari (Italiyada L. Balla, Germaniyada I. Reyxlin, U. fon Gutten; Niderlandiyada Erazm Rotterdamskiy va b.) ilohiyot va cherkovga qarshi asarlar yaratdilar. Ba'zi gumanistlar katolik ruxoniylarni tanqid qilib, papaning dunyoviy xokimiyatiga qarshi chiqdilar.

U. d. da tarixga xam o'zgacha yondoshildi. Tarix cherkov-feodal tasavvurlaridan ozod qilina borib, ilohiyotchilarning davrlashtirish sistemalari rad etila boshlandi. Gumanistlar antik davr b-n o'rta asr o'rtalaridagi sifat tafovutiga e'tibor berdilar.

U. d. da tarixni qadimgi, o'rta asr va yangi tarixga bo'lish kelib chiqdi.

U. d. da gumanistlar dunyoqarashiga xos xususiyatlar ta'lim va tarbiyaviy ishlarga oid qarashlarda ham uz aksini topdi. Gumanistlar (Erazm Rotterdamskiy, F. Rable, M. Monten) o'rta asr sxolastik ta'lim sistemasini kattik tankid kilib, akliy va jismoniy kamol topgan kishini tarbiyalashni ilgari surdilar. Mustaqil fikrlashga, yuksak axloqiy sifatning shakllanishiga, estetikaga axamiyat berdilar. Ular maktabda faqat latin tilini emas, yunon tilini, antik badiiy adabiyoti va mifologiyasini xamda matematika, tarix, tabiatshunoslikni o'rganish zarur deb hisobladilar. Bolalarning jismoniy rivojlanishi haqida g'amho'rlik qildilar va ularga jismoniy jazo berishga qarshi chiqdilar.

Uyg'onish davri san'ati XV asrdan dastlab savdo-sanoat rivoj topgan Florentsiyada gullab-yashnadi. Ilk Uyg'onish davri italyan arxitekturasi tik order sistemasiga asoslanib, binolarning badiiy yuksakligiga, ansambllarning yaxlitligiga erishdi.

Tasviriy san'atda naturaga asoslanildi, antik syujetlarga tez-tez murojaat qilindi, yangi san'at butun Italiyaga tez tarqaldi. Rassomlik san'atida ikonadan Kartinaga o'tildi, freska (shuvoq ustiga solingan rasm) san'ati yuksaldi.

XV asr italyan rassomlari (Mazachcho, Sandro Bottichelli, Pero della Francheska, Andrey Mantenya, Petro Perujino, Jovanni Bellini va b.) realistik obrazlari bilan jahon tasviriy san'ati rivojiga katta hissa qo'shdilar. Florentsiyada shakllangan Yuksak Uyg'onish davrining klassik uslubi Rimda, keyinroq Venetsiyada monumental yodgorliklar yaratilishiga sabab bo'ldi. Yirik arxitektura ansambllari vujudga keldi, «ideal» shaharlarning loyihalari yaratildi (Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo va b.).

XVI asrning 2- choragidan Uyg'onish davri san'ati Italiyada inqirozga uch-rab, man'erizm san'ati paydo bo'ldi. So'nggi Uyg'onish davri arxitekturasida tabiiy muhitga bo'yo'ndirib binolar qurishga e'tibor berila boshladi. Tasviriy san'atda hayotdagi ziddiyatlar, inson bilan muhit orasidagi murakkab vaziyatlar ifodalandi.

Uyg'onish davri san'ati Yevropaning boshqa mamlakatlarida turli-tuman ichki qarama-qarshaliklar tufayli notekis rivojlandi. XV asrda niderland san'ati maktabi vujudga keldi (Yan van Eyk, Rober Kampen, Xugo van der Gus, Xans Memling va b.). Niderland rassomlari Gotika an'alariga tayanib, insonga, uning ma'naviy dunyosiga alohida e'tibor bilan qaradilar.

XVI asrda Italiyadan o'tgan order printsiplari mahalliy uslub yuzaga kelishida muhim rol o'ynadi. Order (arx. ustunlarning turi, nomi, uslubi) asosan, bezak maqsadlariga xizmat qildirildi. Uyg'onish davri san'ati rivoji Germaniyada qisqa muddatli bo'ldi.

XV asr oxiri-XVI asrning 1-choragida A. Dyupep, M. Nitxardt, L. Kranax, X. Xolbeyn kabi rassomlar, F. Shtos, P. Fisher kabi haykaltaroshlar ijodida real izlanishlar, nemis gotikasi bilan xalq san'ati an'alarini uyg'unlashganligi ko'zga tashlandi. Lekin feodal reaksiyasi ustun kelib, tushkunlik kayfiyatidagi man'erizmga yo'l ochildi. Frantsiyada rivoj topgan mahalliy gotika an'alarini, Italiya va Niderlandiyaning yaqin aloqasi Uyg'onish davri san'atining keng rivojini ta'minladi. XV asrda hayotni sinchkovlik bilan kuzatishga oqibatida nafis lirik kartinalar, haykaltaroshlik asarlari yaratildi.

XVI asrda gumanizm ruhi bilan sug'orilgan asarlar ijod etildi, dunyoviy arxitektura rivoj topdi (shu davrda qurilgan saroylar, ayniqsa, diqqatga sazovor). Angliyada XIV asr oxiri va XV asrda yorqin, o'ziga xos realistik izlanishlar rivoji o'zaro ichki urush va Genrix VIII ning islohotlari xalaqit berdi. Daniya va Shvetsiyada Uyg'onish davri san'ati ruhi qal'a, qo'rg'on, jamoat binolari qurilishida namoyon bo'ldi. Pireney yarim orolida yangi san'at arablarga qarshi ozodlik urushlari g'oyalari ta'sirida rivojlandi.

XIV asrda ispan rassomlik san'atida realistik izlanishlar ko'rindi. XVI asrga kelib mamlakat birlashtirilib, qudratli davlatga aylanishi arxitektura va amaliy san'atda turli uslublarning sintezi vujudga kelishiga imkon berdi. Portugaliyada portret san'ati yuksak darajaga ko'tarildi, geografik kashfiyotlar romantikasi ta'sirida arxitekturada hashamdorlikka ahamiyat kuchaydi. Ispaniya va Portugaliya Uyg'onish davri san'ati an'alarini ularning Amerika qit'asidagi mustamlakalariga ham kirib bordi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham Uyg'onish davri g'oyalari ta'sirida yangi badiiy madaniyat paydo bo'ldi. XV asrda Chexiyada dunyoviy me'morlik rivojlana boshladi. Vengriyada XV asr oxiri-XVI asr boshlarida saroq me'morligi (Buda, Vishegradda), miniatyura rassomligi gumanizm g'oyalari ta'sirida yuksaldi. Polshaning xalqaro aloqalari XV asr so'nggi gotika san'atida realistik izlanishlarga yo'l ochdi. Polyak Uyg'onish davri san'ati-ning dunyoga kelishi F. Shtos ijodi bilan bog'liq. XV-XVI asrlar chegarasida Moskva Kremlida ishlagan italyan arxitektorlari Rossiyaga ham Uyg'onish davri san'ati ta'sir etishiga zamin yaratdilar.

8-Mavzu: Qadimgi Rim-Italiya san'ati.

Reja:

1. Italiya antik madaniyatning so'nggi o'chog'i
 2. Etruriya san'ati va madaniyati.
 3. Qadimgi Rimda san'atning shakllanishi.
- a) tasviriy san'at, rassomchilik va amaliy san'at.

Adabiyotlar:

1. Soxoev. G. I Isskustvo drevnego Rima. M. 1971 g
2. San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami
3. Abdullaev N. San'at tarixi T. O'qituvchi. 1986 y.
4. Abdullaeva N. D. San'at tarixi. T. O'zbekiston 2006 y
5. Fozila Sulaymonova Sharq va G'arb tarixi T.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Bumerang", Munozara") foydalaniladi.

Qadimgi Italiya san'ati

Antik madaniyatning so'ngi uchog'i Italiyadir. Bu yerda eramizdan avvalgi 3-2 minginchi yillarda shaharlar mavjud bo'lgan. Me'morlik qoldiqlari, temirdan, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, zebu ziynat buyumlari shundan dalolat beradi. Italiyada bir qancha qabilalar yashagan. Shulardan biri italiy qabilalari bo'lib, ular yashagan yerlarni (hozirgi Rim atrofi), Italiya deb ataganlar. Keyinchalik butun Apenin oroli Italiya deb yuritila boshlagan. Italiya, uning tuprog'ida maydonga kelgan Rim davlati esa jahon madaniyatining ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

Eramizdan avvalgi VII asrdan to yangi eraning V asriga qadar bo'lgan o'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi. Qadimgi dunyoning yirik davlatlaridan hisoblangan Rim imperiyasi paytida katta hajmdagi me'morlik ansambllari vujudga keldi, me'morlikning yangi tiplari paydo bo'ldi. Italiyaliklar qadimgi Gretsiya san'ati va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, iazariyasini yangi ilmiy bilimlar bilan boyitdilar. Realistik portret, tarixiy mavzudagi relief yaratish, mozaika, amaliy san'at borasida novatorlik namunalarini ko'rsatdilar.

Etruriya san'ati va madaniyati

Qadimgi Italiya xalqlari ichida etrusklar bo'lgan. Ular eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda Italiyaning o'rta va g'arbi-janubiy qismini egallaganlar. Etrusklar qurish san'atida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular toshlardan katta-katta imoratlar solganlar, birinchi bo'lib toshdan gumbaz va arkalar ishlaganlar.

Etruriya shaharlari (Tsere, Tarkvini, Veyi, Klezium) baland, qalin, mustahkam devorlar bilan o'ralgan. Keng yillar, mustahkam ko'prik va kanallar qurilgan. Rim tarixchilari etrusklarning san'ati to'g'risida hayajonlanib yozishgan

Etrusk me'morligida sinch imkoniyatidan keng foydalanilgan. Binosing devorlari supacha ustiga o'rnatilgan. Etrusk me'morligida ham ibodatxona qurishiga e'tibor berilgan. Ibodatxonalar peshtoqli bo'lib, u birmuncha chuqur. Binoni badiiy bezashda rangli rseflar, loydan ishlanib pishirilgan terrakotalar ishlatilgan. Tomlari dekorativ haykallar-akroteriylar bilan bezatilgan.

Amaliy-dekorativ san'at, monumental rangtasvir va haykaltaroshlik san'ati ham bu yerda ravnaq topgan. Etrusklarning san'atida sopol astadon keng tarqalgai bo'lib, ularning qopqog'ida jangchi yoki odam boshi haykali ishlangan, Sarkofaglar ham haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan. Ularning qopqog'iga ko'pincha marhumning yotgan holdagi tasviri ishlangan.

Etrusk haykaltaroshlaridan biri Vulka hisoblanadi. U Rimga Kapitoliydagi Yupiter ibodatxonasini bezashga taklif etilgan. Vulka Veyidagi Apollon ibodatxonasining dekorativ haykallarini ham ishlagan.

Etrusklar bronzadan haykal yasashda yuksak san'at egasi bo'lganlar. Antik dunyoning zo'r animalistlari bo'lgan etrusk haykaltaroshlari bronzadan turli hayvon va fantastik jonivorlar haykallarini zo'r mahorat bilan ishlashgan.

Etrusk haykaltaroshligining nodir namunasi Kapitoliydagi «Ona bo'ri» haykalidir. Xaykaltarosh bo'ridagi ehtiyotkorlikni, unga xos vahshiylikni real va ishonarli talqin eta olgan. Shu bilan birga, haykalda shartli dekorativ uslub ta'siri borligini ko'rish mumkin. Bu suratlarda etrusklar hayotiga oid voqealar, mifologiyadan olingan syujetlar tasvirlangan. Amaliy-dekorativ san'at, ayiiqsa, zargarlik san'ati yuksak bo'lgan. Etrusk zargarlarining ayol zebu ziynatlari, oltindan ishlangan turli xil uy buyumlari qadimgi grek va rimliklar tomonrshan yuksak qadrlangan.

Etruriya jamiyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, etrusk san'atiga Italiyaning janubidagi grek koloniyalari san'atining ta'siri sezila boshladi. Etrusklar grek alfavitini, teatr va mifologiyasini qabul qildilar. Greklar singari ular ham yuzasiga bareleflar tushirilgan oltin tangalar chiqara boshladilar. Qora va qizil figurali vazalar etrusklar xonadonidan keng o'rin egallay boshladi.

Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, Etruriyaping qudrati susaya bordi. Mavjud bo'lgan shahar va davlatlar orasidagi ittifoq buzila boshladi. Kelt qabilalari, keyinroq greklar hujumi natijasida Etruriya nnqirozga yuz tutib, italiylar bilan qo'shilib ketdi.

Qadimgi Rim san'ati

Qadimgi Rim san'ati Apenin yarimorollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan yerlardagi boshqa xalqlar san'ati ta'sirida rivoj topdi. Uning ravnaqiga, ayniqsa, grek san'ati kuchli ta'sir o'tkazdi. Lekin rimliklar o'zga xalqlar san'atini o'zlashtirib, o'rganib, uni ijodiy boyitdilar,

shu sanʼat anʼanalarini rivojlantirib, uning yangi tur va janrlarini ham vujudga keltirdilar. Rimdagi tarixiy sharoit, ijtimoiy tuzum xarakteri sanʼatning gʻoyaviy yunalishini belgilashda muhim rol oʻynadi. Rim sanʼatida meʼmorlik yetakchi oʻrinni egalladi. Meʼmorlikda davlatning kuch-qudrati tarannum etildi. Rimliklar koʻpchilikka moʻljallangan muhtasham binolar qurdilar. Rim sanʼatidagi oʻziga xoslik tasviriy sanʼatda, ayniqsa, uning portret janrida yaqqol namoyon boʻldi. Bu yerda juda erta dastgoh sanʼati rivoj topdi. Xikoyanavis boʻrtma tasvir sanʼati ham rimliklar sanʼatining oʻziga xos tomonini belgilaydi.

Qadimgi Rim tarixi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha boʻlgan davrini oʻz ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratik quldorlik respublikasiga jamlandi. U Apenin yarim orolini zabt etib, Oʻrta yer havzasida oʻz hukmdorligini oʻrnatgach, eramizdan avvalgi II asr oʻrtalariga kelib, shu yerdagi yirik davlatga aylandi. Bosib olingan yerlardan boyliklarning Rimga olib kelinishi uning ravnaqida muhim rol oʻynadi, shu bilan birga, inqirozini ham tezlashtirdi. Mulkiy tengsizlik oshdi, ekspluatatsiyaning kuchayishi esa omma orasida norozilikni keltirib chiqardi. Ayniqsa, qullar qoʻzgʻoloni (bular ichida Spartak qoʻzroloni mashhur) respublika davrining inqirozga yuz tuta boshlaganini bildirdi. Uning oʻrnini Rim imperatorlik davri egalladi. Bu davr eramizdan avvalgi I asr oxiridan yangi eraning 476 yilgacha davom etdi.

Meʼmorchilik. Rim meʼmorligining oʻziga xos tomonlari, uning asosiy tiplari Rim respublikasi davridayoq namoyon boʻldi. Doimiy urush va qirgʻinlik, grajdan urushlari mantiqan aniq topilgan monumental meʼmorlik kompozitsiyalarida oʻz ifodasini topdi. Eramizdan avvalgi VIII asrda ishlangan mudofaa devorlari, mamlakatning turli qismlarini tutashtiruvchi tosh tushalgan keng yullarning sodda va jiddiy koʻrinishlarida davr ruhi va qurish sanʼati xarakteri koʻrinadi. Jumladan, mashhur Appiy yoʻlini eramizdan avvalgi 312 yili qurilgan. Bu yuldan Rim legionlari jangga borishgan. Shu davrda mustahkam koʻprik va osma suv quvurlari (akveduklar) qurilgan. Ular shaharga oʻziga xos siluet baxsh etgan.

Rimliklar qadimgi Gretsiyaga va boshqa ellinistik davlatlar ustidan hukmron boʻla borgan sari serhasham binolar koʻpaya bordi. Eramizdai avvalgi III — I asrlarda qurilgan ibodatxona, villa, saroy, qasr va boshqa binolar oʻzining serxasham, jimjimadorligi va nafisligi bilan xarakterlidir. Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (er. av. 27 yil — yangi eraning 14-yillari) sanʼat va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi boʻldi. Rim davlatining «oltin asri» hisoblangan bu davrda nazariyotchi meʼmor Vitruviy tarixchi Tit Liviy, shoirlardan Vergiliy va Goratsiolar yashab ijod etdilar.

Meʼmorlik rivojlandi, shahar qurilishi avj oldi. Ijtimoiy va maʼmuriy binolar koʻplab qurildi. Ayniqsa, Rimda qurilish jiddiy boʻldi. Tarixchilar bu davrning qurilishini taʼriflab, «Avgust Rimni gʻishtdan qurilgan holda olib, uni marmarda qoldirdi», — deb yozgan edilar. Bizgacha vayronalarda yetib kelgan binolarning qoldiqlari xanoʻzgacha oʻzining salobati va ulugʻvorligi bilan xayratlantiradi. Rim meʼmorligida I asrning oxiri va II asr boshlarida eng katta meʼmorlik komplekslari yaratildi, koʻp qavatli binolar vujudga keldi va shahar qiyofasini belgiladi. Yuliev, Flaviev, Sever kabi imperatorlar davrida qurilgan goyatda katga saroylar, zafar ustunlari shu davr ideologiya sini badiiy ifodalovchi yodgorlik sifatida xarakterlidir. Shunday meʼmorlik kompozitsiyadaridan biri 81-yilda qurilgan Tit meʼmorial zafar arkidir. Keyinroq Septima, Sever, Troyan va Konstantinlarga atab shunday zafar arklari qurilgan.

Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfiteatridir. Planda Kolizey gigant oval boʻlib, uning asosi 188x156 m, devorlarning belandligi 48,5 m ga yaqin. Gladiatorlar jangi uchun muljallangan bu qurilmaga bir vaktning oʻzida 55 ming tomoshabin kira olgan. Rim meʼmorligining yana muqim yodgorligi «hamma xudolarning qasri» — Panteon hisoblanadi. Meʼmor Apollodor Damashkiy tomonidan 118—125 yillarda qurilgan bu bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosi boʻlib, unda Rim meʼmorligining novatorlik xususiyati yaqqol koʻzga tashlanadi. Binoning tashqi koʻrinishi sodda, uning old tomonini qizil rangdan ishlangan korinf ustunli peshtoq bezab turadi. Aksincha, interer bezatilishiga aloqida eʼtibor berilgan, poliga marmar yoqizilgan. Devori esa ikki yarusli boʻlib, birinchi yarusidagi chuqur tokchalarga xudolar haykali kuyilgan, ikkinchi yarus esa rangli marmardan ishlangan pilyastrlar bilan boʻlib chiqilgan.

Rim meʼmorligida paydo boʻlgan yangi tiplardan biri termlar — (soʻz saroylari)dir. Iliq va sovuq suvli -xovoʻzlar, gimnastika zallari, oromgoxlar, kutubxona boʻlgan 2—3 ming kishiga muljallangan bunday suv saroylari bezagiga aloxida eʼtibor berilgan. Mozaika va devoriy suratlar, haykal va amaliy

san'at buyumlari saroy go'zalligiga go'zallik kushgan. Imperator Karakalla davridagi term (211—216 yillarda ku-rilgan), ayniqsa, katta va hashamatli bo'lgan. 11 gektar yerni egallagan bu saroy dam olish, kungil ochish uchun ham mo'ljallangan.

Rim me'morligining so'nggi muxim yodgorligi Rim forumidagi Maksentsiya bazilikasidir. 306-312 yillarda karkas konstruksiyasida qurilgan bu bino antik davrning eng katta grajdan me'morligidir. Turli siyosiy yig'idishlar o'tkazish, savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan bu bino intereri uch nefli bo'lgan.

SHaharniig markaziy maydonlari — forumlari, ayniqsa, go'zal bo'lgan. Italiyaning asosiy yullari forumdan boshlangan, shaxarning asosiy kuchalari shu, forumga borib taqalgan. Uning markazida haykallar, dekorativ ustunlar o'rnatilgan. Imperator Troyan forumi esa juda xashamatli bo'lgan. Me'mor Apollodor tomonidan 109—113 yillarda qurilgan bu forum maydonn 116 x 95 m bo'lib, uning o'rtasidagi 27 metrli ustunga Troyanning daklarga qarshi olib borgan kurashini aks ettiruvchi bo'rtma tasvir yuqoriga o'ralib chiquvchi burama frizda ishlangan. Ustun tepasiga imperatorning bronza haykali o'rnatilgan. Bu Baykal XVI asrda olinib, urniga apostol Pyotr haykali o'rnatilgan. Ustun pedestaliga Troyan vafotidan keyin uning xoki solingan o'rna joylashtirilgan.

Tasviriy san'at. Rim tasviriy san'atidan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik namunalari (relef, portret, tematik kompozitsiyalar) saqlanib dolgan, Rimliklarning portret san'atidagi yutuqlari, ayniqsa kattadir. Respublika davrida realistik portret rivojlandi va antik dunyo san'atida yetakchi o'rinni egalladi, Bunga, birinchidan, Rim chinovnigining o'z portret va haykallarini ijtimoiy joylarga qo'yish imtiyozi bo'lsa, ikkinchidan, ko'mish marosimi bilan bogliqligi edi. Boy aristokratlarning mehmonxonalarida (qabulxonalarida) shu uy xujayini ajdodlarining portreti, haykallarini saqlaganlar va shundan g'ururlanganlar. Bunday haykal-portretlar toshdan ishlangan bo'lib, ko'mish marosimi vaqtida marhumning tobuti ortidan ko'tarib olib borilgan.

Bu portretlar marhumning o'ziga juda o'xshatilgan bo'lib, dokumental aniqligi bilan xarakterlangan va bunday portretlar, asosan, marhum yuzidan olingan niqob qolip asosida ishlangan Badiiy jihatdan bush bo'lgan bu portretlari rimliklarning o'zlari grek san'atkorlarining asarlaridan ustun qo'rganlar. Bu portretlar keyingi Rim realistik portretining rivojlanishida muhim rol uynadi.

Eramizdan avvalgi III—I asrlarda Rim ma'naviy hayotidagi o'zgarishlaridan biri, bu tasvirlanuvchi shaxsning individual xislatlari va ma'naviy dunyosiga qiziqishning oshishi bo'ldi. Natijada Rim respublikasi davrida mavjud bo'lgan portretchilik san'atidagi yo'nalish — tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasini dokumental aniqlikda aks ettiruvchi portretlar bilan bir qatorda, ikkinchi yo'nalish tashqi ko'rinishni aniq tasvirlash, grek plastikasiga xos bo'lgan xususiyat umumlashma obrazni yaratish, uni birmuncha ideallashtirish va ma'naviy dunyosini ochib berishga intnlish tendentsiyasi sezilarli bo'ldi.

Rim imperatorligi davrida hukmronlar va ularning kuch-qudratinn ifodalash san'atkorlarning bosh vazifasi bo'lib qoldi. Ular o'z asarlarida imperatorlarni o'ziga o'xshatish bilan bir qatorda, uni ongli ravishda ideallashtirishga intila boshladilar.

Eramizdan avvalgi V—IV asr grek san'ati namunalari taqlid uchun asosiy manba bo'lib qoldi. Grek klassikasidagi ulug'vorlik va tantanavorlik pafosi, xarakterdagi vazminliq sipoliq tanlangan nisbatlar va aniq, sodda shakllar Rim san'atkorlarini o'ziga jalb eta bordi. Oktavian Avgust haykalida shu intilishlar o'z ifodasini topdi. Shu asr rim portret san'atining haqiqiy rivojlangan davridir. Bu davrdan boshlab, haykaltaroshlar avvalgi mavjud an'analardan voz kecha boshlaydilar. Endilikda kuch-g'ayrati toshib yotgan, janglarda toblangan, hukmdor, qattiqqo'ul shaxslar qiyofasi keng o'rinni egallay boshlaydi. Imperator Karakalla byusti Rim realizmining shoh asarlaridandir.

Shunday qilib, asta-sekin antika traditsiyalari bilan aloqa uzildi. Rim imperatorligining sunggi davri san'atida o'rta asrchilikka xos bo'lgan xususiyatlar endilikda ko'proq ko'zga ko'rina boshladi.

Rassomlik va amaliy san'at. Rimning gullagan shaharlari Pompey va Gerkulanumdagi boy, zodagonlarning uylari devorlariga ishlangan suratlar Rim rassomligi haqida ma'lumot beradi. Devoriy suratlarda qadimgi grek ustalari ishlagan nusxalardan ko'chirmalar, turli naqsh, gul va girlyandalar tasviri ham keng uchraydi. Bu uylarnipg pollari mozaika bilan bezatilgan. Ularda sayyor aktyorlar, dengiz osti manzaralari, urushayotgan xo'roz va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Shunday mozaikalardan biri Favna uyidagi Aleksandr Makedonskiyning Eron shodi Doro bilan qilayotgan jangi tasviridir.

Rim dastgoh rangtasviri to'g'risida ma'lumotlar ham aniqlangan. Shuning uchun undagi taraqqiyot bosqichini to'liq kuzatish qiyin. Faqat bu haqda I-III asrlarda ishlangan Fayum portretlari tasavvur bera oladi. Bu portretlarning nomi Rim imperiyasining sharqiy provintsiyasi bo'lgan Misrdagi El-Fayum vohasidagi nekropoldan topilgani uchun shunday deb ataladi. Fayum portretlari ellin-rim san'ati ta'sirida rivojlandi. Fayum portretlari o'zining realistik xarakteri bilan ajralib turadi. Tasvirlanuvchining yoshi, tugarak o'ziga xos individual xislatlari san'atkor tomonidan maxorat bilan talqin etilgan. Fayum portretlarida tasvirlangan odamlar bir-birlariga o'xshaydi. Portretlar galereyasida goh hushchaqchaq, goh g'amgin, goh irodali, goh kuchsiz, goq xudbin shaxslar qiyofasi namoyon buladi. Keksa rimlik (I asrning II yarmi) va «Yosh ayol», «Oltin chambarli yigit» portretlari shu jihatdan diqqatga sazovordir

Bundan tashqari, antik dunyoda yangi din — xristian dinining keng yoyila boshlashi ham bu inqirozning sababi bo'ldi. Xristian dini antik dunyoqarash va estetikasiga qarama-qarshi o'laroq, yerdagi lazzatlardan, jismoniy go'zallikdan zavqlanishni gunoh deb targ'ib etdi va shu bilan birga, asta-sekin o'rta asr san'atining yo'nalishiga yo'l o'cha bordi.

IV—VI asrlarda Rimning varvarlar tomonidan talanishi san'atning ravnaqini to'xtatib qo'ydi. Rim san'ati antik dunyo san'ati taraqqiyotiga yakun yasadi. Rimning qulashi bilan antik dunyo san'ati tarixi ham tugallandi. Lekin bu yerda boshlangan an'analar O'rta asr san'atida davom etdi. Uyg'onish davri kishilari bu san'atdan zavqlandi, ilhomlandi. Bu san'at an'analari XVII—XIX asrlarda ham juda ko'pchilikni o'ziga tortdi. Rim san'ati t, nozik did va aniq g'oyaviy yo'nalishda yaratilgan qadimgi Rim ustalarining hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Yuksak professional mahora nodir asarlari bugungi kunda ham san'atkorlar uchun taqlid maktabi bo'lib qolmoqda.

Mavzu: O'rta asrlar davri san'ati.

Reja:

1. O'rta asrlar davri san'atining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Evropada Roman san'ati, me'morligi, haykaltaroshligi.
3. Gotika uslubi va unga xos san'at asarlarining vujudga kelishi.

Adabiyotlar:

1. Kratkiy slovar terminov izobrazitel'nogo iskusstva. M., 1959.
2. Ocherki po istorii russkogo iskusstva. M., 1954.
4. Polevoy V.M. Iskustva XX veka. 1901-1945. M., 1991.
5. Prokovev V.N. Postimpressionizm. -M., 1973.
6. Pugachenkova G.A. Skulptura Xalchayana. -M., 1971.
7. Pugachenkova G.A. Iskustva Baktrii epoxi Kushan. -M., 1978.

Tayanch so'zlar

Feodalizm formatciyasi, klassik o'rta asr, San'at va madaniyat, Gotika uslubi, Iso, Bibi Maryam, apostollar, Diniy mavzu lar, Donatorlar, Reymsdagi sobor.

.....
Dars o'tish jarayonida yangi pedtsehnologiyalardan ("Aqliy hujum", Munozara") foydalaniladi.

X asr oxirlaridan boshlab, Yevropada hayot izga tusha boshladi. Ko'pgina yerlarda feodal munosabatlar shakllanib bo'ldi. Sanat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarila boshladi. X – XII asrlarni o'z ichiga olgan bu taraqqiyot bosqichi roman asri sanati deb yuritiladi. Bu davr yevropa ijtimoiu xayotida cherkovning roli katta edi. Ayniqsa, Fransiya, Angliya, Germaniya, Ispaniyada yirik qurilish va u bilan bog'liq bo'lgan sanat turlari cherkov buyurtmasi bilan yaratildi.

Roman asrida memorlik yetakchi o'rinni egalladi. Roman uslubidagi bino bir muncha past, ko'rinishi jiddiy va og'ir. Uning devorlari ham qalin va mustahkam (chunki dushman hujumi paytida yashirinish mumkin), eshik darvoza va derazalari ensiz. Funktsional va dekorativ maqsadida yo'llanilgan ustunlar ham dag'al va yo'g'on. Roman memorligiga hos bo'lgan bu hususiyatlar uning o'ziga hos ko'rinishi, harakteri va kishiga beradigan psihologik ta'sirini belgilaydi. Roman davri memorligining yana bir hususiyati uning ichki devorlarida tekis yuzaning serobligidir. Bu hususiyat esa monumental rang tasvirning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. XI asrda bu san'at o'zining eng gullagan davrini boshdan kechirdi. Vitraj ham memorlikning ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda haykaltaroshlik

memorlik bilan bog'liq holda rivojlandi. Binoning peshtoq, ustun va kapitellari devordagi mahsus tokchalar haykaltaroshlik san'ati bilan bezatildi. Miniatyura va mayda haykaltaroshlik ham memorlik ta'sirida bo'ldi. Roman memorligi uslubining grajdan qurilishiga ta'siri katta bo'ldi.

Roman memorligi karolinglar davri yutuqlariga tayangan holda rivojlangan bo'lsa ham lekin uning ko'rinishiga Vizantiya hamda arab mamlakatlari sanatining ta'siri bo'lgan.

Roman memorligining o'ziga hos tomoni tomining egri ravoq (gumbaz) tarzida yopilishi va darchlarining joylashtirilishidir. Roman san'atining rivojlangan davrida esa kapitel va ustunlar o'ziga hos haykaltaroshlik ko'rinishiga o'xshab bordi. Bu asrga kelib, feodallar turadiga o'ziga hos uy tipi – qasr paydo bo'ldi o'sha davr shahar qurilishi ham feodal qo'rg'oniga o'hshash bo'lgan. Shahar atrofi qalin devor bilan o'rab chiqilgan. Qurilgan binolar bezagi kam va sodda bo'lgan.

Ilk roman davrida (V-asr) haykallar memorlik formalariga qo'shib ishlandi. XII-asrga kelib u mustaqillik kashf eta bordi, hamda memorlik ansanbili bezagining ma'lum sistemasiga aylandi.

Fransiya feodalizmning klassik vatanidir. O'rta asrning gullagan davrida uning san'ati G'arbiy Yevropada yetakchi o'rinni egallagan. Fransuz san'atida roman uslubining o'ziga hos tomonlari yaqqol namoyon bo'ldi o'zining dekorativ bezatilishi va konstruktiv tuzilishi jihatidan rangbarang bo'lgan Fransuz me'morligi Yevropa qurilish san'atiga muhim o'rin egalladi. Bu yerda yaratilgan memorlik tiplari Yevropaning ko'pgina shaharlarida taqlid uchun namuna bo'lib qoldi. Puatedagi Notr Dam la Grant (XI-XII - asr) ibodatxonasi roman stilida hos hususiyatlarni nomoyon qiladi. Ko'rinish jihatidan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan. Shu davrlarda qoldirilgan kichik tor darchalar bu devorlar qalinligini tanada bo'rttirib, uning vazminligini oshiradi. Bu ibodatxona uch nefdan iborat. O'rtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan bir oz baland, u yerdagi kichik darchalardan ichkariga nur tushib turadi. Bino devorlari haykaltaroshlik asrlariturli arhitektura dekorativ elementlari bilan bezatilgan. Binoning pastgi yarusi tepadagiga nisbatan katta bo'lib, asosan o'yma naqsh va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Memorlik yodgorliklari bu davrda siyosiy vaziyatni aks ettirgan bu hususiyat ayniqsa Klyunidagi cherkovda ko'zga tashlanadi. Bu cherkov XI-asr oxirlarida bunyod etilgan o'sha davrda Yevropadagi eng katta ibodatxonalardan biri bo'lgan.

Germaniyada qurilgan roman uslubidagi binolar o'zing qubbasimon aniq shakllari hamda ulug'vorligi bilan karakterlanadi. Bularni barchasi Vormsdagi soborda yaqqol nomoyon bo'ladi. Italiyaning ayrim viloyatlarida vizantiyaning ta'siri bo'lsa boshqa birida roman san'ti ananalari seziladi. Ilg'or toskani valombardiya maktablarida mahalliy antika ananalari ta'siri ko'rinadi. Pizadagi memorlik ansanbili bu hususida diqqatga sazovor. Ansanbildagi binolarning devorlari nafis arkadalari bilan qator yaruslarga ajratilgan. Piza soborining elips shaklidagi gumbazi garmonik tugal ko'rinishni taminlaydi.

Roman memorligida devoriy suratlar va vitrajlar muhim o'rin egallaydi. Rangdor suratlar devor va shipni qoplagan, ular asosan diniy mavzuga bag'ishlangan. Fransiyadagi San-Save cherkovida ishlangan suratlarda "Mehaylning ajdaho bilan olishuvi" surati karakterlidir.

XII asrdan boshlab, feodalizm formasiyasi ichida yangi ijtimoiy kuchlarning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi klassik o'rta asr an'alarining inqiroziga sabab bo'ldi. Bu yangi kuchlar shaharning keng taraqqiy e'tishi bilan bog'liq holda o'z kuchini oshirib bordi. Shaharlarda savdogarlar korporasiyalari va hunarmandchilik sehlari rolining ortib borishi ijtimoiy tuzum karakteriga ta'sir qila boshladi.

Feodal hukmdorlarida ozodlikka, mustaqillikka e'rishishga intilish ortib bordi. Bu davrda din hamon hukmronlikda, cherkov esa san'atga o'z talabini qo'yayotgan bo'lsa ham, lekin shahardagi hunarmand va savdogarlarning bilimga, hayotning yangi qirralarini ochishga intilishi orta bordi. Evropa shaharlarida dastlabki fan markazlari - universitetlarning tashkil topishi esa, bu intilish ravnaqiga zamin yarata bordi.

San'at va madaniyat mazmuni, karakterida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Hayotiy mavzudagi asarlar yuzaga kela boshladi. Shahar hayotining kundalik turmushi, ishq-muhabbat mavzusidagi asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijodkorning missiy kechinmalari, voqelikka bo'lgan munosabatlari o'z ifodasini topa boshladi. Ruhoniylarning ikki yuzlamachiligini fosh e'tuvchi teatr janrlari, maskaradlar yuzaga keldi.

Bu davrda tasviriy san'at va me'morlikda ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Farbiy Evropa madaniyatidan Vizantiya san'ati an'analari uzil-kesil chiqarib tashlandi. Davr ruhini uzida ifodalovchi

realistik shakl va mazmundagi asarlar, funksional tomoni orta boshlagan me'morlikning rivojlanmasligiga sabab bo'ldi. Uning o'rnini vitraj san'ati egalladi.

Gotika binolarining katta-katta derazalarini vitraj kompozitsiyalari egalladi. Diniy va hayotiy mavzudagi suratlar rangli shishalardan tuzib chikildi. Gotika rassomligi miniatyura san'ati sifatida ham ko'zga ko'rinadi. Bu san'at ravnaqi XIII asrdan boshlanib, XV asrgacha davom etdi. Shu san'atda gotika tasviriy san'atidagi o'ziga hos tomonlar -mavzuning kengayishi, dunyoviy mavzuda ko'plab asarlar yaratilishi bilan realistik tendensiyalarning kuchayishi seziladi. Bu davr miniatyuralarida devdonlar hayotidan olingan voqealar, zodagonlarning ko'ngil ochish paytlarini tasvirlovchi rasmlar paydo bo'ldi.

Real tabiat manzaralarini aks ettiruvchi suratlar ayniqsa, oy va yil fasllariga bag'ishlangan allegorik miniatyuralar yaratildi. Bu davrda haykaltaroshlik hamon etakchi san'at bo'lib qoldi va me'morlik bilan uzviy bog'liq holda mustakil san'at sifatida yuzaga chuqa. boshladi, ko'p hollarda esa dumaloq haykal sifatida namoyon bo'ldi.

Bunday haykallar juda ko'p uchraydi. Masalan, Reymdsdagi soborda 2000 dan ortik dumaloq haykal ishlatilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik mavzusi ham kengaydi. Iso, Bibi Maryam, apostollar hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalar bilan bir qatorda, hayotiy mavzularda, hatto mehnat mavzusida ham asarlar yaratila boshlandi. Diniy mavzularda yaratilgan asarlarda ham insoniylik, olijanoblik, hamdardlik kayfiyatlari o'z ifodasini topa bordi. Donatorlar (ibodathonalar uchun ko'p mablag' sarflagan, unga zakot bergan shahslar)ga atab yodgorliklar o'rnatish, haykallar qo'yish (masalan, Ekkegart va uning qaylig'i Uta, Germaniya, XIII asr)odati paydo bo'lganligi ham san'atning targ'ibotchilik roli ortib borayotganligini ko'rsatadi .

.....
Gotika amaliy-dekorativ san'ati ham bevosita davr ruhi va mazmuni bilan bog'liq. Jozibador, serjilva va nafis uy-anjom buyumlari, qurol-aslaha va mebellarda davr karakteri, kishilarning estetik qarashlari o'zining badiiy ifodasini topdi.

XII-XVIII asrlarda gotika uslubining deyarli hamma mamlakatlar o'z boshidan kechirdi. Lekin bu uslub mahalliy sharoit va davr talabidan kelib chiqib, o'ziga hos ko'rinish kashf etdi. Jumladan, gotikaning vatani hisoblangan Fransiyada bu uslubda ishlangan asarlar nisbatlarining to'g'riligi, me'yorida topilganligi, aniqligi, shakllarining nafisligi bilan karakterlanadi.

Parijdagi Bibi Maryam sobori (Notr Dam de Pari, 1163 yili boshlanib, ayrim qismlari 1314 yilda tugallangan) ilk gotikaga mansubdir. Besh nefli, kichik transepli bazilika tipidagi bu binoning old tomonida ikki minora mavjud. U soborniig baland va «falakka intilayotgandek» bo'lib ko'rinishiga hizmat qiladi. Peshtoq, darcha, darvoza va eshiklar tepasiga ishlangan nayzasimon arkalar uning engil va dinamik ko'rinishini ta'minlaydi.

Reymdsdagi sobor (XIII asrda boshlanib, XIV asrda tugallangan) gotikaning eng rivojlangan davriga mansub. Uning uzunligi 150 m, minoralarining balandligi 80 m. Bu sobor o'z vaqtida halq, birligini tarannum etuvchi ramziy belgi sifatida qabul qilingan. Bu binoda gotika san'ati o'zining klassik ko'rinishini namoyon qildi. Amendagi soborda gotikaga hos nisbatlar guzalligi, umumiy ko'rinish yahlitligi buzila boshlaydi. Dekorativ bezaklarning mulligi esa binoning konatraktiv aniqligiga salbiy ta'sir qilgan. Germaniyada gotika uslubi fransuzlar ta'sirida rivojlandi. Lekin nemis gotikasida yahlitlik etishmaydi va unga hos bo'lgan dramatism e'kspressiya roman me'morligi an'analari bilan ko'shilib ketadi. Bundan tashqari, nemis gotikasida bir minorali soborlar ham keng uchraydi. Binolarining tashki tomoni sodda, kam bezakli Kel'ndagi sobor (1248--1880) Am'en soboriga uhshatib ko'rilgan.

Italiya me'morligida gotika uslubi XIII asrning ohirida kirib kela boshladi. Lekin dastlabki paytlarda roman me'morligi prinsiplariga ta'sir qilmadi. XIV asrda gotika uslubi prinsiplari tuliq ko'rina boshladi. Ispaniya gotikasi musulmon me'morligi prinsiplari bilan boyigan bo'lsa, Angliya gotikasi og'ir, kompozitsiyada haddan ortiq detallar ko'payib ketganligi va arxitektura bezagining mo'lligi bilan karakterlanadi.

.....
“Binobarin biz davlatimiz kelajagini o'z qobimizda o'ralib qolgan holda emas, balki

umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquq va erkinliklarini, fikirlar rang-barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo bilan tinch-totuv, erkin va farofon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz".

Karimov.I.A.

Mavzu : XVII asrlarda Yevropa san'ati.

Reja:

- 1.Italiyada barokko san'ati
- 2.XVII asrda Gollandiya san'ati
- 3.XVII asrda Flamand san'ati.

Dars o'tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan ("Munozara") foydalaniladi.

A d a b i y o t l a r

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.,1998
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intirilmogda. T.,1999.
- 3.Karimov I.A.Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008
- 4.Abdullaev N. San'at tarixi.T. O'qituvchi, 1987.
- 5.San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami.T., 1998.

Italiyada barokko san'ati

XVI asr o'rtalariga kelib, Italiyadagi ijtimoiy qarama-qarshiliklar feodal-katolik kuchlarining g'alabasi bilan tugadi.Davlat bo'linib ketgan, iqtisodiy jihatdan tang ahvolda edi. Italiya, Fransiya va Ispaniya kabi kuchli mamlakatlar hujumiga bardosh bera olmadi. Uzoq kurashlardan so'ng Ispaniya g'olib chiqdi.Shu paytdan boshlab (1559-y.),Italiyaya taqdiri Ispaniya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

XVII asrda Italiya san'atining umumiy xarakteri tarixiy rivojining xususiyatlari bilan monand. Italiyada barokko san'ati paydo bo'lib, taraqqiy eta boshladi. Barokko Italiya san'atidagi yetakchi yo'nalish bo'lsa ham, XVII asrda boshqa oqimlar ham mavjud edi. Undan tashqari, realistik oqim ham taraqqiyparvar va demokratik g'oyalarni, xalq fikrini yorituvchi san'at yo'nalishi sifalida Italiyaning barcha yirik shaharlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XVII asr Italiya monumental arxitekturasi katolik cherkov va aristokratlarning hamma ehtiyojlariga mos tushadi. Shu paytda asosan ihodalxona va saroylar qurilishi rivojlangan. Bir tomondan monumentallikka, ikkinchi tomondan esa dekorativlikka ahamiyit berilgan bu paytdagi barokko uslubi arxitektun da ham taraiqiy etdi.

Barokkoning birinchi arxitektorlari Jakomo dela Porta va Domeniko Fontanlar deb qabul qilingan.Yuqori barokkoning yirik arxitektori va haykaltaroshi Lorenzo Bernini

1.Karimov.I.A.Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008,114-bet.

1629- yildan boshlab Modernning o'limidan so'ng Petr sobori qurilishini davom ettiradi. Bernini tomonidan bajarilgan soborning ichki bezaklari Mikelanjelo tomonidan tavsiya qilingan.

Berninining eng yirik me'morchilik asari Avlyo Petr ibodatxonasi maydoni hisoblanadi. Me'mor ikkita maydon yaratdi. Ellips shaklidagi ustunlar bilan o'ralgan bu joyga simmetrik joylashgan ikkita fawora o'rnatilgan. XVII asrda arxitekturadagi kabi tasviriy san'atda ham barokko uslubi asosiy ahamiyatni kasb etdi.

XV-XVII asrlarga kelib manerizm oqimiga qarshi yo'nalish rivojlanadi: Bolonye akademizmi va Karavadjizm.

Aka-uka Karrachilar ijodi XVI asrdagi so'ngi Rim san'atida manerizmdan oddiylik va obrazlarning ulug'vorligi tomon keskin burilish bo'ldi. Karrachilar 1580- yilda Bolonyeda akademiya ochishadi. Bu badiiy ta'lim prinsiplarini tizimga keltirishda keyingi ociligan akademiyalar uchun Yevropa san'ati katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1595-yili Karrachilar mashhur bo'lgach, kardinal Farieze o'z saroyini bezash uchun ularni Rimga chaqiradi. Annibale taklifni qabu! qilib butunlay Bolonyeni tashlab ketadi. U Palatso Farneze zallaridan biriga mashhur shift galereyasini yaraiadi va bu asar uning ijodini cho'qqisi bo'lib qoladi. Shiftning kompozitsion tuzilishi Mikelanjeloning Sikstin kapellasiga ishlagan naqshlariga o'xshab ketadi. Rassom insonlar figurasini va tasviriy asarlarni ko'zni qamashtirarli darajada xuddi jonliday aks ettira olgan.

Rimdagi faoliyati davrida Annibale Karrachi tomonidan yaratilgan kartinalar asosan diniy sujetlarga bag'ishlangan. Shakllarning sovuq ishlanishi hissiy tuyg'ularga o'rin qoldirmaydi. Annibalening tasviriy uslubi figuralarni aniq egiluvchar chiziqlar orqali tasvirlashdan iboratdir. „Iso qabri oldidagi tinchlik keltiruvchi ayollar" asari shu xildagi asarlarning eng o'ziga xosidir. Karrachi manzarani „klassik" uslubda tasvirlovchi san'atkor bo'lib qoladi.

Bolonye akademizmi shakllangandan bir necha yil keyin manerizmga yana ham qarshi turuvchi, realistik obrazlar izlovchi, demokratik xarakterdagi „karavajizm" atamasi bilan yuiritilgan oqim paydo bo'ladi.

Mikelanjelo Merizi da Karavado (1574-1610) nomi bilan bog'liq bu oqimning asoschisi yoshligidanoq maishiy janr ustasi sifatida taniladi. Uning „Ud chaluvi" asari ijodining dastlabki yillaridagi xarakterli ishlaridandir.

XVII asrning dastlabki yillarida yaratilgan mashhur „Tobutga solish" asari kompozitsiyasi ta'sirchanligi va obrazlarning hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Shogirdining egilgan figurasi nihoyatda hayotiy berilgan bo'lib, Iso gavdasini ushlab turibdi. „Bibi Maryamning ulgurishi" asari ham shit xildagi haqqoniy asardir. Bibi Maryamning yotgan gavdasi oldida Iso shogirdlari chuqur qayg'uda. Asarning janrli xarakteridan rassomning mavzuni an'anaviy talqin qilishdan voz kechganligi seziladi. Bu narsa cherkov tomonidan rassomga norozilik bildirishga sabab bo'ldi.

Lorenzo Bernini (1599-1680) yuqori barokko san'atining mashhur me'mori va haykallaroshi, shu uslubning xarakterli tomonlarini umumlashira olgan ijodkordir. Marmar va bronzadan asar ishlashda undan o'tadigani bo'lmagan. U yoshligidanoq o'ziga badiiy yo'nalish topa olgan, birinchi asarlaridayoq' lining mahoratli san'atkor ckanligi sezilib lurardi. 1623-yili „David" haykalini yaratadi. Haykalda Injil qahramonining jismoniy va ruhiy kuch-qudrati jo'sh urgan payti aks ettirilgan.

Barokko mahobatli haykaltaroshligi durdonalaridan biri-mashhur „Avliyo Terezaning zavqlanishi" asari bo'lib, Rimclagi Santa Mariya della Viktoriya ibodatxonasining Kornaro kapellasini "bezatib turadi. O'ta zo'r zavq bilan cgilib, yoy o'qini ushlab turgan farishtaning his-hayajoni hayotiy berilgan. Tereza libosining burmalari dekorativlik hosil qilgan, oltin nurlar fonida marmarday oppoq farishtaning figurasi dcvorning rangi bilan qo'shilib ketib, tantanali ansambl hosil qilgan. Mavzu va uning talqin qilinishi Italiya barokkosining xarakterini tasvirlab beradi .

XVII ASRDA GOLLANDIYA SAN'ATI

Ispaniya bilan o'z mustaqilligi uchun olib borgau uzoq mudtati urusli Shimoliy Niderlandiyaning g'alabasi bilan lugadi. Burjua inqilobi g'alabasi Gollandiyani iqtisodiy jihatdan G'arbiy Yevropada birinchi o'ringa olib chiqdi. Ana shu tufayli Gollandiyada monumental-dekorativ va ibodatxona san'atiga bo'lgan talab deyarli yo'qoldi. Uning o'rniga raiiftasvir as.irlariga ehtiyoj nihoyatda oshdi. Bu davrda asosan bcjirim xc nalarni bezashga moijallangan kichik hajmli maishiy asarlar ishlash rivojlandi. Badiiy asarlarga bo'lgan ehtiyojning ko'pligi, rassomlarning ko'payib ketishiga sabab bo'ldi. XVII asrda Gollandiyada mavzu va tasviriy uslub jihatidan realizm huknronlik qilardi. Rassomdan atrofni haqqoniy tasvirlash talab qilinardi. Burjua jamiyatida shaxs ahamiyatining yuksalishi portret janrining rivojlanishiga olib keldi. Mahalliy realistik oqimdan tashqari Italiya an'anilari ham kuchli ta'sir qildi.

Frans Xals (1580—1666) shu davrda ijodi gullab-yashnagan rassoi idir. U Garlemda yashab ijod qiladi. 1616- yilda u yirik portretchi sifatida taniladi va umrining oxirigacha bu shuhrati saqlarib qoladi. Xalsning dastlabki ijodiy yillari bizga ma'lum emas. U murakkab muammolarni hal qiluvchi san'atkor sifatida guruhli portretlar yaratganini bilamiz. „Adrianning mergan ofitserlar rotasi" asari ko'p kishili kengash paytining joinli, liar bir obrazning yorqin ishlanganligi jihatidan e'tiborni ortadi. Shuningdek, badiiy mahorat va kompozitsion ustalik, obrazlar xarakteristikasining keskinligi ko'zga tashlanadi. Uning portretlari jonlili u va keskin xarakterlanishi bilan qiziqarlidir. „Lo'li ayol" va „Qo'lqop kiygan yosh yigit" portretlari shular jumlasidandir.

Rembrandt Xarmens van Reyn (1606-1669) Xalsdan sal keyinioq san'at olamiga kirib kelgan golland realizm ustasi, buyuk rassonidir. Uning ijodi Gollandiyaning iftixori bo'lib, nafaqat Gollandiya, balki butun jahon madaniyatining eng yirik sa'atkori sifatid i qimmatlidir. Rembrandt 1606-yili Leydenda tegirmonchi oilasida duiyoga keladi. U rassomlikka bo'lgan qobiliyatini erta sezib, Leyden universitetiga kelgach, ko'p o'tmay butunlay san'atga berilib ketadi Unchalik tanilmagan rassom Yakov Svannenburx qu'lidagi uch yillir ta'limotdan so'ng o'z malakasini oshish maqsadida Amsterdamba boradi. U yerda Latsmanga shogird tushadi. Ustozining ba'zi uslublarini o'rganadi, Karavajoning realistik yo'nalishi ta'sirida bo'ladi.

Leydenga qaytib, erkin rassom sifatida ishlay boshlaydi. Katta muvaffaqiyatga erishgach, 1631-yilda Amsterdamba ko'chib ketadi. Ko'plab buyurtmalar qabul qila boshlaydi, rassomning ijodi tamoman shakllanadi. U ijodi davomida diniy sujetlar, tarixiy, mifologik, portret, maishiy, hayvonlar dunyosi, manzara va natyurmort janrlarida ko'plab asarlar yaratadi. Rembrandtning diqqat markazida inson obrazi, uning psixologik xarakteristikasi va ruhiy kechinmalari turadi. „Doktor Tyulp anatomiyasi" .guruhli portreti-Rembrandtning birinchi eng yirik asari edi. 1640- yilning boshlaridan Rembrandt ijodi yangi bosqichga chiqadi. San'at vazifalarini erkin tushunish, hayotni haqqoniy tasvirlashga intilish, obrazning ruhiy-kechinmalarini ochib berish, ijodiy individuallikka intilish kuchaydi. Rembrandt bu paytda iqtisodiy jihatdan erkin bo'la oldi, burjua hokimiyatining buyurtmachilariga emas, balki o'z g'oyasiga to'g'ri kelgan ko'ri-nishda ijod qila boshladi. Natijada portret xarakteristikasi 2-darajali bo'lib srharakat voqealar birinchi o'ringa o'ladi. „Tungi kuzatish" asari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Rembrandt manzara janrida ham qator asarlar yaratadi. „Qish ko'rinishi" nomli kichik tasvirda sovuq kundagi dehqon hovlisi aks ettirilib, suvi muzlab qolgan ariq bo'yida bir necha kishi qiyofasi ko'rinadi.

Portret janrida Rembrandt obraz tanlashda erkinlashib, u ko'proq yorqin individual obrazlar xarakterini yoritadi. Bular ko'pincha qari ayollar va yahudiy chollardir. So'nggi yillarda buyurtmachilarning kamayib ketishi rassomni iqtisodiy tomondan qiyin ahvolga soldi. Oilasidagi qator baxtsiz voqealardan keyin ham, rassom 1650-yil oxiri va 1660- yillardag ijodida ko'tarinki davrni boshdan kechirdi. Obrazlarning ichki kuchi, mazmunan sodda voqealar, issiq kolorit shu davrdagi ijodining xarakterli tomonidir. „Mato sexi oqsoqollari" asarida psixologik xarakteristikaning keskinligi, kompozitsion tuzilishinihg soddaligi ko'zga tashlanadi. Injil mavzusidagi „Adashgan o'gilning qaytishi" asarida to'g'ri yo'l topolmagan o'g'ilning uzoq judolikdan so'ng afsuslanib ota uyiga qaytgarii va undan kechirim so'rayotgani aks etgan. Inson ichki kechinmalari va dramatik voqeani nozik aks ettirilishi jihalidan dunyo san'adida unga teng keladigan asar yo'qdir. Mazkur asar rassomning eng so'nggi asari. Chunki unda 1669-yil, ya'ni Rembrandtning vafot etgan yili qayd qilingan. Rassomning o'limi oddiy kishilarniki kabi shov-shuvsiz bo'di, faqat XVIII asrga kelib bu ulug' rassom ijodini aliainiyati Ian olina boshlandi.

XVII ASRDA FLAMAND SAN'ATI

XVII asrda Niderland san'ati katta ahamiyatga ega bo'lib, ikki yirik milliy maktab - flamand va gollandlar makiabiga bo'linadi. Bu ikki maktab ham yaqqol ajralib turuvchi, lekin qarama-qarshi yo'nalishga ega edi.

XVI asr Niderland san'ati uchun o'tish davri hisoblanadi. Luka Leyden va Petr Breygel ijodidagi yorqin realistik va milliy shakli ing taraqqiyotidan so'ng Italiya san'atjga sig'inish davri boshlanadi. Bu davr o'rta asrlar podsholik usulidan tamomam xoli bo'lishi va yangi janrlarning qaror topishi davridir. Flmand maktabining barcha xususiyatlari Rubins ijodida to'la va yorqin aksini topadi. Rubens XVII asrning buyuk rassomi sifatida bizga ma'lum.

Piter Paul Rubens (1577-1640) burjua oilasidan bo'lib, Germaniyadagi Zigane shahrida tavallud topdi. Chunki otasi huquqshunos boigani uchun, reaksion hukumat boshlig'i gersog Alba davrida siyosiy

nuqtayi nazardan surgun qilinadi. 10 yoshli Rubens otasi o'limidan so'ng, onasi bilan Antverpenga qaytib keladi va lotin maktabida o'qiydi. U yerni bitirgach, onasining ruxsati bilan avvalo manzarachi rassom Verxagt, so'ngra Adam van Nort ustaxonasiga o'tadi. U yerdagi to'rt yillik ta'limdan so'ng Otto Venius qo'lida o'qiydi. 1600- yili erkin rassom sifatida Italiyaga borib, u yerda sakkiz yil o'z malakasini oshiradi. U Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Titsian, Karavajo ijodini sinchiklab o'rganadi.

1608- yili onasi o'limidan so'ng, Antverpenga keladi. Ko'p o'tmay taniqli va boy kishining qizi Izabella Brantga uylanib, Antverpenda tamoman qaror topadi. U tez orada shuhrat ham qozonadi.

Rubensning diniy asarlari orasida eng xarakterlisi „Xochhining qiyofasi” asaridir. Figuralarning xilma-xilligi, murakkab rakurs va muskullarning harakati jismoniy kuchlardagi qat'iyatni anglatadi. Bu qo'pol kuchlarga ideallashtirilgan Iso obrazi qarama-qarshi qo'yilgan. Rubens bu asarda turli kontrastlardan keng foydalanib, yoritilgan va soya qismlarni keskin qo'yadi. Ruhiiy harakat va dinamikali yo'nalishning cho'qqiga ko'tarilishi Rubens ijodida 1615-1620-yillarda rivojlanib, bu narsa shu davrda yaratilgan ov mavzusiga bag'ishlangan asarlarida o'z aksini topadi. „Yo'lbars ovi" eskizi Ermijdagi rassom asarlaridan eng kuchlisi bo'lib, undagr otdan yiqilayotgan chavandozga tashlanaydigan yo'lbarsga ovchilar guruhi yopirilib hujum qilgan sujetida, harakat nihoyatda zo'r berilgan.

1630- yillarda Rubens ijodida realizm elementi kuchaya boshlaydi. Ayniqsa, yosh rafiqasi porlretini katta qiziqish bilan bir necha bor ishlaydi. Nihoyatda jonli va koloristik tomondan kuchli bo'lgan „Yelena Faurmen bolalari bilan" portreti, „Dehqonlar o'yini" asari jo'shqin harakatchanligi bilan e'tiborga molik. U manzara janrida ham yirik realist rassom sifatida taniladi. O'z o'lkasining manzarasini mohirona tasvirlaydi, keng tekisliklari va rang-barang daraxtlarini ustalik bilan aks ettiradi.

Antonis van Deyk (1599-1641) XVII asr Flamand maktabi rassomlari orasida Rubensdan so'ng birinchi o'rinda turgan rassomdir. U Rubensning o'quvchisi bo'lmasa ham, lining shogirdi deyishadi. Chunki unchalik tanilmagan rassoin Xendrik van Balen qo'lida o'qigach, Rubens ustaxonasiga keladi. Lekin o'z iste'dodining rivojida Rubensdan minnatdor, chunki uning qo'lida birdaniga asosiy yordamchisi bo'lib qoladi. Uning ijodi tezda rivojlanib, dastlabki asarlari Rubensnikidan qolishmaydi. Diniy sujetlar Van Deyk ijodida alohida o'rin egallaydi. Lekin portret uning sevgan janridir. 1621-yilga qadar kechgan birinchi Antveipen davrida uning portretlari qat'iy realizm bilan sug'orilgan. Shu davrda u o'z oilasi, do'sflan obrazlarini yaratadi. Kompozitsion sodda, rasm jihatdan puxta „Oilaviy portret" asari koloriti unchalik yorqin emas.

Haqiqiy portretchi sifatida Van Deyk shu asarida faqat tashqi o'xshashlikni maromiga yetkazibgina qolmay, balki psixologik lomonlari bilan ham qiziqtirib, kishini keskin xarakterlab bera olgan.

1620 yilda Van Deyk Italiyaga sayohat qiladi va shu divrdan uning ijodida uzluksiz yuksalishlar boshlanadi. Genuyyaga joylashishi bilanoq, tinimsiz buyurtmalar ola boshlaydi. Bu yerda u asosan zodagonlarning portretlarini yaratadi. So'ngra 1627- yili Antverpenga qaytib biroz ishlagach, Angliya qiroli Karl I taklifiga binoan Angliyaga jo'naydi. Bu yerda rassom ijodining koloriti yorqinlasha boradi. Van Deyk o'z muxlislarini ta'sirli, o'ziga qulay ko'rinishda ishlay boshlaydi. U obrazlarni keskin xarakterlab, modelning asosiy xususiyatlarini ustalik bilan jonlantira oladi. Shuning uchun bu asarlar faqat yuksak qimmatga ega bo'lgan badiiy asar sifatidagina emas, balki larixiy-maishiy hunjat sifatida ham qimmatlidir. „Karl portreti" asari ana shular jumlasidan. Badiiy an'anasi bo'lmagan Angliyada Van Deyk ulkan maktabning asoschisi bo'lib, bu yo'nalish XVIII asrda o'zining yuksak darajasiga ko'tariladi. Tantanali aristokratik portretlar ijrochisi Van Deyk uch asr davomida Yevropada shu soha bo'yicha yetakchi san'atkor nomida qoldi.

“Binobarin biz davlatimiz kelajagini o'z qobimizda o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz

istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquq va erkinliklarini , fikirlar rang-barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo bilan tinch-totuv ,erkin va farofon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz".

Karimov.I.A.

Mavzu: **XVII – XVIII ASRLARDA JAHON SAN'ATI**

Reja:

- 1.XVII – XVIII asrlarda yevropa san'ati.
- 2.XVII-XVIII asrlarda italiya san'ati.
- 3.XVII - XVIII asrlarda ispaniya san'ati.
- 4.XVII - XVIII asrlarda fransiya san'ati.

A d a b i y o t l a r

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.,1998
2. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asrga intirlmoqda. T.,1999.
3. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008
4. Abdullaev N. San'at tarixi.T. O'qituvchi, 1987.
5. San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami.T., 1998.
6. Alpatov M.V. Etyud po istorii zapadnoevropeyskogo iskusstva.-M.,1963.
7. Benesh O. Iskustvo Severnogo Vozrojdeniya.-M.,1966.
8. Burkhardt Ya.Kultura Vozrojdeniya v Italii.-M.. 1966
9. Dmitrieva N.A. Kratkaya istoriya iskusstv.M., 1985.
10. Istoriya iskusstvo zarubejnx stran. T. 1-2. M.,1961-1963.
11. Istoriya zarubejnogo iskusstva.Pod red. N.L.Maltsevoy, M.L.Kuzminoy.-M.,1980.
12. Kaziev A.Yu. Xudojestvennoe oformlenie rukopisnoe knigi. M.,1977.
13. Kratkiy slovar terminov izobrazitel'nogo iskusstva.M.,1959.
14. Ocherki po istorii russkogo iskusstva.M., 1954.
15. Polevoy V.M. Iskustva XX veka . 1901-1945. M.,1991.

Ilm-fan taraqqiyoti, jug'rofiy kashfiyotlar, yangi qit'alar, dengiz yo'llari xalqlarning o'zaro aloqasi jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jahon xalqlarining ijtimoiy hayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot birmuncha tezlashdi. Ular ko'pgina o'lkalarni bosib olib, o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlari uchun arzon xomashyo, ishchi kuchi va yangi bozorlar ochilib, ular tez rivojlana boshladi. Bu davrda Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alarida ham qator ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, Sharq mamlakatlarida an'anaviy san'at va

1.Karimov.I.A.Yukcak ma'naviyat-engilmas kuch.T.,2008,114-bet.

madaniyat turlari bilan bir qatorda, san'atning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Amaliy bezak san'atiga yangi davr texnologiyasi joriy qilina boshladi. G'arb va Sharq san'ati an'analari uyg'unligida yangi san'at yo'nalishlari shakllandi.

Jahon ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ro'y bergan bu o'zgarishlarda Yevropa muhim o'rin tutadi. Chunki Sharq va G'arbning san'at sohasidagi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan Yevropa qit'asida feodal jamiyati qoloqligiga, ijtimoiy hayotda dinning hukmron bo'lib qolishiga qarshi chiqish boshlandi. Bu esa yangi munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, Niderlandiya va Angliya bo'lib o'tgan xalq g'alayonlari O'rta asr tartibi va diniy cherkov hukmronligiga zarba berdi. Gollandiya Yevropada namunali kapitalistik davlat tarzida rivojlana boshladi. Lekin feodalizm Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida o'z hukmronligini saqlab qolaveradi. Jumladan, Fransiya va Ispaniyada markazlashgan absoyut monarxiyalar vujudga keldi. Italiya va germaniyada feodal tarqoqlik hukm surdi. Xalq absolyut monarxiya zulmiga norozilik bildirib, bosh ko'tardi. Ilg'or ziyolilar, ma'rifatparvarlar bu qarashlarni qo'llab-quvvatladilar. Ular feodalizm qoloqligini qoraladilar, fikr erkinligi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi chiqdilar. Italiya, Fransiya, Ispaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida eski tuzumga qarshi noroziliklar, xalq g'alayonlari kuchaydi. Bu XVIII asr oxiriga kelib, feodalizmning uzil-kechil inqiroziga sabab bo'ldi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgardi, uning yangi shakllari yuzaga kela boshladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayishi san'at va madaniyatning ijtimoiy hayotda mavqeini oshirdi. Dvoryanlar va cherkov san'at va madaniyatni o'z manfaatlariga bo'ysundirishga harakat qildilar. Lekin jamiyat taraqqiyotini orqaga burish mumkin emas edi. Ziddiyat yanada keskinlashib bordi. Shular zahirida san'atning mafkuraviy kurashdagi roli ortib, uning uslubiy rang-barangligi kengayib bordi.

XVII – XVIII ASRLARDA YEVROPA SAN'ATI

Bu davrda Yevropa san'ati avvalgi an'analardan, eng avvalo, Uyg'unish davri an'analari zaminida kamol topdi. Unda ham inson, uning jismi, xis-tuyg'u, hayol-o'ylari, orzu-istaklari ifodasi asosiy mavzu bo'ldi. San'atkorlar bu davrda inson qiyofasini yanada haqqoniy ko'rsatishga, uning ruhiy xolatidagi murakkabliklarni va uning yangi qirralarini yoritishga intildilar. Inson hayoti, uning turmush tarzini to'laqonli talqin etish shu davr asarlari uchun muhim yo'nalish bo'lib qoldi. Hayot murakkabligi, uning ichki ziddiyat va kurashlari rassom va haykaltaroshlar nazaridan chetda qolmadi. Ozodlik, tenglik g'oyalari kuylandi, shakllanib kelayotgan burjuaziyaning kirdikorlari tanqid ostida olindi. San'at sintezi masalasi bu davrga kelib yangicha talqin etila boshlandi. Tabiat relyefi shu davrda yaratilgan me'morlik majmualarida hisobga olindi. Me'morlik binolari ko'cha, maydon va tabiat bilan yanada uyg'unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralariga qiziqish ortdi. Endilikda san'at turi va janrlari orasidagi nisbatlar ham o'zgardi. Uning yangi tur va janrlari yuzaga keldi. Mavjud an'anaviy syujetlar bilan birga, hayotiy voqealarga bag'ishlangan asarlar ham keng miqyosda badiiy hayotga kira boshladi. Maishiy, manzara va natyurmort janrlari mustaqil san'at turlariga aylandi. Insonning ichki dunyosiga qiziqishning ortishi portret san'atini yangi pog'onaga ko'tarilishiga olib keldi. Grafika rivojlandi. Haykaltaroshlik imkoniyatlari yanada ortib u me'morlik ansambllariga keng ko'lamda kirib keldi, park-bog' san'atida keng qo'llanildi. Dekorativ rangtasvir interyerlarning komponenti sifatida davr ruhini aks ettiruvchi muhim vositaga aylandi. Bu davrga kelib, ijodiy metod, san'atning badiiy tili ham boyidi, rang-baranglik kasb etdi. Yaratilgan kompozitsiyalarning hayotiy va tabiiy ko'rinishiga erishish uning emotsional jihatini oshirishda muhim omil bo'ldi. San'atkorlar ijo dida rang, nur-soya, faktura masalalari muhim o'rinni egalladi. Albatta, bu davrda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy kuchlari bir xil darajada emas edi. Bu davrda madaniyatda qator g'oyaviy-badiiy yo'nalishlarining paydo bo'lishi, avvalo ayni shu xodisa bilan bog'liqdir.

XVII asr "Barokko asri" deb ham yuritiladi. Bu esa, bejiz emas. Chunki davrning g'oyaviy-estetik qarashlari ayni shu uslubda ko'proq o'z ifodasini topdi. San'at tarixida XVII asr me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini ta'riflash uchun qo'llanilgan, keyinchalik tasviriy san'atga nisbatan ham ishlatila boshlangan barokko uslubining belgilari dastlab Italiyada paydo bo'lgan. Vinyola, Palladio me'morlik asarlarida, Mikelanjelo haykallarida, Korrejo dastgoh va dekorativ rangtasvirilarida shu tamoillar namoyon bo'lgan. Barokko uslubiga xos dekorativlilik, nur-soya o'yiniga e'tibor berish va his-hayajonga to'la asarlar yaratish tamoyillari tezda ko'pgina san'atkorlarni o'ziga jalb eta boshladi. Bu

xususiyat G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yoyildi va mahalliy san'at uslubi va an'analari ta'sirida o'ziga xos milliy ruh kasb eta bordi. Jumladan, Ispaniya va Portugaliyada barokko nihoyatda hashamdor, jimjimador edi. Buning sababi, bu yerda mahalliy naqqoshlik san'ati ravnaq topganligidadir. Germaniyada esa barokko gotika ta'sirida rivojlanganligi seziladi. Flandriyada "flamand barokkosi" shakllangan bo'lsa, Fransiyada barokko klassitsizm tamoyillari ta'sirida namoyon bo'ldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, keyinroq, esa Rossiyaga ham kirib keldi.

Barokkoga xos fazilatlar Rim me'morligida o'zining klassik ko'rinishiga erishdi. Barokko interyerlarida dekorativ ranggasvir, haykal va kolonnalar muhim o'rinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi. Tasviriy san'atda barokko ko'proq diniy mavzudagi asarlarda o'zini namoyon qildi. Iso va avliyolarning azob chekishlari, ularni butga mixlash, Bibi Maryamning aza tutishi kabi voqealar barokko uslubida ishlangan asarlar uchun mavzu bo'ldi. Asarning dramatik ekspressiv holati tasvirlanuvchilarning murakkab rakurslarida, nur-soya qarama-qarshiligi va serharakat kompozitsiyada ifoda qilinadi. Fazoviy kenglik masalasi ham o'ziga xos talqin etiladi. U kompozitsiyada yagona majmua tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi. Rang surtmalari ham muhim ifoda vositasi sifatida ishtirok etadi. Agar klassik va Renessans san'atida chiziq muhim o'rin to'tgan bo'lsa, endilikda rang surtmalari, ularning erkin ishlatilishi kompozitsiya dinamikasini oshiritsda muhim o'rin egallab, asar badiiyligini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, kompozitsiyada uzoq va yaqindagi buyumlarni tasvirlashga, obrazlarni murakkab rakurslarda joylashtirishga e'tibor beriladiki, (masalan, uchib ketayotgan, tepadan shiddat bilan tushayotgan kabi), bular ham barokko asarlariga xos jo'shqinlik va harakatni gavdalantirishga xizmat qiladi. Barokko uslubida diniy mifologik syujetlardan tashqari, tarixiy va maishiy mavzularda yaratilgan kompozitsiyalar ham mavjud. Lekin ularda reallik va noreallik qorishib ketadi. Ular bezovtalik, hayajonli va romantik ko'rinishda ifoda qilinadi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub klassitsizm Fransiyada paydo bo'ldi. Uning vakillari aql-idrokni san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona mezon, deb hisoblashgan. Aql-idrokni his-hayajonga qarshi qo'yishgan. Ularning fikricha, aql kuchi bilan yaratilgan asargina haqiqiy san'at asari hisoblanadi.

Klassitsizm uslubi tarafdorlari ham Uyg'onish davri san'atidan ilhomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojaat qiladilar. Shakllarning aniq va elastik tugal, kompozitsiyalarning jiddiy muvozanatli va mantiqiy bo'lishiga e'tibor berdilar. Antik davr mifologiyasi, Tavrotga murojaat qilib, ulardagi syujetlar orqali o'z davrlarining etik-ahloqiy va siyosiy muammolarini ko'tarishga harakat qildilar. Klassitsizm san'atida ham umumlashma asar yaratish asosiy muammo hisoblangan. Lekin barokko vakillari yirik umumlashma mavzudagi asarlarni dinamik kompozitsiyada ifoda etsalar, klassistlarning asarlari birmuncha vazmin, ritm va plastik musiqiylikka intilish asosida yaratiladi. Bu asrga kelib san'at asarlari oliy va kichik janrlarga ajratildi. Tarixiy, mifologik va diniy mavzuda yaratilgan asarlar oliy, komediya, satira va xalq maishiy hayotini aks ettiruvchi janrlar kichik yoki quyi janrlarga ajratilishi shu davrga xos mafkura maxsulidir. Klassitsizm uslubining o'ziga xos jihatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida Italiyada me'morlar Vinyola va Palladio ijodida sezila boshlandi. Klassitsizmga xos xususiyatlar me'morlikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi, mantiqiy rejalashtirilishi va keng ko'lamda antik me'morlik shakllaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Klassitsizm uslubida ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida order tizimi muhim rol o'ynaydi. Me'mor ko'pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagiga xos ifodalashga harakat qiladi. Bunda interyer ham karakterli. Unda ham yaxlitlik va ulug'vor tantanavorlik mavjud bo'lish kerak. Kolonna va devor yuzasi tekisliklari ritmi bu yaxlitlik va tantanavorlik ko'rinishiga xalaqit bermasligi lozim. Mahobatli rangtasvir esa me'morlik yechimining yetakchiligiga xalaqit bermasligi, mayin va nafis ranglar gammasi xonaning ulug'vor va bahavo ko'rinishiga xizmat qilishi lozim. Klassitsizm shahar qurilish san'atida ko'proq Renessans va barokko uslubi tamoyillaridan ijobiy o'zlashtirgan tarzda ko'rindi va rivojlandi. Tabiat ko'rinishlari me'morlik kompozitsiyalarida, majmualarida hisobga olinib, klassitsizmning talablari asosida o'zlashtirildi. Tasviriy san'atda klassitsizmning o'ziga xos jihatlari mavzu tanlashdan tashqari, chiziq plastikasi va faktura harakteriga e'tibor berishda ham ko'rinadi. Chiziqlar-ning musiqiyliigi va tugalligi, fakturaning silliqliigi klassitsizm uslubida ishlangan asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Klassitsizm o'z taraqqiyotida boshqa uslublardan, masalan, barokko uslubidan ham ta'sirlandi, uning ayrim tomonlarini o'zida uyg'unlashtirdi.

XVIII asrda yunon va Rim tarixi bo'yicha qilingan kashfiyotlar, Pompei, Gerkulanum kabi qadimiy shaharlarning ochilishi, nemis olim va san'atshunoslari Gyote va Vinkelmanlarning ilmiy nazariy faoliyatlari klassitsizm uslubi rivojlanishga to'rtki bo'ldi. Antik san'atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr oxiri va XIX asrda esa bu uslub jahon san'atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi. Nafaqat Yevropa, balki Osiyo, Amerika qitalarida ham shu uslubda asarlar yaratildi. XVII asrdan boshlab, avvalo, Yevropa san'atida, keyinroq esa jahon san'atida mavjud borliqni to'laqonli aks ettirishga, davr ruhi va mazmunini ochib berishga asoslangan realistik san'at yo'nalishi asta-sekin yetakchi o'rinni egallay boshladi. San'at yangi mavzu, yangi tur va janrlar bilan boyib bordi. Ular yangi tasvir va ifoda vositalarining yuzaga kelishini ta'minladi. Demokratiyaga asoslangan mamlakatlarda bu yo'nalish o'zini yanada kuchliroq namoyon eta boshladi. Milliy burjuaziya madaniyati shakllangan, feodal hukmronligiga qarshi milliy ozodlik yarakatlari kuchaygan mamlakatlarda realistik san'at yo'nalishi birmuncha yetakchi o'rinni egallay boshladi. Jumladan, ispan absolyutizmiga qarshi milliy ozodlik kurashi Gollandiyada realistik san'atning gurkirab yashnashi uchun zamin tayyorladi. Realistik san'at asarlari kishilarning xis-tuyg'ularini, insonning jismoniy go'zalligi, uning olijanoblighi va yuksak manaviyatini ifodalovchi san'at sifatida shuhrat qozondi. Gollandiyada xalq hayotini to'laqonli aks ettiruvchi maishiy janr paydo bo'ldi, manzara, natyurmort, portret janrlari yuzaga keldi. Rassomlar o'z asarlarida hayotning yangi qirralarini ifoda qildilar. Bu bilan kishilarning estetik idroki yanada boyishiga hissa qo'shdilar. Ularning hayot bilan bevosita aloqador asar yaratishlari rassomlik san'atini yangi pog'onaga ko'tardi.

Albatta, yuqoridagi badiiy-uslubiy yo'nalishlar o'z o'zicha emas, balki bir-biri bilan uzviy munosabatda bo'ldi. Birining ta'siri boshqa birida o'z aksini topdi. Bu o'zgarish va ta'sirlar, eng avvalo, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumi, tarixiy sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'ldi. XVII asrda Italiya, Ispaniya, Flomandiya, Gollandiya va Fransiyada milliy badiiy maktablar mavjud edi, Skandinaviya mamlakatlari, Angliya, Germaniya, Avstriyada esa xali yuzaga kelmagan edi. Bu mamlakatlardagi notinchlik, turli urushlar (30 yillik urush) bunga asosiy sabab bo'ldi. XVIII asrga kelib vaziyat birmuncha o'zgarib, yangi munosabatlar yuzaga kela boshladi. San'at ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari bilan uzviy bog'liq holda rivojlana boshladi. Voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lish, illatlarni tanqid qilish kuchaydi. Uslublarning o'rni ham o'zgara bordi. Barokko uslubi o'zining so'nggi rivojlanish bosqichini kechira borib, ko'p joylarda o'z o'rnini rokkokoga bo'shatdi. Realistik yo'nalish esa klassitsizmga qarshi kurashda o'z mavqeini oshirib bordi. Me'morlikda ham o'zgarishlar sezilarli bo'ldi. Cherkov qurilishi kamaydi. Aksincha, uy-joy me'morligi jonlandi. Shaharni rejalashtirish masalasi me'morlikdagi muhim masalalardan biriga aylandi. Turar joylarning yangi tiplari vujudga keldi. Shaharda ma'muriy binolarning majmualari paydo bo'ldi. San'atda san'at sintezi masalasi birmuncha susaydi. Haykaltaroshlik va rangtasvirning mahobatli shakllari o'rnini dastgoh san'ati egallay boshladi.

Amaliy va dekorativ san'ati buyumlarita ehtiyoj o'sdi. XVIII asrga kelib, milliy maktablar ham ko'paya boshladi. Fransiya badiiy maktabi Yevropa san'atida yetakchi o'ringa chiqdi. Angliyada san'at rivojlandi, Italiyada Venetsiya badiiy maktabi, Germaniyada o'ziga xos nemis san'ati ravnaq topib, ular jahon madaniyati taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi. Rossiya ham bu davrga kelib, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi.

XVII-XVIII ASRLARDA ITALIYA SAN'ATI

XVI asr o'rtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy harakatlari Ispaniya g'alabasi bilan tugadi. Italiyaning ko'pgina shaharlari uning tasarrufiga o'tdi. XVII asrda Italiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi xukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari homiyligida dabdabali hayot kechirish, serhasham, serjilo binolar, saroy va qasrlar qurish, tantanali karnavallar o'tkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. Ular davlat hamon avvalgidek qudratli, xalq tinch, ozod va shodu-xurramlikda hayot kechirmoqda, degan fikrni uyg'otishga harakat qildilar. San'at vositalari orqali o'z ob ro'larini oshirishga intildilar. Ular cherkov binolari, saroylar, shahardan tashqarida serjilo va serhasham villalar qurdilar. Bu qurilishlar, ayniqsa, katolitsizm markazi bo'lgan Vatikanda serhasham bo'ldi. Papa davlati hasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jihatdan tarqoq va qaram, iqtisodiy jihatdan qashshoq Italiya XVII- XVIII asr mobaynida Yevropadagi muhim markaz sifatida dong chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy-uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy hayotning muhim markazi, baynalminal internatsional akademiya rolini o'ynadi. Antik va Renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda kuxna va yangi san'at aralashib, maxalliy va chet el san'ati an'analari ta'sirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Me'morlikda hajm jihatidan katta, shakl jihatidan serjilo va ko'rkam binolar yaratildi. Interyerlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi. Qurilgan binolar ko'p hollarda gumbazli bo'ldi. Me'morlikda, asosan, barokko uslubi yetakchi o'rinni egalladi. XVIII asr o'rtalarida ayrim ijodkorlar asarlarida klassitsizm tamoyillari sezilsa ham, lekin yetakchi emas edi. Italiya me'morlari shahar ko'cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o'rta asr shahar ko'rinishiga xos tugallik va ko'rkamlik kiritdilar Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shahar maydonlari badiiyliigi va emotsionalligini oshirdi. Shahar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak-atrof relyefi hisobga olinib, majmualar yaratildi. Tepalik va soyliklarga haykaltaroshlik hamda amaliy san'at asarlari o'rnatilib yagona me'morlik majmuasi vujudga keltirildi. Barokko me'morligida bino old tomoniga alohida e'tibor beriladi va uning dekorativ jihatdan ta'sirchan bo'lishi hisobga olinadi. **Rimdagi Del Jezu cherkovi** barokko namunasi. **(Rasm.) Rimdagi Del Jezu cherkovi** uni me'mor **Jakomo da Vinyola** (1507-1573) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi Jakomo della Porta bu ishni tugatgan. Qo'sh plyastr, valyuta, favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar va hajmlar binoning old tomoniga o'ziga xoslik baxsh etgan.

San-Karlo cherkovi ham barokko uslubining o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun va relyeflar bino yuzasidagi nur-soya o'yinini kuchaytirib, uning yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan.

(Rasm.) San-Karlo cherkovi. Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyandasi me'mor **Franchesko Borrominidir** (1599-1667). U o'z ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Ba'zida xatto meyoridan oshirib ham yuboradi. Bu esa u yaratgan asarlardagi yaxlitlikka salbiy ta'sir qiladi. Me'mor interrlarning badiiy yechimida ham shunday dekorativ bezak va haykallardan keng foydalanadi.

Jovanni Lorenzo Bernini (1598-1680). Barokko san'atining yirik vakili, me'mor va haykaltarosh Bernini Neapol shahrida tug'ildi. Shu yerda otasidan san'at sirlarini o'rgandi. 9 yoshida marmarda odam boshi haykalini ishlab, ko'pchilikni hayratlantirdi. 25 yoshda esa katolik Rimning mahobatli binosi avliyo Petr ibodatxonasining bosh me'mori darajasiga ko'tarildi. U ko'plab me'morlik va haykaltaroshlik asarlari yaratdi. Rassomlik va san'at nazariyasi bo'yicha tadqiqodlar yozdi. Me'morlik loyihalari, ibodatxona va saroylar, qabrtosh yodgorliklari ishladi. Bernini haykaltarosh sifatida ayniqsa mashhur bo'lib, barokko haykaltaroshligining tipik vakilidir. Bernini nodir portret va ta'sirchan ruhiy kompozitsiyalar yaratdi va bezash ishlarida qatnashdi. Rimdagi avliyo Petr soborining oldidagi katta maydon va uni o'rab turgan ustunlar qatori Bernining shoh asaridir. Me'mor bu asari bilan avliyo Petr sobori qurilishiga yakun yasadi sh yagona yirik mahobatli me'morlik majmuasini yaratdi. XIV asrda qurila boshlangan. Uni qurishda Modern, Bramante, Mikelandjelo ishtirok etishgan. Bernini ana shu mashhur ibodatxona old tomonida favvora va obeliskli maydon yaratib, uni ustunlar qatori bilan ulug'vorlashtirdi. Natijada, sobor ko'rinishidagi tantanavorlik ortdi. Bu maydondan ibodatxona yaxlit va ulug'vor bo'lib ko'rinadi. Ibodatxonaning ikki tomonidan tomoshabinga qarab kelayotgan ustunlar qatori keluvchilarni "go'yo quchog'ini ochib" (L. Bernini) kutib olayotgandek bo'ladi. Maydon badiiy plastik-vizual tashkil etilishi, ayniqsa, e'tiborga molik. Maydon trapetsiya va ellipsimon maydonchalardan tashkil topgan. Bu ikki maydonchada idrok etilganda gorizontalki tekistlikdagi trapetsiya va ellips go'yo va aylana bo'lib ko'rinadi. Bundan maydon hajmi kattalashayotgandek tuyuladi. Bernini bunday uslubdan o'z ijodida Vatikandagi qirol saroyi asosiy zinasida ham foydalangan. Uning orqa planidagi ustunlar oralig'i va zina kengligi biroz qisqargan holda ishlanib, uning fazoviy uzunligini oshirishga, zinani o'z o'lchamiga nisbatan yanada kattaroq bo'lib ko'rinadigan bo'lishiga erishgan. Bernini fuqaro me'morligida ham samarali mehnat qildi. Uning Rimdagi Sant-Andrea del Kvirinale, Barberini palatssiosi mashhurdir. Bernining dekoratorlik san'ati Avliyo Pyotr ibodatxonasining ichki

interyerlarining ichki interyerlarida o'z ifodasini topgan.

Bernini XVII asr Italiya haykaltaroshligining yirik vakili va novatori edi. Uning "David", "Avliyo Tereza jazavasi", "Appalon va Dafna" asarlari, ayniqsa, mashhurdir. Jumladan, David haykalida Davidning jangga kirib, qo'lidagi toshni dushmanga otish oldidagi vajohati juda hayotiy tasvirlangan. Davidning keskin burilgan gavdasi, tarang tortilgan mushaklari, qattiq qisilgan labi, to'zib ketgan sochi va bir nuqtaga tikilgan ko'zlarida uning ruhiy holati aks etgan. "Avliyo Tereza jazavasi" kompozitsiyasi ham ta'sirchan. Tereza VI asrda yashagan real tarixiy shaxs bo'lib, u keyinchalik cherkov tomonidan avliyolar qatoriga kiritilgan. Rivoyatlarga ko'ra, Tereza tush ko'rganligi va tushida odam qiyofasidagi go'zal farishta kelib, uning yuragiga oltin kamon o'q bilan yuragidan urganida "oromli azob" olganligini yozib qoldirgan. Kompozitsiyada Terezaning tush ko'rayotgan paytida, farishta uni oltin o'q otmoqchi bo'lib turganligi tasvirlangan. Bu kompozitsiya Rimdagi Santa Mariya della Viktoriya cherkovi mehrobiga o'rnatilganyu bernini portret san'atida ham novator ijodkor edi. Uning portretlarida tasvirlanuvchining harakteri nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan. Uning portretlarida tasvirlanuvchining harakteri nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan. Uning yaratgan portretlari borokko uslubida ishlangan haykaltaroshlar uchun taqlid maktabi vazifasini bajargan. Bernini o'z ijodida borokko yo'nalishining o'ziga xos hamma xususiyatlarini namoyon etdi. Voqelikni real talqin etish, uning dekorativ jihatlarini his etish Bernini ishlariga betakror joziba bahsh etgan. Bernini yaratgan **Kardinal Borgez haykali** barokko san'atining yuksak namunasi. Unda plastik tarzda ayrim shakllarini bo'rttirish hisobiga ta'sirchanlikka erishilgan. Marmar, bronzada yuksak mahorat bilan ishlashi uning asarlaridagi o'ziga xoslikni yanada oshirgan. San'atkor ijodining bu kabi jihatlarini uning asarlariga qiziqish ortishiga, uning Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi.

Italiya san'atida XVII asrda rangtasvir ham borokko uslubida rivojlanib, u XVI asr ohiri XVII asrda mavjud bo'lgan manyerizmga qarshi kurashda yuzaga keldi va Bolonye akademizmi hamda karavajizm yo'nalishida namoyon bo'ldi. Ikkisida ham borokkoga xos xususiyatlar dramatiklikka qiziqish, emotsional, his-hayajon tili bilan gapirish, dinamik kompozitsiya, nur-soya qarama-qarshiligidan keng foydalanish mavjud. Lekin mazkur yo'nalishlar o'ziga xos uslubi bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, Bolonye akademizmi naturani o'rganish hamda uni antik va Renessans bilan solishtirish va ular yaratgan kanonlarga o'xshashiga asoslanadi. Karavajistlar ijodida esa realistik jihat kuchli bo'lib, ular naturani o'rganadilar. Ular naturaning tub mohiyatini aniq ko'rsatishga intiladilar. Mifologik va diniy mavzularni oddiy xalq hayoti voqeligida, undagi obrazlarni esa oddiy kundalik turmushida uchraydigan kishilar obraziga o'xshatishga harakat qiladilar. Nur, soya imkoniyatlaridan unumli foydalanib, asarning emotsional jihatini oshiradilar. Italiya san'atida borokko uslubi, ayniqsa, mahobatli dekorativ rangtasvirda sezilarli bo'ldi. Saroy va cherkov binolari devorlari serharakat, ko'p figurali, murakkab rakursli yorqin bo'yoqlarda ishlangan mifologik va diniy mavzudagi rasmlar bilan bezatildi. Ayniqsa, shiplarga ishlangan rasmlar o'zining nihoyatda dinamik va hayajonli kompozitsiyalari bilan kishini hayratlantiradi. Rasmlardagi fazoviy kenglik va cheksizlik, undagi aks etgan voqealar asarga dinamik harakat baxsh etadi.

Pyetro da Kartona (1596-1669) o'z davrining mashhur rassom va me'morlaridan biridir. Uning ijodida Italiyada rangtasviriga xos borokko namoyon bo'lgan. Uning Rimdagi palatssiosi shipiga ishlangan rasmlari nihoyatda ta'sirchan va serbezakdir. Rassom o'z asarlarida perspektivaning illyuzion imkoniyatlari va fazoviy kenglik, nur-soyaning kuchidan unumli foydalanadi. Shu jihatdan, u keyinchalik Yevropa mahobatli-dekorativ rangtasviriga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Shuni aytish kerakki, borokko asarlari tashqi tomonidan qanchalik ta'sirchan, dinamik bo'lmasin, ularda ta'sirlangan obrazlardagi ichki tug'yon sust ekanini qayd etmay bo'lmaydi.

Bolonye akademizmi. Italiyada tashkil etilgan badiiy maktablardan biri Bolonye akademiyasi yo'nalish tamoyillarini zida namoyon etadi. Bu maktabning asoschilari **aka-uka Karrachilar (Lodoviko, Agostino, Annibale)** bo'lib, ular shu yangi yo'nalish asoslarini ishlab chiqdilar. Ular XVI asr mumtoz san'atini va, ayni chog'da, naturani o'rganish zarurligini uqtirdilar. Ularning fikricha, natura (borliq) go'zallik qonunlari asosida ko'rib chiqilishi lozim edi. Ideal va go'zallik qonunlarini esa, ular yuqori Uyg'onish davri san'atida ko'rdilar. Ular, aniqrog'i, Lodoviko de-Karrachi 1585 yili Bolonyeda "Akademiya Inkamminata", ya'ni to'g'ri yo'lga qadam qo'yayotgan Akademiya, deb nomlangan o'quv dargohini tashkil etdi. Lyudoviko to'g'ri o'qitish va tarbiyalash orqali rasm

chizishga qobilyati bo‘lmagan qo‘uvchini ham yaxshi rasm chizadigan mutaxassis qilib tarbiyalash mumkin, deb targ‘ib qildi va o‘zi shunga amal qildi. Bu o‘quv yurti keyinchalik Italiyada va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan badiiy akademiyalarning ham ibtidosi bo‘ldi. Akademiyada amaliy mashg‘ulotlar bilan birga, nazariy fanlar yagona pedagogik tizim asosida olib borilar edi. O‘quvchilar perspektiva, anatomiya, tarix, mifologiyani o‘rganib, antik davr haykallaridan qalam va rangda nusxa olardilar. Bular so‘zsiz, rassomlarning ixtisoslik mahoratini o‘shiga, realistik san‘at taraqqiyotiga muhim xissa qo‘shdi. Biroq ular merosga nisbatan idealistik munosabatda bo‘ldilar. O‘tmish madaniyati va san‘ati erishgan yutuqlarni yetib bo‘lmas namuna, deb bildilar. Bu esa o‘tmishga taqlid qilish, ulardan nusxa ko‘chirish yetakchi bo‘lib qolishiga, realistik san‘atning esa ikkinchi darajali bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi. Aka-uka Karrachilar mahobatli-dekorativ va dastgoh rangtasvirda samarali mehnat qildilar. Saroy va cherkovlarga diniy va mifologik mavzuda kompozitsiyalar ishladilar. Karrachilar orasida, ayniqsa, **Annibale Karrachi** (1560-1604) o‘z iste’dodi bilan ajralib turgan. U novator san‘atkor sifatida san‘at tarixida iz qoldirgan. Uning ijodi Yevropa san‘ati tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Annibale Karrachining manzara janridagi ijodi ham salmoqli. Mumtoz manzara san‘ati uning nomi bilan chambarchas bog‘liq. U bu san‘atning asoschilaridan biri sanaladi. Aka-uka Karrachilar ijodi, ularning izlanishlari yosh ijodkorlarni o‘ziga ergashtirdi. Ular oraisda Gvido (1575-1642) ijodi alohida ajralib turadi. Karrachi asarlaridagi mumtoz manzaralarga xos hayotiylik va bevositalilik uning ijodidagi tashqi ta‘sir va obrazlarning shartlilik bilan uyg‘unlashadi. Shuni aytish kerakki, Italiyada XVII asrda rasmiy uslub qanchalik yetakchilik qilmasin, ko‘pgina rassomlar hayotiy, realistik asarlar yaratishga harakat qildilar. Ularning bu intilishlari keyinchalik Yevropa realistik san‘ati, jumladan, rangtasvirning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Bunda, shubhasiz, **Mikelanjelo Merizi da Karavajo** (1573-1610) ijodi alohida o‘rin tutadi. “Karavajizm” deb nomlangan badiiy yo‘nalishga asos solgan bu san‘atkor qisqa umr ko‘rganiga qaramay, yangi davr, realistik san‘ati yetakchi tamoyillarini rivojlantirib, Yevropa realistik san‘at taraqqiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Italiya va boshqa mamlakatlarning ko‘pgina san‘atkorlari ham uning izidan ergashdilar va “karavajistlar” degan nom oldilar. Barcha davrlar rassomlari ijodiga Karavajo asarlari samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Karavajizm Yevropa realistik san‘ati taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Lombardiyaning kichik karavajo shaharchasida me‘mor oilasida dunyoga kelgan bu san‘atkor, tasviriy san‘at asoslarini dastlab Milanda o‘rgandi. U Shimoliy Italiya rassomlari ijodidan ta‘sirlandi. Taxminan 1590 yillarda Rimga ko‘chib keldi. Bu yerda rassomlarga yordamchi bo‘lib, ishlab kun ko‘rdi. So‘ng o‘z asarlarini sotishga ham muvaffaq bo‘lib, yirik asarlar ishlay boshladi. U o‘z ijodida xalq hayotiga murojaat qildi, yoshlar, masharaboz va lo‘lilar hayotidan kompozitsiyalar yaratdi. Yevropa san‘atida birinchi bo‘lib natyurmort (“Mevali savat”, 1596) janrida mustaqil asar yaratdi. Karavajoning dastlabki yirik asarlaridan biri “Lyutna chaluvchi” (1595) bo‘lib, u rassom ijodining o‘ziga xos jihatlari, uning rangtasvir san‘atidagi islohotlarini namoyon etadi. Bu islohotning mohiyati, avvalo, rassomning real borliqni haqiqiy san‘at manbai deb bilish bilan bog‘liqdir. Lekin musavvir borliqni aynan ko‘chirmaydi, balki eng muhim karakterli tomonlarini bo‘rttirish, kuchaytirish hisobiga xodisalarni ta‘sirli san‘at shakli darajasiga ko‘taradi. Musavvirning har bir buyum xususiyati va fakturasini ishonarli tasvirlashi esa asarning ta‘sirchanligini oshirib, uning mazmunini chuqurlashtiradi. Obrazdagi ruhiy xolat, chiziqdar plastikasining go‘zalligi, nur-soya o‘yinining birmuncha keskinligi asarni oddiy hayotdan ko‘chirma emasligini bildirib turadi. Rassom o‘z asarlarida nur-soya qarama-qarshiligiga ham e‘tibor beradi. Asosiy obrazlarni yorug‘lantirish hisobiga birinchi planga chiqarish, orqqa planning ko‘pincha to‘q-qoramtir gammada hal etilishi kompozitsiyaga o‘ziga xos fazoviy kenglik beradi. Rassomning bu uslubi, keyinchalik Yevropa san‘atida “yerto‘la rangtasviri” deb nomlangan rangtasvirning rivojlanishiga zamin yaratdi. Rassom natyurmort va hayotiy-maishiy mavzularida qo‘llagan usullarini diniy mavzudagi kompozitsiyalar ishlashda ham qaytaradi. “Matveyning kasbi”, “Apostol Matveyni azoblash”, “Tobutga solish” kabi asarlarida ham shu xolni ko‘rish mumkin. Rassom diniy voqealarni hayotiy voqea va xodisalarga, avliyolarni oddiy kishilarga o‘xshatib ko‘rsatishga intiladi. Bu buyurtmachilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Hatto, uni javobgarlikka tortishdi. “Apostol Matvey ixtirosi” (1559-1585), “Tobutga solish” (1601-1603) kabi yirik asarlari hayotiy voqea tasvirlanganday taasurot uyg‘otadi. Nur-soya qarama-qarshiligi esa asardagi voqeani yanada bo‘rttirib, fojiali, dramatik ko‘rinish beradi. Odamlarning xatti-harakati, ruxiy holatlari kompozitsiyaning yanada hayoti va to‘laqonli bo‘lishini ta‘minlaydi.

XVII asr davomida Italiya G'arbiy Yevropada yetakchi badiiy markaz bo'lib keldi. Bu yerda paydo bo'lgan ko'pgina yangi jarayonlar boshqa mamlakatlarga ham yoyildi. Karavajo va Balonye akademizmi, barokko uslubi ko'pgina ilg'or ijodkorlarga samarali ta'sir qildi. Italiya rassomligida barokko uslubi **Domeniko Fetti va Salvator Roza** ijodida seziladi. Fetting yorqin rangdor asarlari, Rozaning mungli romantik asarlari shu oqimning so'nggi, ko'rinishlarini namoyon etadi.

XVII asr so'nggi choragidan boshlab, Italiya barokkosida dekorativlilik kuchaya bordi. Murakkab rakurslar va harakatlar sun'iy ko'tarinkilik bilan yaratilgan asarlardan o'z ustunligini ko'rsata boshladi. Hayotiy-realistik jarayonlar ayrim rassomlar ijodida namoyon bo'ldi. Jumladan, **Aleksandr Manyaskoning** romantik rux bilan sug'orilgan manzaralari, Juzeppe **Korespining** monumental va dastgoh rangtasvirlari buning yorqin misolidir.

XVIII asrga kelib, Italiya tashqi xurujlar ta'sirida zaiflashdi. Iqtisodiy jihatdan qashshoqlashib, uning ko'pgina shaharlari chet el bosqinchilari qo'lga o'tdi. Faqat Papa oblasti hamda Venetsiya respublikasi o'z siyosiy mustqilligini saqlab qola oldi. Rim va Venetsiyadagi badiiy hayot esa barokko uslubida ishlangan hashamatli me'morlik bino va majmualarida (M: Ispaniya zinasi, 1721), tantanavor serjilo xristian bazilikalarida, ajoyib favvoralarida, xis-hayajonga to'la devoriy va dastgoh suratlarida o'z ifodasini topdi. San'atkorlar Uyg'onish davri san'ati hamda barokko ustalarining ilg'or an'alarini davom ettirib, Italiya san'atining shuhratini oshirdilar. Bunda Venetsiya rassomlik maktabining roli, ayniqsa, katta bo'ldi. Bu maktab rassomlari o'z ijodlari bilan Yevropa san'ati taraqqiyotida ham muhimrol o'ynadilar.

Jovanni Battisto Tyepolo (1696-1770). Venetsiya rassomlik maktabining yutuqlari Tyepolo ijodida mujassamlashdi. U Italiya san'ati yutuqlarini ijodiy o'zlashtirib, barokko uslubini yanada mukammallashtirdi. Hayotlik vaqtidayoq katta shuhrat qozongan bu rassom juda ko'p mahobatli dekorativ va dastgoh suratlar yaratgan. Rassomning his-hayajonga to'la, serharakat kompozitsiyalari uning voqelikning illyuzion tasvirini ishlashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi. Kompozitsiyada odamlarning murakkab rakurslardagi holatlari, fazoviy bo'shliqning mahorat bilan tasvirlanishi asarning ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'uyndi. Rassomning ilk asarlari o'zining nihoyatda boy fantaziyasi, besaranjom shakllar harakati, nur va soyaning keskin olinishi va dekorativ xususiyatlari bilan esda qoladi (masalan, Venetsiyadagi Dolfino saroyi devor va shiplariga ishlangan rasmlar turkumi). XVIII asr o'rtalaridan rassom dastxatida erkinlik va ekspressiya kuchayadi, rang tizimida nozik qochirimlar va o'yin paydo bo'ladi. Asarlari yorqinlashdi. Venetsiyadagi Jezuat va Skalsi cherkovlari shiftiga ishlangan rasmlar shu jihatdan e'tiborli. Tyepolo boshqa mamlakatlarda ham ishladi. Jumladan, Madridda ispan qiroli saroyini bezadi. Tyepolo dastto'ham san'atda ham qator asarlar yaratdi. Ular ishlash texnikasining yuksakligi, obrazlarning his-hayajonga to'laligi bilan esda qoladi ("Amfitritazafari", "Munajjimlar ta'zimi" va boshq.).

XVIII asr Venetsiya san'atida atrof ko'rinishlarini aks ettiruvchi manzara janri (veduta) keng yoyildi. Bu janrda ishlagan rassomlar shahar va uning atrofi ko'rinishini tipografik aniqlikda tasvirlashni o'zlarining asosiy maqsadlari deb bildilar. Ana shu janrda samarali ijod qilgan rassomlardan biri **Kanalletto** nomi bilan mashhur bo'lgan **Antonio Kanale** (1697-1768) hisoblanadi. U o'z asarlarida shahar kanal va maydonlarini, odamlarga to'la gandolalarni, Venetsiyaning o'ziga xos nam havosini, nurga to'la maydonlari, gandolalar harakati bilan jonlangan kanallarni nihoyatda aniq va shoirona tasvirladi. Shahar hayotidagi muhim voqealarni aks ettirdi (masalan, "Fransuz elchisining Venetsiyaga kelishi"). Bu yillarda manzara janrida rassom **Bernaro Belotto** (1720-1785) ham ijod qildi. U Saksoniya va Polshada ijod qildi. Bu rassom me'morlik majmualarini juda nozik his etgan holda, tabiat qo'ynida tasvirladi. XVIII asr Italiya san'atining so'ngi yirik vakili **Franchesko Gvardi** (1675-1785) bo'lib, u manzara, maishiy va tarixiy janrlarda ijod qildi. Lekin manzarachi rassom sifatida shuhrat qozondi. U ko'proq Konaletto ishlagan mavzularda rasm chizdi. Bu rasmlar hajm jihatidan katta bo'lmasa ham, lekin o'zining rang surtmalarini erkin ishlatishi, yorqin ranglari va nozik poetik kayfiyat ifoda qilishi bilan chuqur taassurot qoldiradi.

XVIII asrda Rim. Vezuviy vulqonining otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompey va Gerkulanum shaharlarining ochilishi antik san'at va madaniyatga qiziqishni oshirib yubordi.

Nemis sat'atshunosi **Iogann Ioxim Vinkelman** (1717-1768)ning "Qadimgi san'at tarixi" kitobi bu qiziqishni yanada oshirdi. Arxeolog, graver va me'mor, qalamsuratlar ustasi Jovanni Battista Piranezi (1720-1778)ning gravyuralari ham yevropaliklarning antik san'at to'g'risidagi bilimlarini

kengaytirdi. Natijada, Rim nafaqat Italiya, balki Yevropaning ham badiiy markaziga aylandi. Shu boisdan "Rim mukofoti" ni ta'sis etdilar. Rimda fransuz, nemis, daniya, rus va boshqa xalqlar rassomlari o'z malakalarini oshirdilar.

XVII - XVIII ASRLARDA ISPANIYA SAN'ATI

XVII asrning 80-yillaridan XVIII asrning 80-yillariga qadar bo'lgan davrda ispan san'ati o'zining eng gullagan "oltin" davrini boshidan kechirdi. Bu rivojlanish, ayniqsa, teatr va adabiyotda (Servantes, Lone de Vega), tasvirii san'atning dastgoh rantasvirida yorqin namoyon bo'ldi. Me'morlik va haykaltaroshlik san'atida ham ayrim salmoqli asarlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq, bu san'at turlari yetakchi o'ringa ko'tarila olmadi.

San'atning asosiy buyurtmachisi katolik cherkov va dvoyanlar edi. Bu uning mazmuni va mavzusini chegaralar edi. Diniy syujetlar asosiy o'ringa chiqdi. Hayotiy mavzudagi san'at borasida esa portret san'ati yetakchilik qildi.

Xusepe de Ribera(1591-1652). XVII asr birinchi yarmida Ispan san'atida yorqin iz qoldirgan rassomlardan biri Ribera edi. U Ispaniyaning shu davrdagi realistik san'atining muhim madaniyat o'chog'i bo'lgan Valensiyada tug'ilib, shu yerda rassomlik sirlarini o'rgandi. Uning ijodkor bo'lib yetishida Italiya bo'ylab sayohati muhim rol o'ynadi. Bu yerda Italiya ustalarining san'atini o'rgandi. Unda Karavajoning asarlari chuqur taassurot qoldirdi. Ribera ijodida diniy mavzu yetakchi o'rin tutadi. Mifologiya, portret janrida ijod qildi. Lekin rassom qaysi mavzu yoki janrda ijod etmasin, hodisalarni doim real, hayotiy talqin etadi. Portretlarda o'z davri kishilari obrazlarini yaratadi. Ribero ham El Greko singari avliyolar, darvesh va gadolarning tasvirini ishlaydi. Ularning obrazlari aniq ifoda etiladi. Rassom hikoyanavislikka ko'proq e'tibor beradi, tasvirlanayotgan har bir obrazni aniq ko'rsatishga harakat qiladi. U o'zining bir figurali kompozitsiyalarini, odatda, bevosita real borliqdan etyud ishlab, uni umumlashma obraz darajasiga ko'tarishga intiladi. Asardagi yorug'-soya qarama-qarshiligi rassom dastxatining to'laqonli ko'rinishini ta'minlaydi. Rang surtmalarining erkin va quyuq ishlatilishi uning asarlariga plastik kuch bag'ishlaydi, obrazlardagi ulug'vorlikni oshiradi. Bular Riberani Karavajoga yaqinlashtiradi. "Avliyo Varfolameyni qiynash" (1630) rassomning ilk asarlaridandir. Bu asar rassom ijodiga xos xalq vakillarini to'laqonli ko'rsatishi va ifodning jo'shqinligi bilan e'tiborni jalb etadi. Rassom sodir bo'layotgan voqea fojiaviyligini aniq va ta'sirchan ifoda etadi. Tasvirlangan qiyofalardagi ekspressiya, rassom dastxatining harorati asar dinamikasini kuchaytiradi. Rassom odam gavdasini yuksak mahorat bilan tasvirlash orqali o'zining yorug'-soya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish qobiliyatini namoyon qiladi. Uning bolalarga bag'ishlangan asarlari ham o'zining samimiyligi bilan ajralib turadi. "CHO'loq bola" asari, ayniqsa, e'tiborlidir. U nogiron bolaga nisbatan chuqur samimiylik va hurmat bilan ishlangan bu asarda optimistik ruh mavjud. Rassom sho'x, hatto, biroz qitmir bola obrazini ishonarli talqin etadi. Rassomning ijodiy kamolotga erishgan yillarda yarattan asarlarida ranglarning bir-biriga o'tishi mayin, ularning koloriti yorqin. Yorug'lantirishda tabiiylik kuchayib boradi. "Avliyo Onufriy" (1627), "Avliyo Inessa" (1641) kabi asarlari shu jihatdan e'tiborlidir. Rassom tasvirlanuvchining ichki kechinmalarini lirik ruhda tasvirlashga harakat qiladi. Uning kompozitsiyalaridagi kenglik havo bilan to'la boshlaydi. Bu obrazni yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Franchesko Surbaran (1598-1664). XVII asr ispan realistik san'atining rivojlanishida Franchesko Surbaran ijodi alohida o'rin tutadi. Sevilyada tug'ilib o'sgan Franchesko keyinchalik o'z yurtining bosh rassomi unvoniga sazovor bo'lgan. Uning ijodida XVII asr badiiy ideali o'z ifodasini topgan. U ispan realistik san'atining rivojlanishiga samarali hissasini qo'shgan. Surbaran diniy mavzularda ham suratlar chizgan va ularda o'z davrining hayoti to'g'risida hikoya qilgan. Uning kompozitsiyalari sodda. Yaratgan obrazlari oddiy. Rassom kompozitsiyalar uchun o'z zamondoshlarining qiyofasini tanlaydi. Naturadan rasmlar ishlab, tasvirlanuvchining ruhiy holatini, tasvirlanayotgan buyumlarning fakturasini aniq ko'rsatishga harakat qiladi. Rassomning ijodiy metodi uning afsonaviy avliyo Boneventuri hayotiga bag'ishlangan turkum asarlarida yorqin ko'rinadi. Surbaran shu asarlar turkumini yaratish uchun o'z davrining monastirlaridan birini tanlagan. U yerdagi hayotni tasvirlagan. Rassom portret va natyurmortlarda ham yetuk asarlar yarattan.

Diyego de Silva de Mariya Velaskes (1599-1660). G'arbiy Yevropaning yirik rassomi Seville

qashshoqlasha boshlagan dvoryan oilasida tug'ilgan. Shu yerda Pacheko degan rassom qo'lida dastlabki ma'lumot olgan. Pacheko romantizm vakili, Rafael tarafdori bo'lgan. Velaskesning ilk asarlarida o'qituvchisi ta'siri seziladi. U ko'proq realistik san'atda ijod qiladi. Uning "Nonushta", "Suv sotuvchi" asarlari juda ta'sirchan yaratilgan. Rassom diniy mavzularda asarlar ishlay boshlagan ("Munajjimlar ta'zimi"-1619). 1623 yili Velaskes Madrid shahriga borgan. U yerda portretchilik bilan shug'ullangan. Yosh qirol Filip IV portreti unga katta shuhrat keltirgan. U qirol saroyi rassomi bo'lib tayinlangan. Portret uning ijodida yetuk o'rin egalladi. 1620 yilda uning ijodida erkinlik paydo bo'la boshlagan. "Vakh" yoki "Ichuvchilar" shunday asarlardan biridir. 1629 yili Italiyaga sayohatga borgan. Titsian, Tintoreto, Veroneze ijodi bilan yaqindan tanishgan. XVII asrdan boshlab, inson mehnati go'zalligi san'atkorning diqqatini torta boshlagan. San'atkorlar mehnat mavzuida yirik asarlar yarata boshlagan. Yevropa san'atida D.Velaskes birinchi bo'lib mehnat go'zalligini shoirona, ko'tarinki ruxda talqin etgan. Uning "Gilam to'quvchilar" deb nomlangan asari ana shulardan dastlabkisidir.

Rassom oddiy kundalik mehnat timsolida insonlarning baxt haqidagi orzularini ko'ra olgan. Kompozitsiyadagi obrazlarning mehnat qilishlari, ularning jismoniy baquvvat gavdalari ishonarli talqin etilgan. Xonani to'ldirib turgan nur esa tinch osoyishta hayot go'zalligini ko'rsatgan. Velaskes tarixii voqealarni aks ettiruvchi asarlarni yaratgan. Yevropada realistik tarixni janr rivojlanishiga katta xissa qo'shgan. Uning "Breda shahrining topshirilishi" asari shunday tarixiy voqeaga bag'ishlangan. Unda Gollandiya qal'asini ispan qo'shinlari tomonidan zabt etilshni tasvirlanadi. Rassom dramatik voqeani gavdalanitirgan. Ispan qo'shinlarining qo'mondoni Spinola mag'lubiyatta uchragan Gollandiya qo'shinlari qo'mondoni tomonidan ramziy kalitni olayotgan payt tasvirlangan. Rassom har bir tasvirlanuvchining ruxiy holatini aniq ko'rsatishga harakat qilgan. "Kalit topshirish" akti orqali olijanoblik ulug'lanadi. 1630-40 yillarda Velaskes portret san'atida mashhur asarlar yaratdi. Ularda insonning boy ichki dunyosi yuksak mahorat bilan aks ettirilgan. "Innokentiy X portreti" (5-rasm) jahon realistik san'atining nodir yodgorligi hisoblanadi. Unda tomoshabinga qarab turgan Rim papasi Innokentiy tasvirlangan. Portretda qattiqqo'l va ayyor, shu bilan birga, dono va ziyrak shaxs qiyofasi ko'rsatilgan. Velaskes buyuk san'atkoridir. U o'z asarlarida xalqparvar g'oyalarni ilgari so'rgan, oddiy kishilarga bo'lgan zo'r muhabbatini shoirona talqin etgan. Velaskes oddiy kishilar hayotiga murojaat qilib, unda go'zallikni ko'ra oldi. Shuning uchun ham bu asarlar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Rassom o'z qahramonlarini bo'rttirmay, ularni qanday bilsa shunday tasvirladi. Bu ham uning portretlarini rang-barang bo'lishiga xizmat qilgan. Velaskes valyor rangtasvirida asarlar yaratgan dastlabki rassomlardandir. Uning asarlarida iliq va sovuq ranglar o'yini, nur va rang tovlanishlari alohida joziba baxsh etgan. O'rinli topilgan rang surtmalari esa asar fakturasiga o'ziga xoslik kiritgan. Uning rang va nur sohasidagi kashfiyoti keyinchalik Yevropa san'ati tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bartolome **Esteban Murilyo** (1617-1682). XVII asr ispan san'atining so'nggi vakili Murilo diniy va hayotiy mavzularda rasmlar ishlagan, portretlar chizgan.

U ispan realistik san'atiga xos an'analarni saqlashga harakat qilgan holda, mungli lirik asarlar yaratdi. Murilyo realizmi ko'proq janrli kompozitsiyalarda ko'rinadi. Lekin ular bir muncha mungli, g'amgin ("Misr yo'lidagi dam olish" 1665-70, "Bola kutargan Madonna" 1670). Rassom bolalarga atab ham kompozitsiya ishlagan. Ularda bolalarga xos samimiylik, sho'xlik va beg'uborlik ulug'lanadi ("Meva ko'targan bola" 1645). Murilyo asarlarida hikoyanafislik mavjud. Ularda hayotiy voqealar ta'sirchan gavdalanitirilgan.

XVII - XVIII ASRLARDA FRANSIYA SAN'ATI

XVII asrga kelib, monarxiya tuzumi mustahkamlandi. Viloyatlar markazga bo'ysundirildi. Absolyutizm o'zining mumtoz ko'rinishini namoyon etdi. Bu mamlakatda burjua munosabatlarining rivojlanishi, uning iqtisodiy mustahkamlanishini ta'minlab, Fransiyaning Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi. Bu davr "buyuk asr" (Volter) nomi bilan tarixga kirdi. Monarxiya dvoryan va burjua guruhlariga tayangan holda, shakllanib kelayotgan burjua jamiyatining feodalizm bilan kurashishda kuchli qurol vazifasini o'tadi. Milliy madaniyatda ko'tarilish yuz berdi. Dekart, Gassend kabi ijodkorlar yetishib chiqdi. Karnel, Rasin, Molyer kabi yozuvchilar Fransiyaning dunyoga

tanitishdi. Musiqa, tasviriy san'at, me'morchilik borasidagi yutuqlar keyinchalik Yevropa san'ati rivojida muhim rol o'ynadi. 1648 yili rassomlik va haykaltaroshlik qirol akademiyasi, 1671 yilda esa me'morchilik akademiyasining tashkil etilishi san'at ravnaqida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Klassitsizmning rasmiy badiiy-adabiy uslub sifatida e'tirof etilishi san'atining ravnaq topishida muhim rol o'ynadi. Bu uslub rivojlanishiga Dekart falsafasi, Gassend qarashlari ta'sir etdi. XVII asr shahar va shahardan tashqarida kurshgan me'morlik majmualari, qirol va zodagonlarning qarorgoh va saroylari, burjuaziya boylarining o'ylari klassitsizm uslubining rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Mashhur Luvr saroyining sharqiy tomoni ko'rinishi (me'mor R. Perro, 6-rasm), Versal saroy-bog' majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar hamda jamoat binolari qurildi.

XVII asr birinchi yarmi san'ati uslub jihatdan ham rang barang. Unda bir tomondan Italiya renesansi va barokko ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan klassitsizm paydo bo'la boshlagani bilinadi. Qirolicha Mariya Medichi uchun qurilgan Lyuksemburg saroyi, ayniqsa, diqqatga loyiq. Mansar, Lui Levo, Jak Lemerse kabi me'morlar shu davr yo'nalishlarini o'z ijodida belgilab berdilar.

Odatda XVII asr fransuz san'ati ikki davrga ajratib o'rganiladi. Bu Fransiyaning siyosiy ahvoli va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jumladan, XVII asrning birinchi yarmida hali absolyut monarxiya to'la hukmronlikka eringmagan, keng omma jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etmagan edi. Bu san'atda turli oqim va yo'natishlarni keltirib chiqdi, turli mavzu va ishlash usullari bo'lishini ta'minladi. Qirol saroyi bilan bog'liq. va rasmiy badiiy Hayotda yetakchi o'rinni egallagan san'atkorlar ijodida dekorativlik va serhashmlik hamda jimjimadorlikka intilish kuchaydi. Voqelikni birmuncha ideatlashtirib ishlashga intitish ular ijodida barokko san'atining nafislashib borayotgan ko'rinishini namoyon etdi. Bu jihatdan, **Simon Vue** (1590-1649) ijodi muhim o'rinni egallaydi. Saroy rasmiy san'atining yirik vakili va yo'lboshchisi Vue yoshlik yillarda Italiyada yashab Karavajo ta'sirida bo'ldi. Lekin keyinchalik uning ijodida Balonye maktabi ta'siri yetakchi o'rinni egallab, kamolga erishgan davrdagi asarlarining karakterli jihatiga aylandi. Rassom afsona va Bibliyaga murojaat qilib, ulardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi ("Avliyo Yevotafiyani jazolash", "Gerakl Olimp xudolari orasida"). Vue asarlarini o'ziga xos ta'sirchan qilib ishlashga intiladi. Shu maqsadda u obrazlarni ideallashtirishga, ishlatilgan buyum va shakllarning nafis va jimjimador bo'lishiga, ranglarning serjilva bo'lishiga g'oyat e'tibor beradiki, bu uning yaratgan asarlari kompozitsiyasining ko'p so'zli, koloritini esa g'alati bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin shunga qaramasdan uning asarlari kupchilik tomonidan zur qiziqish bilan kutib olindi, saroy va umuman fransuz rassomlari tomonidan e'tirof etiddi. Unta taklid kiluvchilar kupaydi. Shu tarzda, Vue ijodi ta'sirida fransuz san'atida barokko san'ati tamoyillari keng yoyildi.

Realistik san'at ravnaqi bevosita fransuz jamoasining demokratik tabaqasi san'atkorlari ijodi bilan bog'liqdir. Fransuz realistlari o'z asarlarida xalqning kundalik turmushiga murojaat qildilar, alohida kishilarning karakterini ochishga intildilar. Bu rassomlarning ko'pchiligi fransuz viloyatlaridan chiqqan va saroy aristokratik san'atidan bir qadar uzoqda bo'lishgan. Bu esa ular asarlariga o'ziga xos qaytarilmas mazmun baxsh etib, fransuz realistik san'atining rang-barangligini belgilagan.

Jak Kallo (1592-1635). XVII asr fransuz realistik san'atining birinchi yirik vakili, grafik va qalam suratlar ustasi, ofortchi Kallo edi. U Fransiyaning Nansi viloyatida tug'ilgan, tasviriy san'at asarlarini boshqa ko'pgina fransuz san'atkorlari singari Italiyada o'rgangan. U dastlab Rimda yashagan. So'ngra Florensiyada Toskan Gersogi saroyida rassom bo'lib ishlagan. Uning asarlari mavzusi keng va rang-barang. Diniy mavzuda yaratgan asarlari salmoqli o'rinni egallaydi. Lekin florensiyaliklar hayotiga bag'ishlangan asarlari uning ijodining muhim jihatini belgilaydi. Florensiyada Kallo "Kaprichchi" (1617) deb nomdangan dastlabki grafik asarlari turkumini yaratgan. Bu turkumda u florensiyaliklar turmushiga bag'ishlangan rang-barang hayotiy lavhalarni tasvirlagan. Rassom o'z obrazlarining esda qoladigan va ifodali bo'lishiga harakat qilgan. "Tilamchilar", "Bukrlar" deb nomlangan asarlar turkumi hamda italyan komediyalari personajlarini aks ettiruvchi asarlari uning ijodining ilk namunasi sanaladi. Ular o'zining hayotiyiligi, detallarining jonliligi bilan ajralib turadi. ("Florensiyadagi yarmarka"). Kallo Italiyada 13 yil (1608-1621) yashab, ijodiy kamolga erishgach, o'z yurtiga qaytadi. Xalq hayotini aks ettiruvchi jiddiy va chuqur mazmunli asarlar yaratadi. Oddiy kishilarning og'ir turmushini o'z asarlarida achinish bilan ifodalaydi. Kallo ijodining so'nggi davrida yaratilgan asarlar ichida "Urushning katta va kichik talofotlari" (1630) asarlari turkumi ajralib turadi. Bu asarlarida rassom urush fojiasini va keltirgan talofotlarni yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Bu bilan

u o'zining real voqelikka tanqidiy munosabatlarini namoyon qiladi. Urush, xalqda jabr-zulm ekanligini, harbiylarning talonchiligi va vahshiyligini qoralaydi (masalan, "Fermaga hujum"). Kallo ijodining so'ngi davrida manzara janriga murojaat qiladi. U o'z manzaralarida havoga va nurga to'lgan bepoyon kengliklarni ustalik bilan tasvirlaydi. Havo perspektivasi imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Kalloning realistik manzaralari keyinchalik fransuz realistik manzara rassomligi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ko'pgina fransuz san'atkorlari italyan rassomlari, jumladan Karavajo va uning davomchilari ijodiga hurmat bilan qarab, ularning ishlash uslublarini o'z ijodlariga tadbiq etdilar. Ular xoh diniy, xoh hayotiy mavzuda bo'lmasin, halq obrazini to'laqonli realistik yaratishga, hayot xodisalarini aniq tasvirlashga harakat qildilar.

Bunday rassomlar orasida **Jorj de Latur** (1595-1652) ijodi alohida ajralib turadi. U diniy va hayotiy mavzuda ko'pgina asarlar yaratdi. Tungi oy nuri yoki sun'iy yorug'lashtirishni gavdalantirib, suratlar ishladi. U ishlagan har bir surati to'laqonli, hajmli, salmoqli bo'lib chiqishiga harakat qilgan va buning uchun nur imkoniyatlaridan juda o'rinli foydalangan.

XVII asr fransuz realistik san'atida aka-uka Lenenlar ijodi o'ziga xos o'rin tutadi. Uch aka-uka **Lenenlar** (Antuan 1588-1648, Lui 1595-1648, Mate 1607-1677) hamkorlikda turli syujetlarda rasmlar ishladilar. Maishiy janr esa ular ijodida yetakchi o'rinni egalladi. Lui Lenen fransuz san'atida dexqonlar hayotiga bag'ishlangan janrni boshlab bergan rassom hisoblanadi. Uning asarlari o'zining hayotiyliigi, kompozitsiyasining soddaligi bilan ajralib turadi.

XVII asr o'rtalari va ikkinchi yarmidan boshlab fransuz san'atida klassitsizm asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. **Nikola Pussen** (1594-1665) klassitsizmning yirik vakili sifatida uning butun imkoniyatlarini ro'y-rost namoyon qildi. N.Pussen Fransiyaning shimoliy shaharchalaridan birida harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Tasviriy san'at asoslarini shu yerdagi rassomlardan o'rgandi. 1610 yil boshlarida Pussen Italiya bo'ylab sayohat qildi, uyg'onish davri san'ati namunalari bilan tanishdi. Ayniksa Rafael ijodi unda katta taassurot qoldirdi. Rassomning diniy voqealarga ishlagan suratlarida barokko ta'siri seziladi ("Avliyo Erazmanini jazolash", "Butdan tushirish"). Aksincha uning mifologiya asosida ishlagan suratlarida Titsianga xos rang his qilish hayotni to'laqonli anglash seziladi. Bu suratlar ko'tarinki ruhda chizilgan. Yozuv uslubi ham erkin, koloriti iliq, nurga boy. Shu davrda yaratilgan mashhur asarlaridan biri "Uxlab yotgan Venera" da rassom ijodiga xos xususiyatlar o'z ifodasini toptan. 1620 yil oxirlaridan boshlab, Pussen ijodida klassitsizmning o'ziga xos tomonlari ko'rinsa boshladi. Ishlagan asarlarida obrazlarni ideallashtirish va kompozitsiyani aqlidrok orqali tartibga keltirishga intilish seziladi (masalan, "Germanikning o'limi" 1627, "Go'daklarni o'ldirish", "Tankred va Erminiya" 1630). "Tankred va Erminiya" asarida rassom Amazonka Erminiyaning o'z raqibi yaralangan ritsar Tankredga nisbatan uyg'ongan muhabbati tasvirlanadi.

Asarda yaralangan Tankredni juda ehtiyotkorlik bilan ko'tarayotgan Badrin (Tankredning do'sti) va oq otidan tushib, o'z qilichi bilan sochini kesib, yarador Tankredning yarasini bog'lash uchun harakat qilayotgan Erminiya ko'rsatiladi. Asarda ikki qarama-qarshi obraz bir tomondan, hayotdan ko'z yumayotgan Tankred va ikkinchi tomondan, hayajonlanayotgan Erminiya hatti-harakatlari ta'sirchan ifoda qilingan. Tankred va uning do'sti ustidagi temir niqob va hilpirayotgan Erminiya kiyimlari asarning dramatikligini oshiradi. Botib borayotgan quyoshning shafaq nurlari esa bo'lib o'tgan voqealardagi qayg'uni bildiradi. Pussen ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri voqelikni harakatda tasvirlashdir. Bu rassom harakatini "gavdaning tili" deb ta'riflaydi. Rassom gavda harakati, yuzda bo'ladigan mimik o'zgarishlar, imo-ishoradan shaxsning ichki dunyosini ta'riflashda foydalanadi. 1630 yillarga kelib, Pussen ijodida hayot to'g'risidagi mungli falsafiy qarashlar namoyon bo'la boshladi. Inson hayoti nihoyatda qisqa va o'tkinchi ekanligini achinish bilan ifodalaydi. "Arkad cho'ponlari" (1632) asarida bu yaqqol seziladi. Surat syujeti qadimgi afsonalardan olingan bo'lib, rassom unga falsafiy mazmun bergan. Qabr toshidagi "Men ham Arkadiyada bo'lgan edim" degan yozuv yosh cho'ponlarni o'ylantirib qo'ygan. 1640 yil oxirlariga kelib, Pussen manzara janriga murojaat qila boshlaydi. Tabiat ko'rinishidagi ulug'vorlik, bepoyonlik, sirga to'la holat rassomni hayajonlantiradi. Pussen tabiatni odamlarsiz tasavvur eta olmaydi. Rassom asarlarida tabiatni ulug'vor va cheksizligini ifoda qiladi. Ularda inson va tabiat uyg'unligi, inson tabiat oldida kichik zarra ekashshgi talqin etiladi. Pussen ijodining so'nggi bosqichi namunasi "Polifemli manzara", "Gerkules va Kakus jangi", "Manzara" asarlari hisoblanadi.

Gerkules va Kakus jangi" asari syujeti I asr Rim yozuvchisi Vergiliyning "Eneida" poemasi

olingan. Unda antik qahramon Gerkulesning Kakus bilan bo'lgan jangi hikoya qilinadi. Kompozitsiyada tabiat ko'rinishi asosiy o'rinni egallaydi. Mahobatli tog', baland daraxtlar, osmondagi bulutlar ulug'vor, tabiat ko'rinishini yaratadi. Shu tabiat qo'ynida tasvirlangan Gerkules va mag'lubiyatga uchragan Kakus ko'rinishi bu ulug'vorlikni buzmagandek. Rassomning yil to'rt fasliga bag'ishlangan asarlari inson hayotining to'rt fasl ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Pussen ijodida qalamsurat ham alohida o'rin tutadi. Bu suratlar bo'lajak asarning yaratish paytida ishlangan bo'lib, rassom har bir asari kompozitsiyasi ustida uzoq vaqt ishlaganligini va kompozitsiya yaratish borasida izlaganligini ko'rsatadi. Uning qalam suratlardagi tabiat ko'rinishlari tasviri tasdiqlaydi. Pussen ijodi fransuz san'ati tarixida muhim o'rinni egallaydi. U yaratgan mumtoz uslub fransuz san'atida keyingi asrda davom etdi, rivojlantirildi. Pussen vafotidan keyin shogirdlari qolmagan bo'lsa ham, lekin XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab, ko'pgina rassomlar uning ijodiga qiziqish bilan qaray boshladi. Uning haqiqiy davomchisi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarda yashab ijod etgan Jak Lui David bo'ldi.

Klod Lorren (1600-1682). Klassitsizmning yirik vakili, klassik manzarani taniqli namoyandasi Klod Jelle (Lorryon uning adabiy taxallusi) yoshligida Italiyaga kelib qolldi. Keyingi hayoti Rim bilan bog'liq bo'ldi. Lorren asosan klassik manzarada ijod qilgan. Uning manzaralari lirik xis tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ular ko'p hollarda mungli kayfiyat tasvirlanadi. Rassom asarlarda tabiat tinch holatda ko'rsatiladi. Uning asarlarida yarim vayrona bo'lgan antik yoki afsonaviy me'morlik qoldiqlari ko'rkam daraxtlar fonida g'oyat jozibali ko'rinadi.

Lorren klassik manzara san'atining vakilidir. Uning kompozitsiyalari aniq tartibda ishlangan. Lekin bu uning realistik harakteriga putur yetkazmaydi. Rassom havoga to'la bepoyon kenglikni ustalik bilan ko'rsatadi. Undagi nur va soya tovlanishlarini mahorat bilan gavdalantiradi. Rassomning "Tong", "Tush payti", "Kechki payt" asarlari o'ziga xos rang tizimida yechilgan. Lorren qalamsurat san'atida ham samarali ijod qildi. Uning naturadan ishlagan suratlari hamda ofortlari o'zining hayotiyliigi bilan ajralib turadi va rassomning kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Rassom klassik manzara janrining mukammal ko'rinishini yaratdi. Uning ijodi keyinchalik fransuz va Yevropa san'atiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

Filipp de Shampen (1602-1674) portret san'atida samarali mehnat qilgan san'atkorlardan. Asli finlandiyalik bo'lgan bu rassom yoshligida Parijga kelgan. Rassomning keyingi hayoti shu yerda o'tgan. U o'z ijodida flamand rangtasviri yutuqlarini, Pussen hamda balone akademizmi an'alarini uyg'unlashtirishga intilgan. Shampen tematik kompozitsiyalari diniy mavzuda bo'lib, ularda rassom har bir asarining tashqi ta'sirchanligiga e'tibor beradi. Uning portretlari ham chuqur mazmunli, haqqoniy ishlagan. Kardenal Reshele portreta mashhur. Rassomning ko'pgina yarim belgacha chizilgan portretlari o'zining chuqur psixologizmi, jiddiyligi va ma'nododligi bilan e'tiborni tortadi.

Lyudovik XIV (1661-1715) podsholik qilgan davrda ham absolyutizm o'zining eng mukammal ko'rinishiga erishdi, ham inqirozga yuz tuta boshladi. Dastlabki yillarda absolyutizm ma'lum ma'noda mamlakatning milliy iqtisodiy jonlanishi, manufaktura sanoatini rivojlanishi uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik u mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga asta-sekin to'sqinlik qila boshladi.

Lyudovik XIV olib borgan urushlar hamda saroy kiborlarining haddan tashqari serxashamlikka intilishi, tantanali bayramlari, turli marosimlari xalqning ahvolini og'irlashtirdi, g'alayonlarni keltirib chiqardi. Biroq Lyudovik XIV davri san'at va madaniyatga kuchli ta'sir ham ko'rsatdi. Agar XVII asr birinchi yarmida san'atda turli oqim va yo'nalishlar bo'lishiga imkoniyat bo'lsa, keyinchalik esa faqat absolyutizmni ulug'lash va unga sajda qilish san'atning bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Chunki, klassitsizm bu davr mafkurasi uchun mos tushdi va shu davrning asosiy uslubi bo'lib qoldi. Lekin bu yo'nalishdagi asarlarda klassitsizmga xos ulug'vorlik, tantanavorlikdan ko'ra xis-hayajonga to'la barokko ta'siri kuchli bo'ldi. Klassitsizm davrning asosiy yo'nalishiga aylanishida 1648 yilda tashkil etilgan Badiiy Akademiyaning roli ayniqsa sezilarli bo'ldi. Akademiya bu davrda absolyutizm targ'ibotchisi sifatida mamlakat badiiy hayotiga xukmronlik qildi. U san'at ustidan nazorat olib boradigan va uni rivojlanishini boshqaradigan muassasaga aylandi.

"Yuksak" va "tuban" janrning yuzaga kelishida akademiya asosiy rol o'ynadi. Tarixiy janrda yaratilgan asarlar yuksak janrdagi asarlar sifatida maqtaldi. Aksincha, oddiy hayotiy voqealarni ifodalovchi san'at asarlari "tuban" janrdagi asarlar qatoriga kiritildi. Mifologiya, allegorik syujetlar asosida ishlangan, diniy va tarixiy mavzudagi asarlar o'z-o'zidan yuksak janrga mansub deyildi. Bu

asarlarni antik san'at an'alariga, Rafael, Balone akademizmi, Pussen an'alariga taqlidan ishlash asos qilib olindi. Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan va san'atni "tartibga" solish sohasidagi bu qonun-qoidalar davr san'atida yagona yo'nalish bo'lishiga va san'atda rang-baranglikning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Bu davrga kelib, me'morlik yetakchi san'at turiga aylandi. Absolyutizm hashamatli va katta me'morlik majmualari orqali sharaflandi, san'atning boshqa turlari ham shu yo'nalish bilan bog'lyq holda rivojlandi. Aristokratiyaning nafis amaliy buyumlarga bo'lgan talabini qondirishga qirol Gobelen manufakturasi muhim rol o'ynadi. Bu yerda qirol saroyini bezash uchun zarur uy-anjom buyumlari, mebel, shpaler va boshqa buyumlar ishlab chiqarildi. Bu buyumlar qirol saroyi zodagonlarini buyurtmasi va talabi asosida bajarildi. Me'mor, haykaltarosh, rassom va amaliy san'at ustalarining hamkorlikda ishlashlari bu yillarda san'at turlari o'zaro uyg'unlikni ta'minlab, ajoyib me'morlik majmualari namunalari yaratilishiga sabab bo'ldi. Hiyobon-bog' (park) san'ati ravnaq topishi keyinchalik Yevropa san'atining, rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. XVII asr fransuz me'morchiligining nafis yodgorligi Versal' saroyi majmuasi (1603-1689) Lyudovik XVII ning qarorgohi edi. Lui Levo (1604-1670) hiyobon-bog' san'ati ustasi Andre Lenotr (1613-1700) tomonidan boshlangan va me'mor Jyul Ardruen Mansar (1646-1708) tomonidan tugallangan bu majmua absolyutizm g'oyalari qirol hokimiyatining abadiyligini aks ettiradi. Bu g'oya majmua kompozitsiyasining yechimida namoyon bo'ladi. Ansambl markazida qirol qarorgohi saroyi joylashgan bo'lib, u tevarak atrofidagi maydonni o'ziga bo'ysundiradi va yaxlitlashtiradi. Uning atrofidagi tabiat aniq, simmetrik reja asosida tashkil etilgan. Saroyning old tomoni serjilo va sodda, binolari esa tantanavor va sipo qilib ishlangan. Saroyning markaziy binosida qabulxona va bal o'tkazishga mo'ljallab qurilgan xonalar dekorativ bezakka boy. Saroyning markaziy xonasi qirolning yotoqxonasi bo'lib, unga boradigan zallar bezatilishiga alohida e'tibor berilgan. Sayilgohning rejasi ham qat'iy yagona o'q atrofida qurilgan, uning asosiy hiyoboni atrofida favvora va haykallar simmetrik asosida joylashtirilgan. Markazdagi katta xovuz esa unga tugallik bergan. Bronza va marmardan ishlangan haykaltaroshlik asarlari sayilgohga ko'tarinki ruh kiritgan. Bu haykallar dekorativ maqsadda ishlangan.

XVII asrning ikkinchi yarmida fransuz haykaltaroshligi ko'proq dekorativ va park san'ati bilan bog'liq holda rivojlandi. Fransuz plastikasining ana shu rivojyaanishi fonida yirik fransuz haykaltaroshi, rassom va me'mori **Per Pyuje** (1620-94) ijodi ajralib turadi. Pyuje o'z ijodini yog'och o'ymakorligi bilan boshlagan. Italiya bo'ylab kezgan, Rim va Florensiyada ijod etib yashagan. Mikelanjelo, Bernini, Kartona ijodidan ta'sirlangan. Uning ilk asari Tulondagi ratusha peshtoqi uchun ishlangan haykalidir. Unda paxlavonning balkon balyustradasini ko'tarib turgan paytidagi ko'rinish dramatik talqin etilgan. Haykaldagi dekorativ detallarning boyligi, hajmlarning ifodali va yoqimli nur soyasida tovlanishi uning ta'sirchanligini oshirishda muhim o'rinni egallagan. Paxlavonlarning bo'rtgan mushaklari, baquvvat gavdalari hamda qiyofalari san'atkorning ishonarli bo'lishiga, o'z kompozitsiyalarining hayotiy bo'lishiga intilganligidan dalolat beradi. "**Dam olayotgan Gerakl**" haykalida ham jismoniy kuchli kishi qiyofasi yuksak mahorat bilan ishlangan. Pyujenning Versal uchun ishlangan Milinli Kraton" haykalida inson azob uqubati va unga bardoshi emotsional kayfiyatda talqin etilgan. Qo'li daraxt yorig'iga kirib qolyshi hisobiga sherdan yengilib halok bo'layotgan kuchli atlet fojeasi hayajonli va dramatik talqin etilgan. Uning hatti-harakatida sharoitdan bu dahshatli vaziyatdan qutlishga intilish ko'rsatiladi. Uning qiyofasi, gavda va qo'l mushaklarining taranglashganligi va gavdaning kuchli harakati undagi kuch- qudratni ishonarli namoyon etadi. Umrini so'ngida yaratilgan bu asar, so'zsiz san'atkorning yuksak asarlaridan hisoblanadi. Saroy aristokratiyasi Pyuje ijodini unchalik qadrlamagan. Uning ijodi faqat XVIII asrdagina ko'pgina haykaltaroshlar tomonidan sevib o'rganildi. Uning yutuqlari rivojgantarildi.

Ranggasvir. Lyudovik XIV davri uslubining tipik vakili, qirolning birinchi rassomi, akademiyaning prezidenti **Sharl Lebryon** (1619-90) rangtasvir san'atida samarali mehnat qildi. Haykaltarosh oilasida tug'ilgan, Semyon Vue ustaxonasida so'ngra Italiyada Pussen qo'lida o'qigan rassom tezda fransuz san'atida badiiy diktator vazifasini o'tay boshladi va o'z ijodi bilan davr badiiy hayotining mazmun va yo'nalishini belgiladi. Uning ijodida devoriy rasm yetakchi o'rinni egallaydi. Uning kompozitsiyalari o'ta dinamik, jimjimador va manzarali. Rassom hayotiy voqealarni jimjimador rang naqqoshligi bilan uzviy bog'lab ishlaydi. Bu uning ishlarini dekorativ manzarali jihatini yanada oshirib yuboradi. Rassom ko'pgina saroylarni bezashda qatnashgan. Luvr, Vofle, Vikont va Versal

uchun devoriy suratlar ishlagan. Bu suratlarda Lyudovik XIV faoliyatiga bag'ishlangan kompozitsiyalar uchraydi. Rassom qalamsurat va kompozitsiyaga alohida e'tibor beradi. Kolorit esa uning e'tiboridan birmuncha chetda qoladi.

XVII asr ikkinchi yarmida tantanavor rasmiy portret sohasida ko'pgina rassomlar (masalan, G.Rigo, N.Lerjiler kabilar) samarali ijod qilib, keyingi Yevropa portretchiligiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Mifologik va allegorik portretlar yaratildi. Bu davr fransuz portretchiligida dekorativ tamoyillar va barokko kuchli bo'lsa ham, lekin asr ohirida bu birmuncha susaygani va hayotiy va tabiiy kompozitsiyalar paydo bo'lgani seziladi. Bu davrning yirik portretchilari Giatsiot Rigo (1659-1743) Nikola Lerjiler (1656-1746) ijodi alohida ajralib turadi. Bu har ikki rassom ijodi keyingi asr portretchilik san'atiga katta ta'sir qildi. XVII asr oxiriga kelib, absolyut monarxiya o'z kuchini yuqota boshladi. Lyudovik XIV olib borgan siyosat xalqning kuchli g'alayoniga sabab bo'ldi. San'atda ham klassitsizm o'z mavqeini yo'qota bordi. Xalq hayotiga qiziqish kuchaya bordi. Bu esa realistik san'at rivojlanishiga, uning janrlari kengayishiga, mavzusining rang-barang bo'lishiga zamin yaratdi.

Lyudovik XV (1715-1774) hukmronlik qilgan yillardan to burjua inqilobining boshlanishiga qadar bo'lgan davr (1789), odatda ma'rifatparvarlik asri deb yuritiladi. Bu davrda olim, yozuvchi va faylasuflarning katta guruhi yashab, ijod etdi. Ular voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lishni, har bir narsaga aql bilan yondashishni yoqlab, "azob" chekayotgan insoniyat tomonida turib kurashga otlandilar. Kishilarni hayotga ziyraklik bilan qarashga chaqirib, aql qudrati bilan ijtimoiy tuzum kamchiliklarini tuzatsa bo'ladi, degan fikrni ilgari surdilar. San'at orqali "komil insonni" tarbiyalash masalasiga e'tibor berdilar. Ular zamonaviy san'at mavzularini shu talab asosida tahlil etdilar. San'atning demokratik yo'nalishi va uning ta'sirchanligini ma'kulladilar. Uning tarbiyaviy ahamiyatini qadrladilar. Ma'rifatparvarlarning bu qarashlari realizm rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

XVIII asr fransuz san'ati taraqqiyoti ham ikkiga ajralib o'rganiladi. XVIII asr birinchi yarmi san'ati saroy ahllari va kiborlarning talabi va didi bilan bog'liq. Ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan san'at asarlari, ishq-muhabbat mavzusi bu davr san'atida keng o'rinni egallaydi. Me'morlik, amaliy san'atda esa nafislik va jimjimadorlikka intilish yaqqol seziladi. San'atning bu xususiyati bevosita shu davrning asosiy uslubi "rokkoko"(o'ynohi)da yaqqol seziladi. Lekin bu yo'nalish uzoq yashamadi. Burjuaziyaning mustahkamlana borishi, san'atning keng jamoatchilikka mo'ljallab ishlanishi uning demokratik yo'nalishni kuchaytirib yubordi. Realistik yo'nalish mustahkamlandi.

Me'morlik. Absolyutizmning susayishi yirik saroy qurilishlarining deyarli to'xtashiga olib keldi. Endilikda burjuaziya yuqori tabaqalari talabi va ishtiyoqi asosida shinam binolar qurish odat bo'lib qoldi. Binoning maqsadga muvofiq bo'lishiga, qulayligiga alohida e'tibor berila boshlandi. Burjuaziyaning uchinchi tabaqasiga mo'ljallangan ko'p xonali turar joylar qurilishi avj oldi. XVIII asrning 20-yillarida yuzaga kelgan rokkoko uslubi 30-40-yillarda o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Me'morlik ansamblarida jimjimadorlikka e'tibor berish kuchaydi. Rokkoko uslubida qurilgan binolarda klassitsizmga xos aniq simmetriya o'rini assimetriya, "tartibsizlik"egallay boshladi. Binolarning tashqi ko'rinishini jiddiy va sipo qilgan holda xonalarni bezashga e'tibor ortdi. Endilikda binolar, ularning xonalari uchun olingan nisbatlar ham yengil va nafislikka ega bo'la boshladi. Xona ichki qismi yengil "pastel" rangida ishlangan naqshi, mifologiyadan olingan kichik-kichik suratlar bilan bezatildi. Xonalarning keskin burchaklari ham yo'q qilinib, o'rini yoy shakli egallay boshladi. Jermen Bofor.Me'mor Jermen Bofforning (1667-1754) intererlari bezatilishi va harakteri jihatidan rokkoko uslubining shu o'ziga xos tomonini namoyon etadi. Tanlangan buyumlar (mebel, shkaf va boshqalar) ham xona harakteri va bezagiga moslangan. XVIII asr o'rtalaridan boshlab, rokkoko uslubi kompozitsiyalarining haddan ortiq murakkabligi, jimjimadorligi tanqidga uchray boshladi. Me'morlarni endilikda ko'proq yunonlarning jiddiy va sodda me'morlik san'atlari qiziqтира boshladi XVIII asr me'morchiligiga xos uslublar ehtiyotkorlik bilan boyitilib klassitsizm o'ziga xos jihatlarini mustahkamlay bordi.

Jak Anj Gabriel (1699-1782) dastlabki ijodida ilk klassitsizmga xos jihatlar ko'rini boshlaydi. Gabrielning yirik asarlaridan biri Parijdagi "Murosa maydoni" (1751-1769) bo'lib, unda me'morning novatorligi namoyon bo'ladi. Bu dastlabki ochiq maydonlardan bo'lib, Sena daryosi yoqasiga joylashgan va katta bir ansamblni markazlashtirish va tashkil etish uchun foydalanilgan. Maydondan uch tomonga nur singari yo'l ketgan bo'lib, Gabrielning maydon qurish uslubi keyinchalik rivojlangan

klassitsizm davrida me'morlar tomonidan keng qo'llanildi. Versal parkidagi "Kichik Trianon" deb nomlangan qurilma ham Gabrielning muhim asarlaridan bo'lib, u klassitsizmning dastlabki namunasi hisoblanadi. Tabiat bilan uzviy bog'liq holda qurilgan bu binoda hamma narsa aniq, jiddiy va sodda, detallar nisbati va karakteri nafis va jozibador. Asr o'rtalarida ijtimoiy binolar, jumladan teatr, savdo markazlari va shunga o'xshash binolar ko'plab qurildi. Parijda dastlab Parij homiysi avliyo Jenevevlar cherkovi uchun mo'ljallangan, keyinchalik Fransiyaning mashhur kishilari maqbarasiga aylantirilgan "Panteon" me'mor Jak Jermon Suffloning (1716-1780) eng katta qurilmalaridandir. Klassitsizmning yorqin namunasi bo'lgan bu bino rejasi but shaklida bo'lib, u baraban ustiga o'rnatilgan katta gumbaz bilan tugallanadi. Baraban atrofi ustunlar bilan o'ralgan, binoning old tomonida olti ustunli frontonli peshayvon qurilgan. Bino kompozitsiyasi piramidal bo'lib, tepaga ko'tarilgan sari uning detal va qismlari kichrayib, yengillashib borayotgandek tuyuladi. Bu butun binoga vazminlik va xotirjamlik baxsh etadi. Bino devoriga alohida e'tibor berilgan. Haykaltaroshlik, monumental rangtasvir san'ati hamda me'morlik hajmlari uni ko'rkam bo'lishini ta'minlagan.

Me'morlik intereri bilan bog'liq jarayonlar tasviriy va amaliy san'atda ham o'z ifodasini topdi. Jumladan, rangtasvir san'atida shakllangan rokkoko uslubi dekorativ va dastgoh san'atda o'zini namoyish etdi. Devor, shift tepasiga ishlangan suratlar, gobelen kompozitsiyalari ko'ngil ochishga mo'ljallangan mavzular bilan to'ldirildi. Dekorativ rangtasvirda odam qomati dekorativ unsurga aylana bordi va mayinlik xislatini ifodalashga bo'ysundirildi. Rassomlar oqish, kulrang, pushti, tovlanuvchi oltinsimon ranglarning tuslanishiga e'tibor berdilar. Biroq rasmlarning mavzusi birmuncha chegaralangan. Ishq-muhabbat, oqsuyaklarning ko'ngil ochishi va dam olishini tasvirlovchi asarlar yaratildi. Pastoral janrida (tabiat qo'ynida erkin, farog'atda yashayotgan cho'pon yigit va qizlar hayotiga bag'ishlangan manzaralarini aks ettiruvchi janr) kompozitsiyalar yuzaga keldi. Ideallashtirilgan, nafis, mifologiya kahramonlariga o'xshatib ishlangan portretlar ishlandi. Barokko san'ati rivojlanishi bilan realistik san'at ham o'z mavqeini mustahkamlab bordi. Portret, manzara, natyurmort, maishiy janr sohasida hayotiy ta'sirchan asarlar yaratildi. Fransuz san'atidagi ana shu rang-baranglik rassom va haykaltaroshlarni goh antik dunyoga, goh Gollandiya, goh Venetsiya ijodkorlariga murojaat etishga da'vat etdi.

Antuan Vatto (1684-1721) XVIII asrning yirik rangtasvir va qalamsurat ustasidir. U o'z asarlarida nozik tuyg'ularni, xissiy kechinmalarni poetik ruxda tasvirladi. Vattoning ilk ijodi davrida hayotiy mavzuda qator asarlar yaratgan. Bular ichida "Savoyar" (1709) hamda armiyadagi kundalik turmushni ifodalaydigan asarlari diqqatga sazovordir. U 1710 yilda san'at muxlislari va xomiylari to'garagiga qabul qilinadi va butun umrini shu to'garak bilan bog'laydi. Endilikda rassom aristokratlar hayotiga, ishq-muhabbat mavzusiga bag'ishlangan suratlar muallifiga aylanadi. Shuningdek teatr hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalar ham ishlaydi. Rassomning "Siteru oroliga ziyorat" (1717) nomli mashhur asarida romantik manzara o'rnida ichkari tomon borayotgan yigit va qizlar tasvirlangan. Uzoqda esa tuman orasida jannat farishta-yu malyikalarga to'la baxt oroli ko'rinadi. Rassom kompozitsiyadaga har bir obrazning xis-tuyg'u va kechinmalarini ochishga harakat qiladi. Shu maqsadda ularning xatti-harakati, yurish-turishi, atrofdagilarga muomalasi, qosh, ko'zlari ko'rinishini aniq ko'rsatadi.

Asardagi tabiat manzarasi chuqur lirik tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ularning kayfiyatlariga mos keladi. Vatto kam figurali maishiy janrga ham tez-tez murojaat qiladi. Bu o'rinda uning "Savoyar", "Jil" (1720), "Injiq qiz" (1710 yil oxiri) kabi asarlarini eslash mumkin. Kompozitsiyaning bunday yechimi rassomga o'z qahramonlari xissiy kechinmalarini chuqur ifodalash imkoniyatini beradi. "Jil" asarida tasvirlangan obrazdagi mayuslik va g'amginlik uning yolg'iz turishi orqali yanada bo'rttirilgan. Vattoning so'nggi "Jersen do'koni" (1721) deb nomlangan yirik asarida suratlar bilan savdo qiluvchi do'sti Jersen do'konining ichki ko'rinishi tasvirlangan. Rassom haridorlar qiyofasini tasvirlab, ularning san'atga munosabatini ko'rsatgan. Vatto qalamsurat borasida ham samarali ijod qilgan. Uning qalamsuratlari bevosita hayotning o'zidan ishlangan bo'lib, hayotiyligi, chiziqlarining ifodaliligi va ta'sirchanligi bilan e'tiborni tortadi. Vatto ijodida bir tomondan realistik, ikkinchi tomondan, barokkoga xos xususiyatlar sezilsa, aksincha shu davrning boshqa bir rassomi Fransua Bushe (1703-1770) ijodida rokkoko uslubi yetakchilik qiladi. Qirolning birinchi rassomi, akademiya direktori, aristokratiya san'atkori bo'lgan Bushe kitob bezash, intererlar uchun dekorativ pannolar ishlash yo'nalishida samarali ijod qildi. Shpaler uchun kartonlar ishladi. Parij opera teatri uchun

dekoratsiya va kiyimlar yaratdi. O'z ijodida mifologiya, allegoriya va pastoral janrlariga murojaat etdi. Uning asarlari syujetida nozik va malohatli Veneralar, sho'x va o'yinqaroq maloikalar, ishq-muhabbat ko'yida yongan yosh cho'pon yigit va qizlar obrazi yorqin gavdalanadi. Musavvir asarlari serjilva, chiziq va shakllarining o'zaro murakkab naqshlanishi bilan harakterlanadi. Asarlari koloritida ham oqish, ko'kish ranglar gammasi yetakchilik qiladi. Rassom obrazlarning xatti-harakati, mimikasi orqali ular holatini ochishga intiladi. Lekin bu holatlar sun'iy bo'lib tuyuladi. U o'z obrazlarini ideallashtirishga intiladiki, bu ham uning asarlarini hayot haqiqatidan uzoqlashtiradi. Bushe ijodining eng gullagan davrida yaratilgan "Veneraning tug'ilishi" uning asarlariga xos jihatlarini yaqqol namoyish qiladi. Bushe manzara janrida ham ijod qilgan. Ular o'zining lirik kayfiyati bilan iliq taassurot qoldiradi. Rassom qalamsuratlari ham o'ziga xos asar sifatida ko'rinadi.

XVIII asr o'rtalaridan boshlab, kiborlarning haddan ortiq noziklashib, hayotdan uzoqlasha borgan san'ati Deni Didro boshchiligidagi burjua tanqidchilari tomonidan keskin tanqidga uchradi. Jumladan Didro kiborlar san'atining hayotdan uzoqligini, haddan tashqari sun'iyiligini tanqid qilgan holda, hayot xodisalarini aniq, gavdalanitirib, yangi zamon kishilari tarbiyasiga xizmat qila oladigan san'atni ma'qulladi. Didro boshchiligidagi tanqidchilar fikricha san'at chuqur mazmunli bo'lishi, kishilarga hayot muammolarini bilishga ko'maklashishi hamda jamiyat rivojlanishiga xizmat qilishi zarur edi. Didroning san'atga bu xil qarashlari uning Luvrda bo'lgan ko'rgazmalarga atab yozilgan maqolalarida o'z ifodasini topdi.

Didro hurmatiga sazovor bo'lgan, o'z ijodi bilan uning qarashlariga yaqin rassomlardan biri Jan Batist Simeon Sharden (1699-1779) edi. Sharden rassomlikdan tugal akademik tarbiya olmadi. Naturadan rayem chizish, hayotni sinchiklab o'rganish uni buyuk fransuz realist rassomi darajasiga ko'tarilishiga olib ketdi. U oddiy turmush hodisalaridan, xunarmandlarning ustaxonalaridan, "uchinchi tabaqa" vakillarining kundalik hayotidan san'atda ifodalash mumkin bo'lgan syujetlar ko'ra oldi. Ulardan poeziya topa oldi.

1726 yili ana shu mavzudagi ikki asari bilan ko'pchilik e'tiborini o'ziga tortdi. Ko'rgazmaga qo'yilgan ikki natyurmorti uchun Akademik unvoniga sazovor bo'ldi. Sharden XVIII asrda Fransiya san'atida shakllana boshlagan natyurmort janrida samarali ijod qildi. U oddiy ko'za, shisha idishlar, stakan, oddiy oshxona buyumlaridan, meva va sabzavotlar, ba'zan esa baliq yoki ovda otilgan o'ljalarni tasvirlab natyurmortlar ishladi. "Mis idish", "san'at anjomlari", "Natyurmort". U tabiat ne'matlarining rang-barang shakli, fakturasi, hajmi, ko'rinishidan zavqlanib, ularni ifodalashga harakat qildi. Ulardagi nur va rang tuslanishlarida go'zallik kashf etdi. Didro uning asarlarini "Buyumlar atrofidagi havo harakati qanday ajoyib tasvirlangan, mana kim bo'yoq va reflekslar garmoniyasining qadriga yetadi" deb yuksak baholab, Shardenni Yevropa rassomlari ichidagi birinchi kalorist sifatida tan olgan edi. Haqiqatdan ham G'arb san'atining ajoyib kalorist rassomi Sharden o'zining sodda, lekin ulug'vor natyurmortlarida buyumlarning massasi, fakturasini ko'rdi. Ular ichida yashirin kuchni his etdi. Ularning havo bilan o'ralgan, nur bilan yoritilgan holatini mohirona ifoda etdi, Sharden maishiy janrda ham samarali ijod qilgan. Uning "uchinchi tabaqa" kishilari hayotiga bag'ishlangan kompozitsiyalari sodda va samimiy ("Ovqat oldidan ibodat", 1744 "Kir yuvuvchi", 1737). Ulardan na dramatism, na nasihatgo'ylik seziladi. Hamma o'z turmushi bilan band. Shulardan rassom chuqur ahloqiy mazmun ko'ra oldi. Rassom asarlarni yuksak mahorat bilan ishlanishi, ranglar uyg'unligi uning asarlariga ta'sirchanlik bahsh etadi. Sharden XVIII asr fransuz san'atida realistik portret yaratgan dastlabki ijodkorlardandir. Uning "Avtoportret", "Qaylig'im portreti" mashhurdir.

XVIII asr realistik san'atining rivojlanishi portret san'atiga qiziqish bilan bog'liqdir. Bu davr portret san'atida ikki yo'nalish mavjud bo'ldi. Biri kiborlar didi va xohishi asosida yaratilgan parad portret, ikkinchisi voqelikni to'laqonli ko'rsatishga qaratilgan realistik portret yo'nalishidir. Shunday san'atkorlardan biri Mores Kanten Latur (1704-1788) bo'lib, u o'z zamondoshlarining ko'plab portretlarini yaratib qoldirdi. U o'z portretlarini ko'proq postelda ishlab, bu texnikada katta muvaffaqiyatga erishgani uchun "pastel qirol" degan nomga sazovor bo'ldi. Davrning ilg'or kishisi bo'lgan Latur o'z portretlarida tasvirlanuvchilarning ichki dunyosini ochishga, uning harakteri, ijtimoiy o'rni hamda kasbini ko'rsatishga harakat qildi. Odamning ichki dunyosi uning qiyofasida ifodalanishi masalasi rassomni qiziqitirdi. Odam yuzida bo'lgan jiddiy o'zgarishlar (ko'z, qosh, lab, peshona va hokazo) orqali o'z qahramonini ichki dunyosini yoritib berdi. Uning qahramonlari doim faoliyatda, harakat paytida tasvirlanadi. Volterga bag'ishlangan portreti hamda o'z avtoportretida shu

xususiyatni ko'rish mumkin.

San'atning tarbiyaviy rolini o'zicha tushungan Jan Batist Gryoz (1725-1805) kompozitsiyalarida didaktikaga ko'proq e'tibor berdi. Shu maqsadda u o'z qahramonlarini oliyjanob, yuksak ahloqli, yaxshi niyatli qilib ko'rsatishga harakat qildi. Bu uning asarlarida sun'iylikni kuchaytirib, ularning qiymatini usaytirdi.

Rassom ijodiga xos bu xususiyat, ayniqsa, uning ko'p figurali kompozitsiyalarida yaqqol sezildi, masalan, "Shol bo'lgan odam" (1763) asarida. Gryoz ijodining yorqin jihati uning portretlarida namoyon bo'ldi. Uning farishta-maloikalarga atab ishlangan "boshchalari" ham unga o'z vaqtida shahrat keltirdi. Gryoz qalamtasvirlari ham realistik harakterga ega.

Bushe va Sharden ustaxonasida tahsil ko'rgan Onore Fragonar (1732-1806) ijodi ham XVIII asr fransuz san'atida muhim o'rin egallaydi. Uning moybo'yoqda ishlangan maishiy janrdagi asarlarida, qalam va sanginada ishlangan suratlarida shu davr fransuz san'atida mavjud bo'lgan yo'nalishlar o'z ifodasini topgan. Jumladan, uning ilk ijodida ("Arg'imchoq" 1767, "Yashirincha bo'sa" 1760) baroqqo uslubiga yaqinligi seziladi. U real borliqning rang-barangligini, nurning boy o'yinini tasvirlashga harakat qiladi. U asta-sekin oddiy hayotga murojaat qila boshlaydi (masalan, "Kir yuvuvchilar"). Tabiat ko'rinishlari o'zining ulug'vorligi bilan unga ilhom bahsh etadi. Fragonar portret san'atida ham samarali ijod qildi. Uning portretlarida inson qalbidagi hayajon, bezovtalik holatlari tasvir etildi. Fragonar intim-lirik plandagi portretlari bilan keyingi asr romantizmiga xos xususiyatlarni boshlab berdi.

Haykaltaroshlik. Haykaltaroshlik ham ko'proq intererlarni bezash san'atiga xos rokkoko uslubiga asoslandi. Mifologik va allegorik syujetlarga qiziqish ortdi. Bu mavzular shu davrda keng yoyila boshlagan mayda plastikada ko'p ishlandi. Lekin burjuaziyanning did va qarashlari o'zgarishi bilan shu davr haykaltaroshligining mavzu va karakteri o'zgarib boshladi. Ishlangan haykal kompozitsiyasining sodda va jiddiy bo'lishi, kam detallardan foydalanib, asar yaratishga intilish sezilarli bo'ldi. Yaratilgan asarlarda realistik jihat kuchaya bordi. bu yangi shakllanib kelayotgan jarayonlar dastlab portret san'atida, keyinroq monumental haykaltaroshlikda ko'rinish boshladi. Ana shu izlanishlar yirik fransuz haykaltaroshi Eten Moris Falkone (1716-1791) ijodida o'z yorqin ifodasini topdi. Folkonye o'z ijodini intim-lirik plandagi haykallar ishlash bilan boshladi. Chinni manufakturasiga badiiy rahbar bo'lgandan keyin (1757) mayda plastikada ijod qilib, fransuz chinni san'ati rivoj topishida katta rol o'ynadi. 1850 yil oxirlaridan boshlab, Flakone ijodida antik davr san'atiga qiziqish orta bordi. U asar mazmunini chuqurlashtirish, uning badiiy tahlili sodda va jiddiy bo'lishiga e'tibor bera boshladi. Bu uning keyinchalik yirik monumental haykaltarosh usta darajasiga ko'tarilishiga asos bo'ldi. Uning Peterburgdagi "Mis chavandoz" (1766-1782) haykali shundan dalolat beradi. (Bu haykal haqida kitobning "Rus san'ati" bo'limida batafsil ta'rif berilgan.)

XVIII asr fransuz haykaltaroshligiga xos realizm Jan Antuan Gudon (1741-1828) ijodida, ayniqsa, uning portretlarida yorqin namoyon bo'ldi. U o'z ijodi bilan noziklashib ketgan rokkokoga ham, klassitsizmning ortiqcha ritorikasiga ham qarshi chiqib, voqelikning o'ziga murojaat qildi. U antik san'atni va o'z davrining mashhur haykaltaroshlari asarlarini qunt bilan o'rgandi. Ammo ular tobe bo'lib qolmadi. Gudon uzoq vaqt odam anatomiyasini o'rganib, o'zining mashhur anatomik haykali (terisi olib tashlangan erkak haykali) yaratdi. San'atkorning yigirma olti yoshda yaratgan bu haykali keyinchalik tasviriy san'at asosini o'rganuvchilar uchun ko'rgazmali namuna bo'lib qoldi. Gudon o'z ijodini monumental haykaltaroshlikdan boshladi, lekin portret san'atida uning haqiqiy iste'dodi namoyon bo'ldi. U o'z qahramonlari tashqi qiyofasini juda o'ziga o'xshatgan holda, ularning ichki dunyosi, o'ychan kayfiyatini ham aniq ifoda qildi. Uning qahramonlari harakatchan, otash qalbli kishilardir. Gudonning portret san'atidagi ijodi 1770-1780 yillarda samarali bo'ldi. U juda ko'p portretlar ishladi. Ayniqsa, ilg'or kishilar, ma'rifatparvarlar, mutafakkirlar, eskilikka qarshi kurashuvchilar, irodali va harakatchan tashabbuskorlarga atab ishlangan portretlari e'tiborlidir. Bu asarlari, uni ma'rifatparvarlarga yaqinlashtiradi. Ularning mafkurasini targ'ib etuvchi san'atkor darajasiga ko'tardi. Bu haykaltaroshning yirik asari "Volter haykali"da (1781) yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu haykalda faylasuf Volterning kresloda o'tirgan payti tasvirlangan. Uning biroz bukilgan qomati va o'tirishida horg'inlik va qaysarlik alomatlarini seziladi. Lekin uning o'tkir qarashlarida, yengil tabassumida o'tyurakli, ziyrak, o'z suhbatdoshi bilan bahslashishga tayyor turgan shaxs qiyofasi gavdalandi.

XVII ASRDA FLAMANDIYA SAN'ATI

XVI asrda Niderlandiyada bo'lgan inqilob uning shimoliy viloyatlarida Gollandiya burjua respublikasining tashkil topishiga olib kelgan bo'lsada, uning janubiy kismidagi Flamandiya Ispaniyaga qaramligicha qolaverdi. Mahalliy dvoryan va ruxoniy feodallari ispanlarga yon berib, xalq milliy ozodlik kurashini bostirishda qatnashib o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Ular bosqinchilar homiyligida dabdabali hayot kechirdilar. Cherkov, yirik aristokratiya va burjuaziya shu davr san'atining asosiy buyurtmachisi bo'lib qoldi.

XVII asrda flamand san'ati ranggasvirda realistik san'atning yangi qirralarini kashf etib, jaqon san'ati tarixida yangi sahifa ochdi. Cherkov san'atning asosiy buyurtmachisi sifatida yangi qurilayotgan yoki ta'mirlanayotgan kichik va katta ibodatxonalarni katta-katta devoriy suratlar bilan bezattirdi. Mexroblar uchun yirik suratlar ishlatdi. Bu suratlar o'zining drammatizmi va ta'sirchanligi bilan ommani o'ziga jalb etishi va cherkov g'oyalarini targ'ib etishi zarur edi. Aristokratiya va shakllalshb kelayotgan burjuaziya ham buyurtmalar berishda cherkovdan qolishmaslikka intiddi. Ular ham o'z qasr va saroylarini serhasham va go'zal bo'lishiga katta e'tibor berdilar. Diniy, mifologik va dunyoviy mavzuda suratlar ishlatdilar, portretchilikka qiziqib qaradilar. Bu XVII asr flamand san'ati uslub va mavzu rang-barangligini belgilashda muhim rol o'ynadi. Yevropa barokkosi bu yerda o'ziga xos ko'rinish kashf etdi. Rangdor, kompozitsiyasi yuksak professional mahorat bilan ishlangan to'laqonli asarlar yaratildi. Shu davrda flamand barokkosi o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi.

Flamand ranggasvir san'atining yo'l boshchisi, Yevropa san'atining yirik vakili Rubens asli germaniyalik bo'lib, yoshlik yillarida ota-onasi bilan Flamandriyaga ko'chib keldi. Shu yerda lotin maktabida o'qidi, so'ngra rassom Otto van Veyey ustaxonasida viriyot asoslarini egalladi. Rubensning rassom bo'lib yetishishida uning Italiya bo'ylab qilgan safari, ayniqsa, muhim bo'ldi. Antik va Uyg'onish (Renessans) san'ati vatani Italiyada Rubens buyuk san'atkorlar asarlari bilan yaqindan tanishdi.

Ayniqsa, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Titsian, Veroneze va Karavajo ijodi unga qattiq ta'sir qildi. Ularni yosh rassom qunt bilan o'rgandi. 1608 yili Rubens Antverpenga qaytib kelgach, ijodga sho'ng'idi. Turli mavzularda asarlar yaratdi, portretlar ishladi. Rassomning dong'i keng yoyila boshladi. Buyurtmachilarning ko'payishi unga ustaxona tashkil etish imkoniyatini yaratdi. U o'z atrofiga iste'dodli yoshlarni to'pladi, graverlar maktabi tashkil etdi. Rassomning ilk ijodi 1610 yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda uning ijodida Gretsiya maktabi hamda Karavajo ta'siri seziladi. Lekin rassom asarlari dinamik jo'shqin, ichki kuch-qudratga to'laligi bilan e'tiborini jalb etdi ("Butdan tushirish", 1610-11). Rassomning mifologik va allegorik mavzudagi asarlari ham o'ziga xos. Ular hajm jihatdan katta, rangi yorqin va dekorativ, xis-hayajonli, obrazlari esa to'laqonli, zabardast, kuch-quvvatga to'la. Rassom qaysi mavzuga murojaat qilmasin, u o'z qahramonlarini jismoniy baquvvat qilib gavdalantiradi ("Vakxanaliya", "Levkip qizlarining ug'irlanishi", "Sher ovi", "Cho'chqa ovi"). 1620 yildan Rubens ijodining eng gullagan davri boshlanib, asarlarining emotsional jihati yanada kuchaydi. Endilikda rang uning asarlarining ta'sirchanligini belgilovchi va kompozitsiyasini tashkil etuvchi asosiy vosita bo'lib qoldi. Shu yillarda yaratgan dastlabki e'tiborli asarlaridan biri "Persey va Andromeda" (1620-21) kompozitsiyasi hisoblanadi. Qadimgi yunon afsonalaridan olingan syujet asosida ishlangan bu asar o'zining obrazli plastik yechimi, hamda tasvirlanuvchilarning psixologik holati yorqin ifodalanishi bilan tomoshabin diqqatini o'ziga tortadi. Rassomning Mariya Medichi hayotiga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi asarlar turkumi (1622-25) san'at tarixida muhim voqea bo'ldi. Lyuksemburg saroyini bezash uchun mo'ljallangan bu rasmlar Fransiya qirolichasi hayoti va faoliyatini yoritishga qaratilgan. Rassom bu turkumdagi asarlarni ishlashda real ko'rinishlarni noreal obrazlar bilan uyg'unlashtirib ishlaydi. Real shaxs, sharoit, muhit tasviri arxeologik va mifologik obrazlar qurshovida o'ziga xos yangi dunyo sifatida ko'rinadi. Rubensning shu yillarda yaratgan portretlari ham o'zining chuqur lirikasi, hayotiyliigi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Rassomning mashhur asarlaridan biri "Izobella portreti" (1625)dir. Tasvirlanuvchining mungli nigohi va ochiq chehrasida uning sof qalbi, nafosatli ayol sifatidagi qiyofasi yorqin ifodalangan. 30-yillar rassom ijodining so'nggi davri bo'lib, endilikda Rubens katta bo'lmagan hajmli asarlar ishlashga ko'proq e'tibor bera boshladi. O'zining ko'p vaqtini shahardan tashqarida o'tkazdi. Shu davrda yaratilgan

asarlari mazmunan chuqur, ularning kompozitsiyasida hotirjamlik seziladi. Shu yillarda rassom oddiy xalq hayotiga ko'proq murojaat qila boshladi, tabiat manzaralarini ishladi, o'z yaqinlarining portretlarini chizdi. Ayniqsa, o'z oilasi Yelena Fourmen va bolalarini tasvirlab qator kompozitsiyalar yaratdi. Rassomning qishloq hayotiga bag'ishlangan asarlari ham diqqatga sazovor. Xushchaqchaq, serzavq dehqonlarning raqs va o'yinlariga bag'ishlangan asarlari nihoyatda jo'shqin va ta'sirli ishlangan ("Dehqonlar raqsi"). Rubens ijodi Yevropa san'ati tarixida muhim o'rin tutadi. Uning keyingi taraqqiyotini Rubens ijodi ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Flamand ranggasviri ravnaqi ham Rubens ijodi bilan cham-barchas bog'liq. Ko'pgina flamand rassomlari uning ijodidan ta'sirlandilar, uni davom ettirdilar. Rassomning ko'pgina shogirdlari flamand ranggasviri shuhratini oshirishga o'z xissalarini qo'shdilar.

Van Deyk (1599-1641). Rubens shogirdlaridan biri mashhur rassom Antonis Van Deyk hisoblanadi. Dastlabk X. Van Balen, so'ngra Rubens ustaxonasida tasviriyot asoslarini o'rgangan bu rassom o'z ijodini diniy-mifologik plandagi asarlar yaratish bilan boshladi. Kompozitsiyasi dinamik, obrazlari to'laqonli, ranglari yorhin yuksak mahorat bilan ishlangan uning bu asarlarida Rubens ta'siri yaqqol ko'rinadi. Lekin asta-sekin Van Deyk asarlarida bu hislatlar kamayib, obrazlarning plastik yechimi noziklashib, ko'tarinkilik ruxi lirik kayfiyat bilan almashib, ishlash uslubi ham nafislashib boradi. Rassom dramatik mavzularga murojaat qiladi, o'z diqqatini psixologik holatga qarata boshladi. Bu uni portret janriga murojaat qilishga da'vat etdi. U kiborlar portreti ustasi sifatida tanildi. Uning portretlarida kiborlar muhitida tarbiyalangan, nafis didli, xotirjam va o'z kuchiga ishongan olijanob kishilar qiyofasi ko'rinadi. Uning ilk portretlari flamand burger va zodagonlari hamda ularning oila a'zolariga bag'ishlangan ("Oilaviy portret". 1618-1626). Keyinroq u Gretsiyada yashaganida ham kiborlarning sevimli portretchisiga aylandi. Bu yerda uning portretchilik san'ati ravnaq topdi. U ishlagan obrazlar baland bo'yli, turishlari mag'rur. Ularning ko'rkam liboslari portretlarini yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan. Van Deyk umrining so'nggi o'n yilini Angliyada Karl I saroyida o'tkazdi. Shu yerda qirol va uning oilasi a'zolari portretini chizdi. U ishlagan portretlarda dekorativlilik birmuncha kuchaydi, rassom tez-tez ko'kimtir kumushrang gammaga murojaat qila boshladi. Angliyada yarattan asarlari ichida "Karl I ning parad portreti" (1635) alohida o'rinni egallaydi. Van Deyk portreti chizilgan o'ziga xos jihatlarini ma'lum darajada ideallashtirgani holda, uning yengil tabiat, maqtanchoq va irodasi kuchsiz davlat arbobi ekanligini ham ustalik bilan ochib beradi.

Yakob Iordans (1593-1626) ham Flamandiyaning yirik rassomlaridan biridir. Uning diniy va mifologik planda ishlangan kompozitsiyalari o'z karakteri jihatidan hayot lavhalarini eslatadi. Rassom Rubens asarlaridagi singari to'laqonli, jismoniy baquvvat dehqonlar obrazlarini yaratadi. Iordane o'z ijodida turli maqol, masal va afsonalarga murojaat qildi. Jumladan, uning "Satir dehqonlar huzurida" (1620) asari syujeti qadimgi yunon dramaturgi Ezop yozgan masaldan olingan bo'lib, unda o'rmonda yashaydigan satir (yarim odam, yarim echki shaklidagi afsonaviy maxluq) bilan dehqon do'st bo'lganligi va satir dehqonning issiq ovqatni puflab sovo'tgani va sovuqda muzlagan qo'lini puflab isitganini ko'rib, hayron bo'lgani va uni ikkiyuzlamachilikda ayblab, aloqasini uzganligi hikoya qilinadi. Iordane ijodiga xos xususiyat uning katta va ko'p figurami kompozitsiyalarga murojaat qilishida ko'rinadi. Kompozitsiyada tasvirlangan odamlar yirik va jismoniy baquvvat. Ularning ruxiy kechinmalari tasvirlanuvchilarning mimik o'zgarish, xatti-harakati orqali ko'rsatiladi. Shakllarning to'laqonli plastik yechimi asar kompozitsiyasining dinamik holatida muhim rol o'ynaydi va tasvirlanayotgan syujetni ishonarli va hayotiy bo'lishiga xizmat qiladi. Iordansning "Loviya qiroli bayrami" (1636) asari shu jihatdan e'tiborlidir.

Flamand san'atida realistik yo'nalish muhim o'rin egallaydi. Natyurmort va maishiy janrlarda ham ana shu xislatlar aniq, o'zini namoyon etadi. Katta hajmdagi natyurmort va maishiy janrdagi kompozitsiyalar flamand san'atida o'ziga xos janr sifatida xalqning tinch hayot go'zalligi, farovonlik, to'kin-sochinlik haqidagi ta'sirchan ifoda qiladi. Flamand san'atida katta hajmdagi monumental dekorativ planda sermaxsul ijod qilgan, rassom Frans Sneyders (1579-1657) bo'lib, uning "Do'kon" deb nomlangan natyurmorti diqqatga sazovordir. Turli meva, ovda otilgan qush va hayvonlar, ovlangan baliqlar do'kon peshtaxtalarini to'ldirib yuborgan. Ularni harid qilayotgan odamlar ko'rinadi. Asar yorqin buyoklarda yuksak mahorat bilan ishlangan.

Adrian Brauer (1605-1638) va Tenirs Kichik David (1610-1690) maishiy janrda ijod qilib,

flamand san'ati" ravnaqiga o'z xissalarini qo'shdilar. Oddiy xalq. hayotiga bag'ishlangan asarlari bilan san'at tarixida o'z nomlarini qoldirdilar. Ularning goh yengil yumor, goh satira bilan sug'orilgan asarlari odamlar orasidagi turli munosabatlar haqida hikoya qiladi ("Karta o'ynash vaqtidagi mushtlashish"). David Teniers ijodida hayvonlar, jumladan, maymunlarga bag'ishlangan yumoristik asarlar uchraydi ("Karta o'ynayotgan maymunlar") va xokazo.

« Jahon san'ati tarixi » fanidan amaliy mashg'ulot mavzulari

**1-Mavzu. Jahon san'ati tarixi fanining maqsadi, vazifalari
va uning fan sifatida shakllanishi. (2-soat)**

Reja:

- 1.Kirish.Fanning dolzarbligi, maqsad va vazifalari.
- 2.San‘atning jamiyatdagi o‘rni.
- 3.Jahon san‘ati tarixi fanining fan sifatida shakllanishi.

Dars o‘tish jarayonida yangi pedtexnologiyalardan (“Bumerang”, Munozara”) foydalaniladi.

